Suyuq xromatografiya-bu sinov moddasini ikki faza o'rtasida taqsimlanishiga qarab ajratish usuli: statsionar va harakatchan. Statsionar faza-bu sinov namunasi filtrlangan ustunlardagi sorbent. Ustunli xromatografiya-bu alohida birikmalarni aralashmadan ajratish uchun ishlatiladigan keng tarqalgan usul. Kelajakda foydalanish uchun materialni ajratish va tozalash uchun siz ustunli xromatografiyadan kichik va katta miqdarda foydalanishingiz mumkin.



15. Xromatografik sistema

Quritish shkafllari tibbiyot muassasalarida laboratoriya jihozlarning ajralmas elementi hisoblanadi, chunki asboblarni doimiy ravishda sterilizatsiya qilish va turli xil analitik protseduralar mavjud. Oziq-ovqat sanoatida bunday qurilmalar mahsulotlarni kerakli holatga keltirishda qo'llaniladi. Qishloq xo'jaligi sanoati ularni don ekinlarini quritish uchun, metallurgiya sanoati esa mahsulotlarni eritish va otish uchun ishlatadi. Laboratoriya quritish shkafi ko'plab sohalarda talab qilinadigan maxsus uskuna. Barcha turdagi materiallarni -50-500 haroratda sterilash va quritish uchun mo'ljallanadi ta'sir ko'rsatkichlar, shuningdek, -350 da analitik ishlarni amalga —



16. Quritish shkafllari

Termostat. Biologiya laboratoriya uchun zarur bo'lgan - termostat, haroratni doimiy (+1 -2°C) tarzda titib turadi va biologik obyektlarni inkubatsiya qilish uchun qulay sharoit yaratadi. Termostat ikki qavat mis plastinkadan qilingan devordan iborat bo'lgan shkaf ko'rinishida bo'lib, bu qavatlar orasi distillangan suv bilan to'lgan bo'ladi. Shkaf devorlarining barcha qismini o'rab turgan suv elektr elementlar yordamida avtomatik qo'shilish va ajratilish natijasida qizdirilib turiladi.

Shkafning ichki burmali devoriga metall ugolniklar birlashtirilgan bo'lib, u alyumindan yasalgan setkali tokchalarni tutub turish vazifasini bajaradi. Termostatning

teploizolyatsiyasida asbest va mineral paxtadan fodalaniladi. Termostatning yuqori qismida ikkita kichik tuynuk (ochiq) mavjud bo'lib, ularning biri termometr uchun bo'lsa, ikkinchisi esa ventilyatsiya uchun qoldirilgan.

Izolyatsiyalangan eshik ichida joylashgan shisha darchani ochmasdan, termostat ichida joylashgan kulturalarni kuzatish mumkin. Yuqori qismida joylashgan qo'shimcha tuynuk suv solishga, suv o'lchovchi trubka va termoregulyatorni kiritishga mo'ljallangan.

Termostatning ishchi kamerasini sterillashda turli suyuq dezinfeksiyalovchi moddalar (70%-li etanol, sterogenol va boshq.) yaxshi samara beradi. Bu maqsadda turli kislotalar va ishqorlarni qo'llash tavsiya etilmaydi, chunki bu moddalar uning devori va tagida karroziyani keltirib chiqarishi mumkin. Suvli qobiq ichini vodoprovod suvi bilan to'ldirishga ruxsat etilmaydi.

Bir xil haroratda juda ko'p miqdordagi biologik obyektlarni inkubatsiyalanuvchi (o'quv muassasalarining ishlab chiqaruvchi, tadqiqot va kuzatuv) laboratoriyalari maqsadga muvofiq teploizolyatsiyalangan va maxsus isitiluvchi termostat xonalari bilan jihozlanishi zarur. Mikroorganizmlar kulturalarini devorga yaqin tokchalarga joylashtirish mumkin. Bunday xonalarni dizinfeksiyalanishida aerazol dezinfeksiyalovchi vositalar yaxshi samara beradi.

Anaerostat – bu qalin davorga ega bo'lgan metallardan yasalgan, og'zi germetik qopqoq bilan yopiluvchi, monometr va ikkita jumrakdan iborat idish hisoblanadi. Ulardan biri havoni so'rib olish uchun qo'llanilsa, ikkinchisi esa inert gazlar (argon, azot, vodorod, geliy) bilan to'ldirishda ishlatiladi. Anaerostat uzoq muddat vakuum sharoitini saqlaydi va u anaerob mikroorganizmlarni ko'paytirish va tozalashni osonlashtiradi, mikroorganizmlar odatda Petri chashkasi va probirkalarda o'stiriladi. Kulturalar joylashtirilgandan so'ng anaerostat germetik tarzda yopiladi va havosi so'rib olinib, 15-20 mm ga tenglashtiriladi. Undan so'ng anaerostat ma'lum gaz bilan to'ldiriladi yoki to'ldirilmagan holatda ma'lum haroratda

ushlab turish maqsadida termostatga joylashtiriladi. Har kuni anaerostat monometri nazorat qilib borilishi va zarur bo'lgan taqdirda uning havosi so'rib olinishi kerak bo'ladi.

Kislorod miqdorini nazorat qilish uchun anaerostat devorida joylashtirilgan shisha trubkada o'rnatilgan maxsus indikatorlardan foydalaniladi.

Ayrim hollarda anaerostat o'rnida vakum eksikatoridan foydalanish mumkin, ammo u manometr bilan jihozlanmagan, ammo vakumni bu hodisada birgina kislorod indikator yordamida nazorat qilish mumkin.

Germaniya va bir qator davlatlarda anaerob bakteriyalarni ko'paytirish uchun anaerob termostatlar ishlab chiqariladi, unda harorat 30-70°C hamda kislorodsiz atmosfera sharoiti yaratiladi.

Sovutgichlar. Odatda laboratoriyalarda maishiy xo'jalik muzlatgichlari ishlatiladi, ammo ilmiy tadqiqot ishlari uchun isitish va sovutish sistemasiga ega bo'lgan CR-114 Labor kabi maxsus qurilma zarur bo'lib, bu zarur harorat rejimini tez va aniq ushlab turish imkoniyatini beradi. Laboratoriya sovutgichlari haroratni 4-5°C oralig'ida ushlab turadi va ular keng miqyosda qo'llaniladi. Ularda tayyor va sterillanmagan ozuqa muhitlarini (bir sutkadan ortiq bo'lmagan muddatda), tekshirish uchun yig'ilgan tuproq, go'ng va o'simlik namunalari saqlanishi mumkin. Yig'ilgan bunday namunalarning mikrobiologik analizi tez muddatlarda o'tkazilishi zarur, chunki ularning mikroflorasi son va sifat jihatdan o'zgarishi mumkin.

Mikroorganizmlar kulturalarini alohida xolodilnikda (5°C), namlik bilan zararlanishini oldini olgan holda saqlanishi zarur. Uchuvchan moddalar va gazlar solingan idishlar germetik holatda yopilgan holatda bo'lishi zarur. Oziq ovqat mahsulotlarining mikrobiologik laboratoriyada saqlanishi mutlaqo ta'qiqlanadi.

Shkaflar, laminar bokslar va ekish kabinalari


Bugungi kunda molekulyar biologiya va mikrobiologiya amaliyotida ekish uchun ishlatiladigan shkaflar zanglamaydigan metallardan yasalgan bo'ladi. Bu shkaflarning oldingi yuzasining yuqori qismi oynadan yasalgan bo'lib, 45° burchak asosida

gorizontal holatda joylashgan. Quyi qismida ikkita maxsus qo'l uchun joy qilingan bo'lib, unda rezina qo'lqop mahkamlangan. Shkafning orqa qismida elektr provada va gazni olib kelish uchun trubalar mahkamlangan bo'ladi.

Ularni dezinfektsiylovchi moddalar yoki ultrabinafsha lampalari yordamida sterillanadi.

So'ngi yillarda sterillash kabinasining o'rnida laminar boks ishlatiladi. Laminar boksning oldingi qismi to'liq ochiq holatda bo'ladi va unda doimiy va sekin sterillangan havo oqimi doimiy esib turadi. Havoning laminar oqimi porasi 0,3 mkm bo'lgan "Hepa" filtri orqali o'tib keladi. Havo oqimining yo'nalishiga qarab laminar bokslar vertikal va gorizontal (1-rasm) ko'rinishda tuzilgan xillarga bo'linadi.

Ekish uchun maxsus kabina bu - sterill holatda ishlash imkonini beruvchi laboratoriyaning bir qismi hisoblanadi. Vodoprovod va gaz trubalari namlikka chidamli materiallar bilan qoplanib, devorga o'rnatilgan bo'ladi. Kabinani sterillash unga o'rnatilgan kvarts lampa yordamida amalga oshiriladi.



1-rasm. Laminar boks (a) va unda havo oqimi (b)

Biologiya laboratoriyalarida bajariladigan ishlardan eng muhimi - massa (vazn)ni tortish yordamida aniqlashdir. Shuning uchun ham tarozilar laboratoriyada keng tarqalgan asboblardan hisoblanadi.

Tortish aniqligiga qarab, tarozilar turli xil bo'ladi:

Texnik tarozilar: o'lchashda yuqori aniqlikni talab qilmaydigan materiallar, reaktivlar, dorivor preparatlarni tortish uchun ishlatiladi.

Analitik tarozilar: esa massani yuqori aniqlik bilan o'lchash zaruriyati bo'lganda ishlatiladi (2-rasm).



2-rasm. Analitik torozi BM-6200

Texnik tarozilarda milligrammli va grammlargacha o'lchash mumkin (3-rasm). Analitik tarozilarda esa 0,1-0,01 mg gacha o'lchash imkoniyati mavjud. Bulardan tashqari maxsus tarozilar ham mavjud. Masalan, sentrifuga tarozilarida probirkalar muvozanatga keltiriladi.



3-rasm. Laboratoriy torozi CAS

Tarozilar bilan ishlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

Tarozilarni isitgich tizimlari batareyalariga yaqin bo'lgan joylarga o'rnatish mumkin emas, ularga quyosh nurlari ham tushmasligi kerak. Tarozni yelkalariga bir xilda issiq tegmasligi, ularni tengligini buzishi mumkin;

Shahar tarnsporti ta'siridagi stolni qimirlashlarini hisobga olib, tarozilarni qalin marmar plitalar ustiga o'rnatish kerak;

Imkoniyat darajasida tarozilarni maxsus xonalarda o'rnatish maqsadga muvofiqdir. Tarozilar umumiy laboratoriyalarda o'rnatilsa, ularni atrofida kuchli kislotalarni saqlab bo'lmaydi. Chunki ular ta'sirida tarozilar korroziyaga uchrashi mumkin;

Texnik tarozilarda tortish texnik toshlardan foydalaniladi. Analitik tarozilarni maxsus toshlari bo'lib, ular g'illoflarda saqlanadi;


1-sinfga mansub texnik va analitik tarozilar bilan ishlaganda, havo oqimlaridan saqlash uchun ularni eshikchalari yopiq holatda bo'ladi. Tortishni boshlashdan oldin tarozilar shayton bo'yicha to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qilinishi kerak.

Fotometrik asboblari

Fotometriya (absorbtsiometriya) – sifatiy va miqdoriy tahlil metodi bo'lib, moddalarning yorug'lik nurini yutish yoki tarqatib yuborish tezligini o'lchashga asoslangan.

Nurning yutilishi yoki ekstinksiya, Lambert- Buger – Berlarning fotometriya qonuniga ko'ra nurni yutayotgan moddaning konsentratsiyasiga, eritma qavatining qalinligiga va ekstinksiyani molyar koeffitsientiga to'g'ri proporsionaldir. Biologik material tarkibidagi birorta komponentni aniqlash uchun kalibrlangan grafik tuziladi. Grafik eritmadagi moddaning konsentratsiyasi (C) bilan ekstinksiyasi (E) orasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

Fotometrik tahlillar uchun fotoelektrokolorimetrlar (4-rasm) va spektrofotometrlardan foydalaniladi.



4-rasm. Fotoelektrometr (a) va spektrofotometr (b) qurilmalari.

Rasmdagi: 1- galvanometr; 2-kyuveta bo'limining qopqog'i; 3-taxminiy o'rnatish muruvati; 4- aniq o'rnatish muruvati; 5-sezgirlik muruvati; 6- kyuveta ushlovchi muruvati; 7- yorug'lik filtrlarini almashtirish muruvati.

Fotoelektrokolorimetrlarning (FEK) turli xil modellari mavjud: KFK-2, KMFS-2, MKMF -1 va boshqalar. Yuqorida ko'rsatilgan FEKlar bo'yalgan eritmalaridagi moddalarning spektrlarni ko'rinadigan zonalarida nurni yutishini analiz qilish uchun qo'llaniladi. Uning ishlatish qoidalari asbobning instruksiyasida berilgan.

Fotokolorometrda ishlash tartibi (KFK -2) quyida berilgan.

Asbob, o'lchash ishlarini boshlashdan 15 min. oldin yoqiladi va kyuveta bo'limi qopqog'ini ochiq holda qizdiriladi. Kerakli

yorug'lik filtri o'rnatiladi. Sezgirlik muruvatini "1" holatiga qo'yiladi, "o'rnatish" tugmachasini chap tomonga oxirigacha burab qo'yiladi.


O'lchash uchun ikkita kyuvetadan foydalaniladi. Bular nazorat va tadqiqot eritmalaridan iborat. Avval yorug'lik oqimiga nazorat eritmasi quyiladi va kyuveta bo'limining qopqog'i yopiladi. "Sezgirlik" muruvati yordamida galvonometr raqamini 100 ga kiritiladi.

Yorug'lik oqimiga tadqiqot eritmani kyuveta qo'yiladi va galvonometrdagi raqamni yozib olinadi [25,28,29].

Laboratoriya jihozlari


Biologiya laboratoriyada turli vositalar o'lchov pipetkalar, menzurkalar, probirkalar, kolbalar va Petri chashkasi va boshqa jihozlar ishlatiladi (5,6,7,8,9-rasmlar).

Turli biologik obyektlar, jumladan mikroorganizmlar qattiq ozuqa muhitida o'stirilgan bo'lsa, ekish uchun olinadigan mikroorganizm hujayralari bakteriologik ilmoq yoki igna bilan olinadi (5-rasm), agar suyuq ozuqa muhitida o'stirilgan bo'lsa, uni ilmoq bilan emas balki sterillangan pipetka yordamida ekish qulay hisoblanadi. Bakteriologik ilmoq va ignani yupqa volfram yoki nikelxromdan yasaladi va metal yoki shisha dastakka mahkamlanadi. Bakteriologik ilmoq uchki ilmog'ining diametri 4-5 mm bo'ladi [25,28,29].



5-rasm. Laboratoriyada ishlatiladigan turli vositalar:


1-pinset, 2-skalpel, 3-bakteriologik ilmoq (1) va igna (2)




6-rasm. Shishadan tayyorlangan laboratoriya vositlari:
a- shkalali pipetka; b-shkalasiz pipetka; c-Paster pipetkasi;
d-termometr; f-shisha tayoqcha



7-rasm. Laboratoriya dozatorlari




8-rasm. Shisha va o'lchov idishlari



9-rasm. Shtativlar, tiqinlar (a), maydalash idishlari, qisqichlar va qizdirish qurilmalari (b)

Yorug'lik mikroskopi va uning tuzilishi

Biologik obyektlarning tuzilishini tekshirishda yorug'lik mikroskoplaridan foydalaniladi. Yorug'lik mikroskopi narsalarni 20-1500 marttagacha va yanada kattalashtirib ko'rsatadi. Mikroskopning eng muhim qismi bo'lgan optik qismi – ko'rish trubkasidan (tubus) iborat. Bu trubkaning yuqori qismida okulyar, quyi qismida obyektiv joylashgan bo'ladi (10-rasm).



10-rasm. Yorug'lik mikroskopi va uning tuzilishi

Shtativ. Mikroskopning shtativi to'g'ri yoki egri kolonkadan iborat bo'lib, uni orqa tomonga qaytarib qo'yish mumkin. Shtativda revolver, kremalera, mikrovint, makrovent, stolcha, diafragma, dasta, taglik va ko'zdan iborat qismlar bo'ladi.

Obyektiv. Mikroskopning narsalarni katta qilib ko'rsatadigan asosiy qismlaridan biri obyektivdir. Stolcha ustida joylashgan preparatni obyektivni bosib ezishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Obyektiv odatda 2-4 ta bo'ladi. Obyektiv narsalarni kattalashtirib teskari qilib okulyarga tushiradi. Obyektiv tushirgan narsalarning aksini okulyar yanada kattalashtiradi. Okulyar ikkita linzadan, yig'ish va ko'rish linzalaridan iborat. Okulyar odatda bir nechta bo'ladi. Ko'rish linzasi qancha kichik bo'lsa, okulyar shuncha kattalashtirib ko'rsatadi. Mikroskopdagi uchta obyektiv va uchta okulyarni o'zaro tegishli darajada to'g'rilash yo'li bilan narsalarni quyidagicha kattalashtirib ko'rish mumkin:

Obyektiv	Okulyar	Kattalashtirish
8	7	56
8	10	80
8	15	120 va h.o

Ko'rish trubkasi: Trubkaning quyi uchiga obyektiv joylashtirilgan uyachali revolver biriktirilgan. Revolver vositasi bilan obyektiv harakatga keltirib narsalarni kattalashtirib ko'rsatish darajasi o'zgartiriladi. Mikroskop kremalverasining burash yo'li bilan ko'rish trubkasi yuqoriga ko'tarish yoki pastga tushirish kerak. Obyektiv bilan ko'z o'rtasidagi fokus masofani to'g'rilab olish mumkin. Mikroskopning mikrometrik vinti yordamida ko'rish fokusi aniq qilib to'g'rilab olinadi. Bu vintni bir necha marta burab aylantirib yuborish yaramaydi, buni orqaga va oldinga sal burab ishlatish kerak, aks holda bu vint ishdan chiqadi.

Buyum stolchasi. Bunga tekshiradigan preparat joylanadi. Buyum stolchasi odatda to'rtburchak yoki kvadrat shaklida va o'rtasida teshik bo'ladi. Bu teshik orqali preparatga yorug'lik tushib turadi, stolchanning orqa sirtida teshikni katta-kichik qilib turadigan diafragma o'rnatilgan.

Ko'zgu. Buyum stolchasi ostiga joylashgan ko'zgu yorug'likni diafragma teshigiga to'g'irlyadi. Bu ko'zguning bir tomoni yassi, ikkinchi tomoni botiq bo'ladi. Preparatga kuchsiz yorug'lik tushishi kerak bo'lsa, ko'zguning yassi tomoni, yorug'lik kuchli tushishi zarur bo'lsa, botiq tomoni ishga solinadi. Bunda ravshan yorug'lik diafragma teshigiga ro'para kelguncha, ko'zgu har tomonga qiyshaytirib ko'rib to'g'rilanadi. Ko'zguning botiq tomoni orqali yorug'lik kuchli bo'ladi. Buyum oynasini siljitmay bir o'rinda saqlash maqsadida oynani mahkamlovchi qisqichlar ishlatiladi.

Mikroskop ishlatib bo'lgandan so'ng uni kichik ko'rsatadigan obyektivga to'g'rilab qo'yish zarur. Mikroskop doimo yaxshi ishlashi uchun uni changdan tozalab, okulyar va immersion obyektivlari immersion moydan toluol, yoki spirt bilan namlangan paxta bilan artib turilishi kerak.

Mikroskopdan foydalanish qoidalari

Mikroskop bilan ishlayotganlar, mikroskop bilan ishlash qoidalariga qat'iy rioya qilishlari shart. Mikroskop bilan ishlaganda ehtiyotkorlikka alohida e'tibor bermaslik vaqtni bekor o'tkazishga yoki mikroskopni optik qismlarini va mikrometrik buramalarini buzilib qolishiga sabab bo'ladi.

Mikroskop bilan ishlaganda quyidagi ketma-ket bajariladigan ishlarga rioya qilish kerak:

Okulyar, obyektiv va oyna tozalanadi. Linzalar quruq, yumshoq, yuvilgan latta bilan, agar yaxshi toza bo'lmasa, benzin yoki toluol bilan singdirilgan latta bilan artiladi. Bu suyuqliklar organik erituvchilar bo'lganligi uchun ularni juda ehtiyot qilib ishlatish zarur.

Mikroskopni ishchi holatga keltiriladi. Bunda ko'rish trubkasi ishlayotgan o'quvchiga, oynachasi esa yorug'lik manbaiga qaratilgan bo'lishi kerak.

Tubusga kichik kattalikka ega bo'lgan obyektiv qo'yiladi. Obyektivni tubusga aniq tushirish kerak. Buning uchun revolverni buragan vaqtda qo'l uni taqalgan holatini yengil turtki orqali sezishi kerak. Odatda kuzatilayotgan obyektни kichik kattalashtiruvchi obyektiv yordamida qaraladi.

Diafragma ochiqligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, okulyarga qarab oynani yaxshi yorug'lik berish holatiga to'g'rilanadi.

Tekshirilayotgan preparatni mikroskopning predmet stoliga qo'yiladi. Bunda ko'rilayotgan obyekt stol tirqishini ustida bo'lishi kerak. Preparatni qattiq plastinkalar yordamida qotirib qo'yiladi.

Makrometrik burama yordamida tubusni yuqoriga ko'tarib yoki pastga tushirib, fokus masofasi topiladi

Kichik obyektivni kattasiga almashtirish vaqtida quyidagilarga amal qilish zarur.

Obyektivni almashtirishdan oldin, ko'rilayotgan obyektivni mikroskopning ko'rish maydoni markaziga qo'yish kerak. Chunki kattalashtirish darajasi ortib borgan sari, linza diametri

kichiklashadi. Natijada obyektivni almashtirganda ko'rilayotgan obyekt ko'rish maydonidan tashqarida qolib ketishi mumkin.

Obyektivni almashtirish vaqtida oldin tubusni sal ko'tarib qo'yish kerak, chunki obyektivlar har xil uzunlikka ega.

Fokus masofasini qidirish vaqtida tekshirilayotgan preparatni ezib qo'ymaslik va obyektivning linzasiga zarar yetkazmaslik uchun (katta obyektiv qo'yilganda fokus masofasi kuchli qisqaradi) mikroskopni yon tomondan qarab turib, tubusni preparatga juda yaqin darajada tushiriladi, keyin okulyarga qarab turib sekinlik bilan ko'tariladi. (ko'rilayotgan obyektни qiyofasini yo'qotib qo'ymaslik uchun).

Mikroskopga chap ko'z bilan qarab preparatni kuzatiladi. Bunda o'ng ko'z ochiq bo'lishi kerak. Chap qo'l bilan mikroskop burchagini sekinlik bilan o'ngga yoki chapga burib preparatni to'g'rilandi. O'ng qo'l bilan esa ko'rayotgan obyektни rasmini chiziladi [25,29].

Mikroskop bilan ishlashda yo'l qo'yiladigan xatolar

1. Mikroskopning optik qismlarini ifloslanishi.

Kuzatuvchi mikroskopda har xil dog'larni ko'rishi mumkin yoki tekshirilayotgan obyektни aniqlay olmaydi.

2. Obyektiv tubus ostiga oxirigacha kelmagan.

Ko'rish maydoni qorong'u, oynani qanchalik to'g'rilamoqchi bo'lsa ham yorug'lik tushmaydi.

3. Tekshirilayotgan preparat yopqich oynani ostki tomonga teskari qilib qo'yilgan.

Kichik obyektiv yordamida obyekt ko'rinadi, katta obyektivda ko'rinmaydi. Predmet oynasi qolip bo'lganligi sababli tubusni zarur bo'lgan masofaga keltirib bo'lmaydi.

4. Tekshirilayotgan obyekt ko'rish maydonining markazida emas.

Kichik obyektiv qo'yilganda ko'ringan obyekt, kattalashtirilganda yo'qoladi. Bunga sabab ko'rish maydoni kichiklashgani uchun obyekt tashqarida qolib ketadi.

Mikropreparat tayyorlash usuli

Asbob va jihozlar: mikroskop, buyum oynasi, qoplagich oyna, infuzoriya kulturasi, piyoz po'sti, suv, stakan, glitserin, jelatin eritmasi, pipetka.

Mayda hayvonlarning yoki ular organlarining tashqi, ichki tuzilishi to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish uchun, bu obyektlarni mikroskopda ko'rish uchun mikropreparatlar tayyorlanadi. Mikropreparat tayyorlash usulidan biri glitserin - jelatindir. Ish uchun zarur moddalar, glitserin va jelatinni aptekadan, shuningdek, oziq-ovqat magazinidan sotib olish mumkin. Glitserin - jelatin aralashmasini tayyorlash uchun 10g jelatin 6-8 soat sovuq suvli stakanga solib qo'yiladi. So'ng suvi to'kib tashlanadi. Bo'kkan jelatinni suvi siqib tashlanib, uni kimyoviy stakan yoki kolbaga solinib eritiladi, buning uchun stakan issiq suvga botirib qo'yiladi, ichiga 15ml glitserin qo'shiladi. Aralashmada mog'or paydo bo'lmasligi uchun unga 2-3 tomchi formalin qo'shiladi. Tayyorlangan aralashmani yaxshilab aralashtirib probirkaga qo'yib, og'zi berkitib qo'yiladi. Ishlatishdan oldin issiq suvga solib eritiladi. Preparat tayyorlash uchun buyum (76x26 mm li) va qoplag'ich oyna, obyektни o'zi tayyorlanadi. Obyekt igna va pipetka yordamida glitserindan olinib buyum oynasiga qo'yiladi. Ortiqcha glitserin filtr qog'ozi yoki bosma qog'ozga shimdirib olinadi. Buyum oynasi ustidagi obyektga issiq suvda eritilgan glitserin-jelatin butunlay to'ldirilmasa, preparat biroz isitilib, qoplag'ich oyna chetiga aralashmadan yana 1-2 tomchi tekkizilganda oyna ichiga shimilib qotadi. Preparatni uzoq vaqt saqlash uchun 1-2 soatdan so'ng qoplagich oyna chetiga mo'yqalamda lak surtib qo'yiladi. Ana shu usulda zoologiya darslarida turli mayda hayvonlar, sodda hayvonlar, qisqichbaqasimonlar, suvo'tlar, o'simliklarning qismlaridan tayyorlash mumkin.

Sodda hayvonlar boqilayotgan suyuqlikdan pipetka yordamida olib buyum oynasiga tomizib, ustiga qoplagich oyna yoping. Preparatni qoplagich oyna bilan yopganda, havo kirib qolishga ehtiyot bo'ling, chunki kirib qolgan havo obyektни ko'rishga halaqit beradi. Mikroskopda avval kichik, so'ng katta obyektivda

kuzating. Vaqtinchalik mikropreparatlar piyoz po'stidan, elodeya, pomidor etidan yupqa qilib kesib, so'ng kesikni buyum oynasiga qo'yib, ustiga bir tomchi glitserin –jelatin tomizib, ustiga qoplagich oyna yopiladi. Mikroskopda avval kichik, so'ng katta obyektivda kuzating. Bunda mikropreparat buzulmasdan ancha vaqt saqlanadi [25].

Mikroskopda ishlashni o'rganish

Paxta tolasi va havo pufakchasini kuzatish.

Ishning maqsadi. Ko'pincha mikroskop uchun shoshilinch tayyorlangan preparatlarda paxta yoki sochiqdan chiqqan tolalar va havo pufakchasini uchratish mumkin. Mikroskop bilan ishlash tajribasiga ega bo'lmagan o'quvchilar, ko'ringan narsalarni tirik tabiatning vakili sifatida qabul qilishi mumkin. Bunday xatoliklarni oldini olish maqsadida optik asboblar bilan tanishishni "o'quvchilar dushmani" hisoblangan shunday obyektlardan o'rganishdan boshlash zarur.

Asbob va jihozlar: mikroskop, buyum oynasi, qoplag'ich oyna, paxta tolasi.

Ish tartibi:

Mikroskop uchun preparatlarni o'quvchilarning o'zlari tayyorlaydilar.

Predmet va yopqich oynalarni yaxshilab tozalash kerak. Yopqich oyna nozik va sinib ketishi mumkin. Shuning uchun ehtiyotkorlik bilan ishlash kerak.

Chap qo'lingizni bosh va ko'rsatgich barmoqlari bilan toza dokani olasiz.

O'ng qo'lingizga yopg'ich oynani oling, u bosh va ko'rsatgich barmoq o'rtasida bo'lib, ikki qirrasidan ushlanadi.

Shu holatda yopqich oynani yuzasi bo'sh bo'ladi va ehtiyotkorlik bilan chap qo'ldagi doka yordamida tozalanadi (oynani nafas bilan sal ho'llanadi).

Yopqich va predmet oynasini tozaligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, preparat tayyorlanadi.

Predmet oynaning o'rtasiga bir tomchi suv tomiziladi va pinset yordamida paxtaning 3-4 ta tolasini tomchi suvga botiriladi.


Suv tomchisini yopg'ich oyna bilan yopiladi. Buning uchun oynani yuzasidan emas, balki yuqorida aytilgandek qirralaridan ushlab, bir uchini predmet oynasiga yotqiziladi va asta-sekin suv tomchisini to'liq yopiladi (xuddi eshikni yopgandek).

Bu ishlarni dastlab amalga oshirayotgan o'quvchilarning preparatlarida albatta havo pufakchalari ham bo'ladi.

Birinchi paxta tolasi va 1-2 ta havo pufakchalarining rasmini chizing. Tola va havo pufakchalarini chegaralari haqqoniy ekanligiga ahamiyat bering. Bular, preparatning qayerda aniq ko'ringani va kengligini aniqlang.

Elektron mikroskop

Elektron mikroskop yorug'lik mikroskopiga qaraganda yuqori aniqlikka ega bo'lib, obyektning yoritish uchun elektron nur dastalaridan foydaniladi. Albatta, bunday mikroskopda ko'z bilan ko'rish mumkin emas, natijalarni aniqlash uchun elektron detektorlar qo'llaniladi. Elektron nurning tarqalishini oldini olish uchun mikroskop ichida vakuum hosil bo'ladi [47,52,28,29].




11-rasm. Elektron mikroskopning umumiy ko'rinishi

Bunday mikroskopiya uchun preparatlarni tayyorlash juda murakkab bo'lib- ular fiktsiya qilinadi, suvsizlanadi, zich muhitga quyiladi va eng nozik kesmalar - mikrotom asbobi

yordamida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, dog'yoki preparatlarni og'ir metallarning tuzlari bilan bo'yash kerak, chunki faqat ular elektronlar oqimini sezilarli darajada kechiktiradi. Olingan rasmlar rangli bo'lmaydi [14].

Elektron mikroskoplarning ikki turi mavjud - skanerlash va uzatish (11,12,13-rasm). Skanerli elektron mikroskop (SEM) o'bektning sirtini tasvirini beradi (obyekt uch o'lchamli ko'rinadi), transmissiya elektron mikroskopi (TEM) yoki transmissiya esa "yorug'lik orqali" kesmaning tekis tasvirini beradi [14].

Skanerli elektron mikroskop





12-rasm. Skanerli elektron mikroskop

Skanerli elektron mikroskopda (SEM) juda yupqa og'ir metal qatlami ta'sirida bo'lgan namuna elektron nur yordamida skanerdan o'tkazilib, uning yuzasida elektromagnit halqalarni o'rnatadi, ular elektron mikroskopdagi linzalar kabi ishlaydi (12-rasm). Namuna elektron nur bilan bombardimon qilinganda uning har bir nuqtasi tomonidan aks ettirilgan va sochilgan elektronlar soni detektor tomonidan o'lchanadi va video ekrandagi tegishli tasvir nuqtalarining yorqinligini nazorat qilish uchun ishlatiladi.

Mikroskop modeliga qarab kattaroq fokusli uch o'lchamli obyektlarning rasmlarini yaratadi, 3 mm dan 20 nm gacha bo'lgan o'lchamdagi biologik obyektlarni aniqlashga imkon beradi.


Transmissiya elektron mikroskopi



13-rasm. Transmissiya elektron mikroskopi


Transmissiya elektron mikroskopi (TEM) yorug'lik mikroskopiyasi bilan bir xil printsiplarga asoslanadi, lekin yorug'lik nuri o'rniga elektron nur ishlatiladi va shisha linzalar o'rniga magnit halqalar fokuslanadi. Vakuum ostida qo'yilgan

namuna juda nozik bo'lishi kerak. Kontrast odatda namunani elektron zich og'ir metallar tuzlari bilan bo'yash orqali erishiladi. Kesmaning ma'lum qismlarida to'planib, ular nurlari preparatdan o'tganda elektronlarni yutadi yoki tarqatadi. TEM o'zbekni million martagacha kattalashtirishni ta'minlaydi va biologik namunalarda 0,2 nm gacha bo'lgan kichik detallarni ko'rish imkonini beradi. 14,15,16,17,18-rasmlarda hujayra va yadroning electron mikrofotografiyasi keltirilgan.




14- rasm Hujayraning nozik tuzilishini elektron mikroskop yordamida ko'rish mumkin. Jigar hujayrasining ko'plab strukturaviy tafsilotlarni ko'rsatadigan o'ta yupqa kesmasi. [21]


Gepatektomiyadan 18-20 soatdan keyin 1,5 Gr dozada in vivo nurlantirilgan 60 minutdan so'ng kalamush jigarining elektron mikrofotografiyasi. HM-tashqi membrana, BM-ichki membrana, PK-teshiklar kompleksi, HMM- tashqi mitoxondriya membranasi, BMM- ichki mitoxondriya membranasi, K -krista




15-rasm. 18-20 soat gepatektomiyadan keyin, in vivo 1,5 Gr dozada nurlantirilgan kalamush (60- minutdan so'ng) jigaridan ajratib olingan yadroning elektron mikrofotografiyasi[21]
HM-tashqi membrana, BM-ichki membrana, ЯШ-yaдроcha



16-rasm. Gepatektomiyadan 18-20 soatdan keyin 4 Gr dozada in vivo nurlantirilgandan 60 minutdan so'ng kalamush jigaridan ajratib olingan yadroning elektron mikrofotografiyasi[21].
HM-tashqi membrana, BM-ichki membrana, ЯШ-yaдроcha



17-rasm. Gepatektomiyadan 18-20 soatdan keyin 4 Gr dozada in vivo nurlantirilgan kalamush jigaridan ajratib olingan yadro fragmentining elektron mikrofotografiyasi [21]
HM- tashqi membranasi, BM- ichki membranasi, PK-teshiklar kompleksi



18-rasm. Homiladorlikning 3-kunida 2Gr dozada $\dot{\gamma}$ -nuri bilan in vivo nurlantirilgan kalamushning homiladorlik 21-kuidagi jigaridan ajratilgan ydroning elektron mikrofotografiya[21].
NIII-yadrocha

Sentrifuga metodi

Ultrasentrifugani birinchi bo'lib 1925 yilda Shved olimi Svedberg kashf etgan. Hozirgi zamon ultrasentrifugalari yuksak vakuum sistemasida ishlaydi. Uning rotori 80000 ayl/min tezlikda aylanadi va markazdan qochish kuchi Yerni tortish kuchi (q) ni 500000 gacha yetkazish mumkin. Zarrachalarning ana shunday kuch ta'sirida cho'kishi sedimentatsiya deyiladi.

Ultrasentrifugalashda komponentlarning cho'kish tezligi sedimentatsiya koeffitsenti deb ataladi, u biologik makromolekulalarning muhim xarakteristikasini ifodalaydi va bu birlik Svedberg nomi bilan atalib, S harfi bilan ifodalanadi. Biologik makromolekulalarning sedimentatsiya koeffitsenti 1-200 S orasida.

O'tgan asrning 40-50-yillarida A. Klod va J. Brachet hujayra struktura komponentlarini ajratish uchun differensial sentrifugalash usulini ishlab chiqdilar, uning yordamida 1953 yilda de Dyuv birinchi bo'lib lizosomalarni, keyin esa peroksisomalarni ajratib oldi. 1957 yilda M. Meselson, V. Stahl va J. Winograd nuklein kislotalarni ajratish uchun seziiy xlorid zichligi gradienti sentrifugalash usulini ishlab chiqdilar, bu esa yarim konservativ usulda DNK replikatsiyasini o'rgandi [14,15].


Sentrifuga rotori juda tez aylanadi (daqiqada o'nlab yoki hatto yuz mingta aylanadi). Markazdan qochma kuch ta'sirida probirkadagi barcha zarrachalar cho'kadi. Ultrasentrifuga yordamida makromolekulalar va hujayra struktura komponentlari ajratilib o'rganiladi.

Metodning mohiyati shundan iboratki, turli molekular massaga ega bo'lgan biologik makromolekulalar ma'lum tezlikda cho'kaga tushadi. Sentrifuga asbobi yordamida turli xil tizimlarni rotorlarda markazdan qochish kuchi ta'sirida bir-biridan ajratiladi

Sentrifugalarda qattiq zarrachalarni cho'ktirish, emulsiyalarni ajratish, filtrlash, yuqori molekulari birikmalarni zichligiga qarab bir-biridan ajratilishi kabilar amalga oshiriladi. Bajarilayotgan ishning turiga qarab maxsus konstruksiya qilingan sentrifugalardan foydalaniladi [35,36,47].

Biologik tadqiqotlarda sentrifugalardan keng foydalaniladi. Hujayra komponentlarini og'irligiga qarab ajratish, eritmadagi oqsillarni cho'kmaga tushirib olish shular jumlasidandir.

Sentrifuga rotori tez aylangan vaqtda yerni tortish kuchiga nisbatan bir necha marta yuqori bo'lgan markazdan qochish kuchi paydo bo'ladi (19-rasm). Suyuqlikning zichligiga nisbatan suyuqlikdagi zarrachalarning zichligi ancha yuqori bo'lganligi uchun markazdan ajraladi va cho'kmaga tushadi



19-rasm. Sentrifuga rotorlari

Ultrasentrifuga yordamida makromolekulalar va hujayra struktura komponentlarni ajratish

Ultrasentrifuga yordamida makromolekulalar va hujayra struktura komponentlari ajratilib o'rganiladi. (20-rasm).

Metodning mohiyati shundan iboratki, turli molekulyar massaga ega bo'lgan biologik makromolekulalar ma'lum tezlikda cho'kmaga tushadi.

Uning rotori 80000 ayl/min tezlikda aylanadi va markazdan qochish kuchi erini tortish kuchi (q) ni 500000 gacha yetkazish mumkin. Zarrachalarning ana shunday kuch ta'sirida cho'kishi sedimentatsiya deyiladi.

Ultrasentrifugalashda komponentlarning cho'kish tezligi sedimentatsiya koeffitsenti deb ataladi, u biologik makromolekulalarning muhim xarakteristikasini ifodalaydi va bu birlik Svedberg nomi bilan atalib, S harfi bilan ifodalanadi. Biologik makromolekulalarning sedimentatsiya koeffitsenti 1-200 S orasida.

Stol ustiga qo'yiladigan sentrifugalarda 10 ml shisha sentrifuga probirkalari ishlatiladi. Ular butsimon probirka ushlovchi rotoriga o'rnatiladi. Probirkalarni eng ustki qismigacha to'ldirish tavsiya etilmaydi. Chunki sentrifuga to'xtaganda, suyuqlikning bir qismi to'kilib ketadi (21-rasm).

Sentrifugada ishlash vaqtida quyidagilarga e'tibor bering.


Sentrifugani tekis yerga o'rnatish lozim;

Sentrifugani ishlatishda birdaniga yuqori tezlikga ko'tarish man etiladi. Tezligi sekin- asta oshiriladi;


Sentrifugani ishlatish va to'xtash vaqtida uning qopqog'i yopiq bo'lishi kerak;

Sentrifuga probirkalari juft-juft qilib muvozanat holatiga keltiriladi. Muvozanat holatiga keltirilgan probirkalar bir-biriga qarama-qarshi joylashtiriladi;

Agar sentrifugada vibratsiya (qaltirash) vujudga kelsa, zudlik bilan to'xtatib uni sabablarini aniqlab, bartaraf etish zarur. Ko'pincha qaltirashning sababi juft probirkalar og'irligi teng emasligidan yoki ulardan birini siljishi tufayli bo'ladi.



20-rasm. Sentrifuga



21-rasm. Stol ustiga qo'yiladigan laboratoriya sentrifugalari

Xromatografiya

Xromatografiya – birinchi marta rus olimi M.S.Tsvet tomonidan ixtiro qilingan bo'lib, u 1906-yilda o'simlik barglarining rangli ekstraktlarini bo'r kukuni bilan kolonkalarda ajratgan.

Hozirgi vaqtda ion almashinish xromatografiyasi, molekulyar kattaligi aniqlash uchun gel xromatografiyasi va boshqa ko'plab xromatografiya metodlari mavjud [4,47].

Xromatografiya (xromo... va ...grafiya) — gaz, suyuqlik yoki erigan moddalar aralashmasini adsorbsion usulda ajratish va analiz qilishi M.S.Svet tomonidan 1903-yilda kashf etilgan. 1931-yilda Kun va uning shogirdlari xromatografiya usuli yordamida tuxum sarig'idagi ksantofil, lutein va zeaksantin moddalari hamda va karotinlarni ajratishdi. 1941-yilda A.Martin va R.Sing taqsimlash xromatografiyasiga asos soldi va oqsil, uglerod birikmalarini o'rganishda uning keng imkoniyatlarini ko'rsatib berdi. 1940–1945-yillarda S.Mur va U.Staynlar aminokislotalarni xromatografiya usulida ajratish va miqdoriy analiz qilishga katta xissa qo'shdi. 1950-yilda Martin va Jeys gazsuyuklik xromatografiya usulini ishlab chiqdi.

Hozirgi vaqtda ion almashinish xromatografiyasi, molekulyar kattaligini aniqlash uchun gel xromatografiyasi va boshqa ko'plab xromatografiya metodlari mavjud [47].

Xromatografiya olib borilayotgan muhitga qarab gaz, gazsuyuklik va suyuqlik xromatografiyalariga, moddalarni ajratish mexanizmiga qarab molekulyar (adsorbsion), ion almashtirgich, cho'ktirish va taqsimlash xromatografiyalariga, olib borilayotgan jarayon shakliga qarab kolonkali, naychali (kapillyar), qog'ozli va yupqa qatlamli xromatografiyalarga bo'linadi. Adsorbsion xromatografiya. – moddalarning adsorbentda turlicha sorbsiyalanishi (yutilishi)ga asoslangan; taqsimlash xromatografiyasi – aralashma tarkibiy qismi (komponentlari)ning qo'zg'almas faza (g'ovak sathli qattiq modda yuzasiga o'rnatilgan yuqori temperaturada qaynaydigan suyuq modda) va elyuyentlarda turlicha erishiga; ion almashtirgich xromatografiya – harakatsiz faza (ionit) va ajraluvchi aralashma komponentlari orasidagi ion almashtirish muvozanati konstantalar farqiga; cho'ktirish xromatografiyasi esa ajratiluvchi komponentlarning qattiq qo'zg'almas faza ustida turlicha cho'kmaga cho'kishiga asoslangan.

Xromatografiya xromatograf deb ataladigan asbob yordamida amalga oshiriladi. Analiz vaqtida xromatograf kolonkasiga yuborilgan tekshiriluvchi moddalar elyuyent bilan birga turli vaqt oralig'ida alohida alohida bo'lib kolonkaning chiqish tomoniga keladi va maxsus sezgir asbob – detektor yordamida uning vaqt birligidagi miqdori qayd etiladi, ya'ni egri chiziq holida yozib olinadi. Bu xromatogramma deb ataladi. Sifat analizi vaqtida moddaning kolonkaga yuborilgandan to chiqqungacha bo'lgan vaqti har bir komponent uchun doimiy temperaturada bir xil elyuyentda belgilab olinadi. Miqdoriy analiz uchun esa xromatografiyadagi piklar (har bir modda uchun tegishli egri chiziq shakli) balandligi yoki yuzasi, detektorning moddaga nisbatan sezgirligini nazarga olgan holda o'lchanadi va maxsus usulda hisoblanadi.


Parchalanmay bug' holatiga o'tadigan moddalarning analizi va ajratilishi uchun ko'pincha gaz xromatografiyasi ishlatiladi. Bunda elyuyent (gaz tashuvchi) sifatida azot, argon kabi gazlardan foydalaniladi. Sorbent sifatida esa (zarralar diametri

0,1-0,5 mm bo'lgan) silikagellar, alyumogellar, g'ovakli polimerlar va boshqa ishlatiladi.

Gazsuyuqlik xromatografiyasi uchun sorbent tayyorlashda solishtirma sathi 0,5-5 m²/g li qattiq modda yuzasiga qaynash temperaturasi yuqori bo'lgan suyuqliklar (uglevodorodlar, murakkab efirlar, siloksanlar va boshqalar) qalinligi bir necha mkm parda holida qoplanadi.

Kolonkali xromatografiyaning prinsiplari

Kolonkali suyuqlik xromatografiyasida eiyuyent sifatida oson uchuvchi erituvchilar (uglevodorodlar, efirlar, spirtlar), qo'zg'almas faza sifatida esa silikagellar, alyumogellar, g'ovakli shisha va boshqa qo'llanadi.



22-rasm. Ustunlarda xromatografik ajratish tamoyinlari

Kolonkali xromatografiyaning qattiq granulali statsionar fazasining balandligi 5sm bo'lib, harakatlanuvchi suyuq fazasi klonka balandligini 1sm ni tashkil etadi. Kolonkaga analiz qiluvchi moddani 32 mkl quysak 1sm³ harakatlanuvchi fazani tashkil etadi, bu hajm kolonkadagi harakatlanuvchi fazani A-joylanishidagi o'rinini egarlaydi (1- bosqichda).II- bosqichda 16 mkl, III-bosqichda 8mkl ,16,8 mkl; 4-bosqichda 4,12,12,4; 5 bosqichda 2,8,12,8,2 mkl dan analiz qilinaytgan moddalar harakatlanuvchi fazada tarqaladi. Natijada har bir modda kolonkadan pik holatda ajralib chqadi.

Xromatografiya usulining kashf etilishi tufayli organik kimyo, ayniqsa, tabiiy birikmalar kimyosi jadal rivojlandi. Xromatografiya ko'p komponentli sistemalarni sifat va miqdoriy analiz qilish, sof holda ajratib olishda (jumladan, sanoat miqyosida) katta ahamiyat kasb etadi. Xromatografiya yordamida nodir metallar analiz qilinadi. Sun'iy tayyorlangan transuran elementlarining ochilishida ham xromatografiya muhim rol o'ynadi. Xromatografiya yordamida 99 element – eynshteyniy (Es), 100 element – fermiy (Fm) va 101element – mendeleyeviy (Md) ajratildi.

Xromatografiya usuli bilan havo, suv, tuproq, monomerlar tarkibidagi aralashmalarni aniqlashda, organik va neft kimyosi sintezi mahsulotlari analizida, dori-darmonlar tozaligini aniqlashda, kriminalistikada katta ahamiyatga ega. Kosmik kemalar gazi, Mars atmosferasi gazi, oy tuprog'idagi moddalarni analiz qilishda ham xromatografiya usullari joriy etilgan.

Xromatografiya yuqori molekularli birikmalar, ayniqsa, inson, hayvon, o'simlik, mikroorganizmlar dunyosiga tegishli biologik obyektlarning analizi uchun nihoyatda zarur.

Xromatografiya usullari o'simlik tarkibidagi birikmalarni aniqlash, ajratib olish, neft, gaz tarkibini o'rganishda keng qo'llanadi [47].

Xromatografiya maxsus eritmada erigan moddalarning adsorbent orqali harakatlanishining turli tezligiga asoslangan. Bunday eritma adsorbent orqali o'tkazilganda aralashmadagi har bir modda o'zining molekulyar og'irligiga qarab ma'lum masofaga siljiydi.

Adsorbentlar filtr qog'oz tolalari, selluloza kukunlari va boshqa g'ovakli moddalar bo'lishi mumkin.

Elektroforez


Elektroforez – kattaligi (yoki molekulyar og'irligi), fazoviy konfiguratsiyasi, ikkilamchi tuzilishi va elektr zaryadi kabi parametrlarda farq qiluvchi makromolekulalarni ajratish usulidir.

Usulning fizikaviy printsipi quyidagicha. Bufer eritmasidagi makromolekulalar ma'lum bir umumiy elektr zaryadiga ega bo'lib, uning qiymati va belgisi muhitning pH ga bog'liq. Agar bu eritma orqali elektr toki o'tkazilsa, ajratilaytgan materialning kanaliga o'ralgan bo'lsa, u holda kanal bo'ylab ma'lum bir kuchlanish gradienti o'rnatiladi, ya'ni elektr maydoni hosil bo'ladi. Uning intensivligi kanalning uchlaridagi potentsial farq bilan o'lchanadi, uning uzunligi (V/s). Maydon ta'sirida makromolekulalar umumiy zaryadiga mos ravishda katod yoki anod tomon ko'chib o'tadi va ularning atrof-muhitga ishqalanishi migratsiya tezligini cheklaydi. Zaryadning kattaligiga va molekularning o'lchamiga qarab, ular turli tezlikka ega bo'ladi [51,40,36,18,12].

Elektroforez – bu usul ma'lum umumiy musbat va manfiy zaryadlarga ega bo'lgan oqsillarning zaryadning kattaligi, molekula hajmi va shakliga muvofiq elektr maydonida harakat qilish qobiliyatiga asoslangan. Elektroforez bufer eritmada yoki g'ovak muhitda: agaroz, kraxmal va poliakrilamid jellarida, tsellyuloza va nitroseluloza plastinkalarida amalga oshirilishi mumkin.

Sellyuloza plastinkalaridagi elektroforezning eng oddiy usulini V. Ingren tomonidan 1956 yilda inson gemoglobining proteolitik parchalanishining bo'laklarini fraksiyalashda ishlatilgan. Ushbu usul yordamida peptid haritalari olindi.


Poliakrilamid gel elektroforezining (PAAG) tez-tez qo'llaniladigan usuli 1959-yilda S. Raymond tomonidan ishlab chiqilgan va keyin B. Devis va L. Ornshteyn tomonidan takomillashtirilgan. 1966-yilda J. Meisel ushbu usulning modifikatsiyasini, natriy dodesil sulfat bilan PAAGda elektroforezni taklif qildi (15,16-rasm) Xromatografiyaga yaqin gel elektroforez usuli bo'lib, eritmada moddalar aralashmasining ajralishi elektr toki bilan osonlashadi.




23-rasm -Elektroforez: oqsillarni gel elektroforez yordamida fraksiyalarga ajralishi

Xromatografiya va elektroforez usullari hujayradan ajratilgan moddalar aralashmalarini ajratish, ularning sifat va miqdoriy tarkibini aniqlash imkonini beradi.

Oqsillar aralashmasini tarkibiy qismlarga ajratish uchun elektroforez usuli qo'llaniladi: elektr maydonida alohida oqsil molekulasini ulalari ma'lum tezlikda elektrodlardan biriga o'tadi. Bunday holda, ba'zi oqsillar katodga, boshqalari anodga qarab harakat qiladi (24-rasm).



24-rasm Vertikal (a), gorizonta (b), elektroforez




25-rasm. Elektroforez asbobining tuzilishi

Eukariot hayvon hujayralarining ekmalari (kulturas)

Eukariot hayvon hujayralarning ekmasi gen inženenerligi paydo bo'lishi bilan bog'liq masala bo'lib, ko'pgina tadqiqotlarga sabab bo'lgan.

Eukariotlar genlari ekzon va enteronlarga bo'linganligi sababli, splayning jarayonni to'g'ri borishi ko'pchilik olimlarda qiziqish uyg'otdi. Bundan tashqari sutemizuvchilar va ularning viruslarida boshlang'ich vaqtida yuqori molekulyar hosilalar sintezlanadi, so'ngra murakkab o'ziga hos proteolizdan so'ng aniq(to'liq) shakliga o'tadi [54,55].

Bunday jarayon hayvon to'qima ekmasini(kultura) ma'lum sistemalarida amalga oshadi. Hozirgi vaqtda juda faollik bilan klonlashning vektorlarini sutemizuvchilar viruslarining vektorlarini klonlash orqali tibbiyot va vetenariyada zarur bo'lgan vaksinalar olinmoqda.



26-rasm. Sutemizuvchilar hujayrasiga DNK molekulasini kiritish; Virus DNK sini kiritish;

Bugungi kunda hayvon hujayralarining ekmalarida nuklein kislotalarning turli viruslarida transfeksiyaning turli metodlari ishlab chiqilgan. Juda ko'p eksperimental tadqiqot shuni ko'rsatadiki sut emizuvchilarning hujayra ekmagalariga viruslar nuklein kislotalarini tozalangan suvli eritmaları qo'shilganda, nuklein kislotalarining infeksiyalanishi aniqlanmagan. Bu shuni ko'rsatadiki, viruslarning nuklein kislotalari hujayralarga effekt bilan kira olmagan, shuningdek ekma muhitidagi nukleazalar ta'siridan degradsiyaga uchragan. Transfeksiyani effektini oshirish uchun maxsus metodlar ishlab chiqilgan bo'lib, bunga nuklein kislotalarni hujayraga kirishini oshiradi va nukleaza ta'siridan himoya qilingan.

Gipertonik tuzlash metodi

Tozalangan virus DNK sini hujayra ekmalarida infeksiyalashni birinchi bo'lib 1959-yili Mayork va boshqalar tomonidan aniqlangan. Hayvon hujayralari monosavet kul'turasiga virus DNK si qo'shilganda gipertonik tuzli eritmasida (0,5-1,0 M NaCl) hujayraning erigan quyiqalari hosil bo'ladi. Bu shuni ko'rsatadiki muhitning osmatik bosimining o'zgarishi hujayrasi virus DNK ni yutilishini aktivlashtiradi.

1980-yillardan boshlab liposomalarni sut emizuvchi hayvonlar hujayralarning ekmalariga viruslarning nuklein kislotalarini kiritishga qo'llanila boshladi. Liposomalar o'ralgan viruslarning nuklein kislotalari ta'sirga uchramaydi. Liposomalar hujayra membranasi yoki fagotsitoz yo'li bilan hujayraga osonlik bilan kiradi. Liposoma qo'llanilgan qator holatlarda viruslar DNK ning transfeksiyasi yuqori darajada borgan. Bu metodni qo'llash ancha murakkab bo'lib, transfeksiya uchun hujayra ekmalari uchun ma'lum bir sharoitni tanlash kerak.


DNK transfeksiyasini natijaviyligini oshirish uchun liposomaning morfologiyasi, turli lipidlarning miqdoriga, hujayrani liposoma bilan inkubatsiya qilish sharoitlariga bog'liq. Virus DNK ni liposomaga o'rash uning molekulyar massasiga bog'liq. DNK molekulyar massasi qancha katta bo'lsa, fosfolipidlar kapsulasiga o'rash qiyin bo'ladi.

- DNK eritmasini kationli lipid reagentlari bilan aralastirib, hujayraning monoklon kulturasiga yuboriladi. Bunda eukariotik hujayralarga virus DNKsi kirish effekti kalsiy-fosfat va DEAE dekstrin metodlariga qaraganda yuqoriroq.

- DNK fragmenti va plazmidlarni kiritish

Sut emizuvchilarning ko'paytirilgan (o'stirilgan) hujayralaridagi DNK molekulalarining barqarorligi.

Hayvonlar hujayralarga plazmidlarni kiritishga, ularning begona genetik muhitdagi barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalalarga bag'ishlangan B.Gobel va V.Shneb (1975-y)larning ilk tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kalamush hujayrasiga kiritilgan plazmid (Plazmid) Cole1, sekin asta gidrolizatsiyaga uchrab, 2 kundan so'ng hujayralarda bor yo'g'i DNK plazmidining past molekulari mahsulotlari joylashganligi ma'lum bo'ldi.




28-rasm. Plazmidlarni kiritish.

D. Spendidas o'z hamkorlari bilan birgalikda (1982) hayvonlar hujayralardagi ko'chirib o'tkazishni to'xtatuvchi ketma-ketlik olib tashlangan pBR322 ning delesiya varianti bo'lgan pAT153 plazmidani topishdi.

- Shunday qilib bakterial plazmidalar ba'zan initsiatsiya replikatsiyaning eukariotik sohalari bilan o'xshash tuzilishga ega bo'lishi mumkin.

- Biroq odatda, mazkur o'xshash ketma-ketliklar hayvonlar hujayralarida nisbatan kuchsiz ishlaydi

- Bir qator laboratoriyalarda DNK plazmidalarining nisbatan samarali replikatsiyasi o'rganilayotgan hujayra liniyalarida yaxshi rivojlanib ketishga qodir viruslar replikatorlari yoki xo'jayin-hujayra DNK xromosomalari replikatsiyasining boshlanish sohasiga ega bo'lgan qismlar ularda mavjud bo'lgandagina samarali bo'lishi isbotlandi.



29-rasm. Rekombinant DNK olish texnologiyasi sxemasi

Rekombinant DNK olish texnologiyasi

DNK rekombinatsiyasi - bu xromosoma yoki bir xil xromosomaning turli mintaqalari o'rtasida irsiy materiallar almashinuvini tavsiflovchi hodisa. Natijada ota-ona genlarining kombinatsiyalaridan farq qiladigan yangi gen birikmasi paydo bo'ladi. DNK rekombinatsiyasi juda muhimdir, chunki u organizmning irsiy xilma-xilligiga, shuningdek evolyutsiya, kasalliklar, DNKni tiklash uchun va hokazolarga ta'sir qiladi.

Hujayralar meiozida DNK rekombinatsiyasi tabiiy ravishda gomologik xromosomalar orasidagi o'tish orqali sodir bo'lishi mumkin.

O'tish - bu gomologik xromosomalar o'rtasida genetik material almashinuvi.

Translatatsiya - bu genetik rekombinatsiyaga olib keladigan yana bir jarayon.

Translokatsiya - xromosomalarning bo'laklarini (genetik materiallar) gomolog bo'lmagan xromosomalar o'rtasida almashish. Bu turli xil kasalliklarga olib keladigan genetik anomallikdir. Translyatsiya va kesishish o'rtasidagi asosiy farq shundaki, translyatsiya gomolog bo'lmagan xromosomalar o'rtasida, xromosomalar bir-biriga mos keladigan gomologik mintaqalar o'rtasida sodir bo'ladi [50,48,50].


Rekombinant DNK texnologiyasi

Sun'iy sharoitda rekombinant DNK olish va genlarni klonlash ilk bor 1972-yilda AQSH olimlari Boyer va Koen tomonidan amalga oshirilgan. Bu olimlar E.coli bakteriyasining xromosoma DNK sig'a va shu bakteriya plazmidasiga alohida idishlarda EcoRI restriktaza fermenti bilan ishlov berganlar. Plazmida tarkibida faqat 1 dona EcoRI restriktaza fermenti tanib kesadigan maxsus nukleotidlar ketma-ketligi bo'lganligi sababli ferment plazmidaning xalqasimon DNK qo'sh zanjirini faqat bir joydan kesib, plazmidani "yopishqoq" uchli ochiq holatga o'tkazadi. Xromosoma DNK molekulasida EcoRI restriktaza fermenti taniiy oladigan maxsus nukleotidlar ketma-ketligi qancha bo'lsa, bu molekula shuncha bo'lakka bo'linadi.

Turli xil o'lchamga ega bo'lgan DNK molekulasi elektroforez uslubi yordamida ajratib olinadi. Ajratib olingan "yopishqoq" uchli xromosoma DNK si bo'lagi ochiq holatdagi "yopishqoq" uchli plazmida DNK si bilan aralashtirilib ligaza fermenti yordamida tikiladi (ulanadi). Natijada plazmida tarkibiga xromosoma DNK bo'lagi kiritiladi. (29-rasm)

Shu boisdan rekombinant DNK ga quyidagicha tarif berish mumkin: har qanday tirik organizm irsiy molekulasining

istalgan bo'lagini vektor molekulariga birikishdan hosil bo'lgan sun'iy DNK - rekombinant DNK deyiladi [57,75,13].



30-rasm.

Geterologik (yot) DNK bo'lagini plazmid tarkibida klonlash


1-xromosomadan ajratilgan DNK bo'lagi; 2-plazmid; 3-antibiotikka chidamlilik geni; 4-rekombinant DNK molekulasi; 5-bakteriya hujayrasiga kiritilgan gen; 6-rekombinant plazmidli hujayra antibiotikka chidamliligi bo'yicha ajratib olinadi.

Rekombinant DNK olishning uchta usuli mavjud:


- konnektor usuli;
- restriktaza-ligaza;
- linker molekularidan foydalanish usuli.

Konnektor usulida - rekombinatsiyada ishtirok etuvchi DNK bo'lagining 3' uchiga dezoksinukleotidil-transferaza fermenti yordamida ma'lum uzunlikdagi oligo (dA) - segmenti ulanadi. Ikkinchi uchiga esa oligo (dT) - segmenti ulanadi. Bu DNK bo'laklari aralashtirilganda dA va dT segmentlarning vodород bog'lari asosida komplementar birikishi tufayli xalqasimon DNK strukturasi hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan DNK dagi bir zanjirli bo'sh joylar DNK-polimeraza I fermenti yordamida to'ldiriladi.


Konnektor usulida rekombinat DNK olish



Restriktaza-ligaza usuli - rekombinant DNK olishning eng sodda va oson usuli hisoblanadi. Bu usulda DNK molekulasiga va vektor plazmidga «yopishqoq» uchlar hosil qiluvchi restriktaza bilan qirg'iladi va aralashtirilgan holda ma'lum sharoitda reassotsiatsiya qilinadi. Komplementarlik xususiyatiga ko'ra DNK molekulari o'zaro vodorod bog'lari yordamida birikib xalqasimon struktura hosil qiladi va DNK zanjirining birikmagan joylari DNK-ligaza fermenti yordamida ulanadi (32,33-rasm).



32-rasm.



33-rasm.

Linker molekularidan foydalanish usulida - DNK molekulasiga va vektor plazmidga T₄ fag DNK-ligaza fermenti yordamida maxsus nukleotid ketma-ketligiga ega bo'lgan linker molekula ulanadi. Olingan ikki turdagi DNK molekulasiga restriktaza fermenti yordamida qirg'ilib, aralashtirilgan holda qaytadan assotsiatsiya qilinadi. DNK va vektor plazmidga

molekularining birikmagan joylari DNK-ligaza fermenti yordamida ulanadi. Shu yo'sinda rekombinant DNK molekulasini hosil bo'ladi.


VEKTOR MOLEKULALAR, GENLAR BANKINI YARATISH VA ALOHIDA GENLARNI AJRATISH TEXNOLOGIYASI

Rekombinant DNKni avtonom replikasiya bo'lishi uchun javob beradigan DNK bo'lagi - vektor molekulari deyiladi (34-rasm).

Vektor molekular o'z vazifasiga ko'ra ikki tipga bo'linadi:

Birinchisi -avtonom replikasiya bo'luvchi vektorlar.

Ikkinchisi - xromosomaga integratsiya bo'luvchi vektorlar.



34-rasm.

Vektor molekular gen muhandisligi biotexnologiyasida genlarni klonlashda va transformatsiya qilishda asosiy ish quroli bo'lib xizmat qiladi. Vektor molekulari vazifasini fag DNK lari, plazmidalar va o'simliklarni xloroplast hamda mitoxondrial DNK lari o'tashi mumkin.

Xo'jalik ahamiyati - qimmatli bo'lgan genlarni ajratish uchun gen banki tuziladi. Xromosomal DNK asosida gen bibliotekasini tuzish quyidagicha amalga oshiriladi:

DNK va vektor molekular restriktaza fermenti yordamida qirg'iladi va ma'lum sharoitda qaytadan assotsiatsiya qilinadi;

Nukleotidlar orasida ulanmay qolgan bo'shliq DNK-ligaza fermenti yordamida o'zaro birlashtiriladi;

Olingan rekombinant DNK bakteriya hujayrasiga transformatsiya qilinadi.

Xromosomal DNK da mavjud genlarni to'la klonlash uchun DNK o'lchamiga va olingan klonlarni soniga e'tibor berish kerak.

Genlarni klonlashda ko'pincha kDNK bibliotekasini tuzish maqsadga muvofiqdir. Bu holda maxsus poli (Y) va oligo (dT) kolonkallari yordamida uchlarida poli (A) nukleotidlar ketma-ketligini saqlovchi iRNK, tRNK va pRNK dan ajratib olinadi. Olingan iRNK molekulasini oligo (dT) nukleotidlari bilan aralashtirilib reasotsiatsiya qilinadi. Bunda iRNK molekulasining poli (A) uchida dA-dT qo'sh zanjirli segment hosil bo'ladi. Ushbu ikki zanjirli segmentning oligo (dT) uchi kDNK sintezini amalga oshiruvchi revertaza fermenti uchun praymer (kDNK sintezining boshlanish nuqtasi) vazifasini o'taydi. Sintez qilingan kDNK molekulasini qisqa uchli ikki zanjirli struktura bilan tugallanadi. kDNK sintezida matritsa vazifasini o'tagan iRNK molekulasini NaOH bilan parchalanadi, natijada qisqa ikki zanjirli va to'liq iRNK molekulasiga komplementar bo'lgan bir zanjirli kDNK molekulasini hosil bo'ladi.

Hosil bo'lgan qisqa ikki zanjirli struktura kDNK ning ikkinchi zanjirini sintez qilishda praymer vazifasini o'taydi. DNK-polimeraza I fermenti yordamida kDNK ning ikkinchi zanjiri sintez qilinadi. Hosil bo'lgan kDNK ning bir zanjirli qismi S1-nukleaza fermenti yordamida parchalanadi va ikki zanjirli kDNK molekulasini hosil bo'ladi. Shu yo'sinda hosil bo'lgan kDNK molekulasini vektor molekulariga ulangan holda klonlanadi. Har ikki usul bilan yaratilgan genom bibliotekasidan individual genlarni ajratib olish quyidagicha amalga oshiriladi - rekombinant plazmidada denaturatsiya qilinadi (1000°C haroratda 5 min., 0,2 N NaOH eritmasida 15 min.), bir zanjirli DNK molekulasini stabil qo'zg'almaydigan holatda turishi uchun nitrotsellyuloza filtriga birlashtiriladi. Olingan filtr [g-32P] ATF nukleotidi bilan nishonlangan iRNK molekulasini bilan gibridizatsiya qilinadi.

Molekulyar gibrizatsiya jarayonida filtrga birikkan rekombinant DNK molekulasi komplementarlik qonuniyati asosida nishonlangan iRNK molekulalari birikadi.

Hosil bo'lgan gibriz DNK molekulasi denaturatsiya qilinib, nishonlangan iRNK molekulasi ajratib olinadi (elyusiy yordamida). Olingan iRNK molekulasi hujayrasiz oqsil sintez qilish tizimida tekshirib ko'riladi. Hosil bo'lgan oqsil molekulasini identifikatsiya qilish yo'li bilan individual genlarni ajratib olish amalga oshiriladi [4,18,7,8,9].

III BOB. BIOLOGIK OBYEKTlardan Hujayra Struktura Komponentlarini Ajratish

GOMOGENIZATSIYA

To'qimalarni gomogenizatsiyalash – bu ma'lum turdagi tadqiqot uchun to'qima namunalarini tayyorlash bosqichidir. Bu hujayra tarkibidagi moddalarni ajratib olish uchun ularni lizis holatiga o'tkazish yoki parchalanish jarayoni hisoblanadi. To'qimalarni gomogenizatsiyalash uchun mo'ljallangan qurilmalar ko'plab laboratoriyalarda qo'llaniladi va hujayralarning ayrim turlari uchun, masalan, hujayraning mustahkam strukturasi tufayli ularni bir xil massa holatiga o'tkazish qiyin bo'lganda, maxsus texnikalar qo'llanilishi mumkin [39,40,21,19].

Hujayraning izolyatsiya qilib (alohida ajratib olingan) qismlarini tadqiq qilish uchun bir qator usullar ishlab chiqilgan. Hujayra struktura komponentlarini ajratib olish uchun namunalar dastlab maydalanadi so'ngra, Potter-Elwedge gomogenizatori (shisha tsilindrda aylanadigan teflon pestik) yordamida bufer eritma bilan birgalikda gomogen (bir xil massa) holatiga keltiriladi. Bu nisbatan oddiy usul bo'lib, u labil molekulalar va ultrastrukturalarni izolyatsiya qilish uchun ayniqsa qulay hisoblanadi. Hujayra devorlarini buzish uchun qo'llaniladigan yana bir boshqa metodlar qatoriga fermentativ lizis yoki muzlatilgan to'qimalarni mexanik ravishda buzish (yuqori bosim; osmotik zarba ostida yoki o'tkir tig'li pichoqlar yordamida silliq, bir xil massa holatiga kelguncha aylantiradigan qurilmalar) kiradi.

Intakt organellalarni ajratib olishda gomogenizatsiyalash uchun qo'llaniladigan muhit izotonik bo'lishi muhim, ya'ni buferning osmotik bosimi hujayra ichidagi bosimga mos kelishi lozim. Agar eritma gipotonik bo'lsa, organellalar qo'shimcha suvni "so'rib oladi" va yorilib ketadi, gipertonik eritmalarda esa, aksincha, ular burishib qoladi.

Hayvon to'qimasidan gomogenat tayyorlash

To'qima gomogenatlarining tadqiqoti eksperimental ishlarda ilmiy maqsadlarda keng qo'llaniladi, shuningdek, jarrohlik vaqtida olingan to'qima bo'laklari va biopsiya materialini o'rganish uchun ishlatilishi mumkin. Gomogenizatsiyaning maqsadi to'qimalardagi hujayra devorlari yoki membranalarini buzishdan iborat. To'qimalarning gomogenati fermentlarning faolligini hamda turli metabolitlarning tarkibini o'rganish, shuningdek, hujayra tarkibiy qismlarini keyingi fraksiyalash uchun material sifatida ishlatilishi mumkin.

Hujayra strukturasi va suspenziya muhitini buzish usulini tanlash to'qimalarga, shuningdek, tadqiqot maqsadlariga bog'liq. Qondan yuvilgan to'qima namunasi qaychi bilan maydalanadi yoki metall pressdan o'tkaziladi, ba'zida havoncha yordamida kvarts qumda (mushak va biriktiruvchi to'qima) maydalanadi. Barcha jarayonlar imkon qadar tez va sovuqda muhitda amalga oshiriladi. Jigar, taloq, timus kabi organ to'qimalaridan gomogenat tayyorlashda hujayra tuzilmalarini maksimal darajada saqlash uchun asosan qo'l yordamida mexanik maydalovchi Potter va Downes tipidagi teflon pestleli shisha gomogenizatorlari ishlatiladi.

Gomogenlashning samaradorligi pestikning aylanish tezligi (800-1000-2000 g), pestik va shisha orasidagi bo'shliq (odatda 0,14-0,16 mm), pestikning yuqoriga va pastga harakatlanish soni (8-10 harakat) va gomogenlash vaqti (0,5-1,5 min) kabi omillarga bog'liq. Gomogenizatsiya vaqtida stakan albatta muzli hammomga qo'yilishi kerak, hosil bo'lgan gomogenat tarkibidagi buzilmagan to'qimala qismlarini ajratish uchun 3-4 qatlamli doka orqali filtrlanadi.

Gomogenizatsiyalash samaradorligi akridin kabi "tabiiy" bo'yoqlardan foydalanib, buzilmagan hujayralar foizini morfologik kuzatish yoki biokimyoviy ravishda sitozol fermentlari faolligi aniqlash orqali kuzatish mumkin.

To'qimalar va hujayra strukturalarini parchalashning boshqa usullariga osmotik zarba ta'siri, takroriy muzlash-eritish, fermentlar (tripsin, lizozim, β -gialuronidaza, lipaza) bilan

davolash, organik erituvchilar (toluol, etil asetat), ultratovush hamda yuqori bosimlar kiradi.

Gomogenizatsiya. Individual subhujayra fraktsiyalarni ajratib olish uchun biologik material strukturasi parchalashning umumiy sxemasi 35-rasmda keltirilgan. To'qimalarni gomogenlash uchun ishlatiladigan suspenziya muhiti odatda hujayralarning shishishi va yorilishining oldini olish uchun zarur neytral pH qiymati va osmotik bosimga ega bo'lishi muhim. Buning uchun asosan 0,001M Tris-HCl, pH = 7,4 eritmasiga 0,25 M saxaroza, 0,025 M KCl, 0,005M MgCl₂ qo'shilishi orqali bufer eritma tayyorlanadi.

Ba'zida fermentlarning inaktivatsiyasiga to'sqinlik qiluvchi moddalar qo'shiladi (masalan, etilendiamintetraatsetat - ikki valentli metall ionlarini bog'laydigan EDTA yoki lipid komponentlarining haddan tashqari oksidlanishiga to'sqinlik qiluvchi glutation).

To'qima muhitining o'rta nisbati (massa / hajm) farq qilishi mumkin. Odatda 10%li gomogenat (9 ml muhit uchun 1 g to'qima) asosida tayyorlanadi.

O'simlik to'qimasidan gomogenat tayyorlash

Fiziologik va biokimyoviy tadqiqotlar uchun o'simliklarning urug'lari, ildizlari, ildizpoyalari, tugunaklari, piyozboshlari, poyalari, barglari hamda gullari ishlatiladi.

Tadqiqotni boshlashdan avval namunalar analitik tarozida o'lchanadi, so'ngra to'qima maydalanadi. Tadqiqot jaraynida qo'llaniladigan asboblar va barcha jarayonlar past haroratda amalga oshiriladi, reagentlar esa muzli hammomga joylashtirilishi kerak. Agar o'simlik to'qimalarini buzish bosqichi mexanik maydalagichda amalga oshirilgan bo'lsa, u holda ekstraksiyadan avval ularning massasi tarozida o'lchanishi zarur, chunki to'qimani maydalash jarayonida uning bir qismi yo'qotilishi mumkin.

Namligi past bo'lgan (5-15%) o'simlik to'qimalarini maydalash uchun mexanik maydalagichlar qo'llaniladi. Namligi yuqori (65-90%) bo'lgan to'qima devorini buzish gomogenizatorlarda

amalga oshiriladi. O'rtacha namlikdagi (15-65%) to'qimalar esa odatda, ular tarkibidagi moddalarning funktsional faolligini maksimal holda saqlanishini ta'minlash uchun vakuumli pechlarda past haroratda (60-70°C) oldindan quritiladi. Maydalangan o'simlik to'qimalaridan biogen birikmalarni ajratib olishni boshlashdan avval, erituvchini to'g'ri tanlash muhim. Qutbli, zaryadlangan birikmalarni ajratib olish qutbli erituvchilar (suv, 50% etanol eritmasi, aseton) yordamida amalga oshiriladi. To'qima gomogenatining gidrofob komponentlarini ajratib olish qutbsiz erituvchilar (geksan, xloroform, dietil efir va boshqalar) yoki maxsus detergentlarning suvli eritmalari (tritonlar: X-45, X-100, X-114, X-102, X-165, X-305; bridj: 35, 56, 58; lubrol PX va WX; tvin: 20, 40, 60, 80) va boshqalar yordamida amalga oshiriladi.

O'simlik va hayvon to'qimalarini butunlay parchalash uchun ultratovushdan foydalaniladi. Buzilmagan hujayralar va yadroni ajratish sentrifugalash orqali amalga oshiriladi. Buning uchun sentrifugalash rejimi alohida tanlanadi. Enzimologik tadqiqotlar uchun esa to'qima gomogenati 0°C da sovutilgan sentrifugalarda (7000-12 000 g) tezlikda amalga oshiriladi. Sentrifugalangandan keyin olingan supernatant muzlatgichda +4°C da saqlanadi. Supernatant hajmini hisoblash o'rganilayotgan o'simlik to'qimalarida oldindan belgilangan gidronamlik hajmlarining qiymatlarini va biogen birikmalarni olish uchun olingan eritmani qo'shish orqali amalga oshiriladi. Supernatant tarkibidagi moddalarning sifat va miqdoriy tarkibi standart usullar yordamida aniqlanadi. Usulni tanlashda quyidagi qoidaga amal qilish kerak. Amaldagi usul maxsus, ya'ni natijalarni sharhlashni qiyinlashtiradigan nojo'ya reaksiyalardan holi va osongina takrorlanishi imkoni mavjud bo'lishi kerak. Yaxlit o'simlik yoki uning qismi massasi o'lchangandan so'ng mexanik tarzda doimiy sovutish bilan gomogenizatsiya qilinadi. Olingan bir hil massa sentrifugalanadi. Cho'kma ustidagi suyuqlikda (supernatant) tadqiqot o'tkaziladi [6,37,46].

Namligi 8-10% bo'lgan donlar va o'simliklarning boshqa quruq qismlari 2 g don 1 min mobaynida mexanik maydalagichda

kukun holatga keltiriladi. Olingan quruq kukun analitik tarozida massasi o'lchanadi va bidistillangan suvda yoki 0°C ga qadar sovutilgan boshqa eritma muhitida 1:3 nisbatda eritiladi (1 g donga 3 ml sovutilgan erituvchi qo'shiladi). Aralastirgandan so'ng, fermentativ tadqiqotlar uchun gomogenantni 7000 - 12000 g da sentrifuga qilinadi.

Cho'kma ustidagi suyuqlik (supernatant) biokimyoviy tadqiqotlar uchun ishlatiladi.

Sentrifuga metodi yordamida hujayra struktura komponentlarini ajratish

Ultrasentrifuga yordamida makromolekulalar va hujayra struktura komponentlari ajratilib o'rganiladi.


Metodning mohiyati shundan iboratki, turli molekular massaga ega bo'lgan biologik makromolekulalar ma'lum tezlikda cho'kmaga tushadi.

Hozirgi zamon ultrasentrifugalari yuksak vakuum sistemasida ishlaydi. Uning rotori 80000 ayl/min tezlikda aylanadi va markazdan qochish kuchi erni tortish kuchi (q) ni 500000 g yetkazish mumkin. Zarrachalarning ana shunday kuch ta'sirida cho'kishi sedimentatsiya deyiladi [47,42].

Kerakli asboblari: qaychi; pensent; skalpel; gomogenizator; shisha tayoqchalar; pepetkalar-2 ml, 5 ml, 10ml, sentrifuga; sentrifuga probirkalari; probirkalar; stakanlar; voronka; bint; filtr qogoz; 0,25 M saxarozaning TKM buferi — pH-7,4; 0,001 M tris-Hcl, 0,0025 M kaliy xlor, 0,0025 M magniy xlor; kalamush jigari.

Ishning borishi. Barcha jarayonlar sovuq xonada (0-4°C) olib boriladi. Kalamushni so'yib, jigarini ajratib olinadi. To'qimani avval sovuq bufer bilan yuviladi, so'ngra yaxshilab qaychi bilan maydalanadi. Hosil bo'lgan massani gomogenizatorga (mahsus shisha idishga) solinib, elektr motoriga ulangan teflonli sop yordamida ishqalanadi. Bu jarayon gomogenizatsiya deb ataladi. Gomogenazatsiya uchun bir qism maydalangan to'qima va 10 qism bufer olinadi, bu jarayon to bir xil massa- gomogenat hosil bo'lguncha davom ettiriladi. Gomogenat sentrifuga probirkalariga

solinadi va sentrifugada aylantiriladi. Gomogenat differensial sentrifugalash metodi bilan alohida fraksiyalarga ajratiladi. Hujayra komponentlari turli xil zichlik va kattalika ega bo'lganligi uchun har xil tezliklarda aylantirilib cho'kmaga tushiriladi, uning fraksiyalarga ajratish sxemasi quyida ko'rsatilgan (35-rasm).




35-rasm. Ultratsentrifugalash metodi bilan jigar to'qimasidan hujayra komponentlarini ajratib olish sxemasi

Jigar to'qimasidan hujayra yadrosini ajratish metodi

Jigar to'qimasidan hujayra yadrosini Kuzmina va boshqa ham mualliflar tomonidan modifikatsiya qilingan metod yordamida ajratildi (21). Kalamushlarni dekopitstsiya metodi bilan jonsizlantiriladi va jigari ajratib olinib, muhiti pH 7.4 bo'lgan (TKM - buferi tarkibiga 0.005M MgCl₂, 0.025M KCl, 0.001M tris- HCl, 0.25 M saxarozani saqlagan) bufer eritmaga solinadi. Jigarning massasi tortib olinib, teshiklari kattaligi 1 mm bo'lgan mikropressdan o'tkaziladi. Maydalangan jigar to'qimasiga 1:10 nisbatda sovutilgan TKM bufer eritmasidan qo'shiladi. Maxsus teflonli pestik yordamida gomogenizatsiya qilinadi va 4-8 qavat doka yordamida filtrlanadi. Gomogenat C⁰ ga 1500 ayl/ min 10 minut sentrifuga qilinadi. Natijada hujayra qoldiqlari va yadro fraksiyalari cho'kmaga tushadi.

Yadro cho'kmasining TKM buferida tayyorlangan 2,2 M saxarozada 1:10 nisbat hajmida suspenziya qilinadi va teflonli pestik yordamida gomogenizatsiya qilinadi. 2,2 M saxarozada gradyentida 40 minut 105000 g sentrifuga qilinadi. Sentrifuga qilingandan keyin probirkani sitoplazmatik qoldiqlardan tozalash uchun yaxshilab yuviladi. So'ngra yadroni cho'kmasini saxarozani 0,25 M TKM buferi bilan suspenziya qilinadi va 5-7 minut 300-400 g sentrifuga qilinadi va bu jarayon takrorlanadi.

Izolyatsiya qilib olingan yadroni tozaligini electron mikroskop orqali nazorat qilindi (rasm-III.36)




III. 36-rasm. Kalamush jigaridan ajratilgan yadroning elektron mikrofotografiyasi.

BM-yadro qobog'ining ichki memranasi, HM- yadro qobog'ining tashqi memranasi [21]

Elektronmikroskopik tadqiqotlar natijasida shuni ko'rsatdiki, izolyatsiya qilib olingan sitoplazmatik qoldiqlarni saqlamaydi.

Yadro asosan yumaloq shaklda, yadro qobig'ining tashqi va ichki membranalarning konturlari, perenuklear bo'shliq kabi yaxshi ko'rinib turadi. Yadroning morfologik strukturasi yaxshi saqlangan. Yadroning periferiyasida juda ko'p teshiklar kompleksining ultrastrukturasi yaxshi saqlangan, buni yadro qobig'ining tangensial kesmasida ko'rish mumkin(rasm-III.37)[21].




III.37-rasm. Yadro qobig'ining tangensial kesmasi
50.000 x marta kattalashtirilgan, ПК-teshiklar kompleksi, BM - yadro qobig'ining ichki membranasi, HM- yadro qobig'ining tashqi membranasi

Yadro qobig'ini ajratish metodi

Kalamush jigari yadrosidan yadro qobig'ini ajratish kaltsiy ioni saqlagan saxarozada olib boriladi. Kalamush jigaridan yadroni ajratib olish uchun 0.25 M saxarozani 0.0033M CaCl₂ saqlagan eritmada gomogenizatsiya qilinadi va 10 min 300-400 g sentrifuga qilinadi va yuqorida yozilgan bo'yicha yadroni ajratib olinadi. Izolyatsiya qilingan hujayra yadrosini sovutilgan

pH = 7.2 bo'lgan 0.02 M fosfat buferida 1:4 nisbatda suspenziya qilinadi.

Yadroning suspenziyasini +4 gradusda 30 minut davomida ostomatik chaqirilib qoldiriladi. Shundan keyin suspenziyani 7 minut 300 - 400 g sentrifuga qilinib strukturasi buzilmagan cho'ktirib yadrolarni ajratib olinadi. Membranali suspenziyani 60% li saxaroza bilan 1:1 aralashtiriladi, saxarozaning zichligi kamayuvchi gradientga solinadi. 105000g tezlikda 60 minut sentrifuga qilinadi. Sentrifuga qilib bo'lgandan keyin saxarozaning 1,19 va 1,18 qavatlari oq qavat hosil bo'lganligini ko'riladi. Bu qavatni dozator yordamida yig'ib olinadi. 1:10 hajmda distillangan suv yordamida suspenziya qilinadi va 30 minut 50000g sentrifuga qilinadi. Fraksiya tozaligini elektronmikroskopda ko'riladi. Izolyatsiya qilib olingan yadro qobig'ini 38-rasmda ko'rsatilgan, qalinligi 8nm bo'lgan bir xil membranada iborat bo'lib, endoplazmatik to'r membranalari saqlamaydi (III.38-rasm).




III.38-rasm. Kalamush jigaridan ajratib olingan yadro qobig'ining elektron mikrografiyasi[21]

Yadro matriksini ajratish

Yadro membranasini ajratish uchun yadroni 0.25 M ni A buferida (2 mM MgCl₂, 3 mM CaCl₂, 20 mM trisxlorid, pH - 7.4) triton X - 100 ni oxirgi konsentratsiyasi 0.5% bo'lguncha qo'shib, suspenziya qilinadi, so'ngra 20 minut C⁰ gradusda inkubatsiya qilinadi, inkubatsiyadan keyin 10 minut 1000g sentrafuga qilinadi. Cho'kmani A bufer bilan yuviladi va 5 ml shu buferda tarkibida 50 mM NaCl, 650 mkg DNKaza va RNKaza.

A saqlovchi bir soat xona haroratida inkubatsiya qilinadi. So'ngra 45 ml 2.2 M NaCl sovutilgan A buferidan qo'shib, C⁰ gradusda 10 minut ekstratsiya qilinadi, keyin 1000g da 25 minut sentrifuga qilinadi cho'kmani 5 ml A buferda suspenziya qilinib 10 mkg DNKaza va RNKaza A qo'shib, 30 minut xona haroratida inkubatsiya qilinadi, so'ngra A bufer bilan yuviladi. Kalamush jigaridan izolyatsiya qilingan yadro matriksini III.39-rasmda keltirilgan. Yadro matriksini morfologiyasi laminadan tashkil topgan bo'lib, shuningdek yadro qobig'iga birikkan fibroz qavati, teshiklar kompleksi, yadrocha va ichki yadroning fibrilyar - granulyar to'ridan iborat (III.39-rasm).



III 39-rasm. Kalamush jigaridan ajratib olingan yadro matriksining elektron mikrofotografiyasi [21].

YIII-yadrocha, ФГ-Fibrilyar granula, ФС-Fibrioz qavat

Hayvon to'qimalaridan mitoxondriyalarni ajratib olish (Differensial sentrifugalash)

Mitoxondriyalar o'zining DNKlariga ega bo'lgan eukaryot hujayralarning organellalaridir. Mitoxondriyalar hujayralarning energiya manbai hisoblanadi.

Mitoxondriyalarni o'rganish uchun mo'ljallangan differensial sentrifugalash usuli 1974-yilda fiziologiya yoki tibbiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori doktor Albert Klod tomonidan ishlab chiqilgan.

Mitoxondriyalarni ajratib olish jarayonida 115000 g da yuqori tezlikda sovutilgichli sentrifugalarda R8S baketli rotor va 50 ml konusli probirkalar ishlatiladi.

Uskunalar: sentrifuga: yuqori tezlikda ishlaydigan sovutgichli sentrifuga, rotor, baketli rotor, 50 ml li konussimon probirkalar

Ishning borishi

10% kalamush jigar gomogenatini tayyorlang (to'qimalarning miqdori: 10 dan 20 g gacha); 1800 ayl\min tezlikda sentrifuga qilinadi, tezligi 600 x g, 10 daqiqa davomida, +4°C.

Supernatantni 50 ml konussimon probirkaga solinadi; 1500 x g tezlikda 5600 ayl\minda 20 daqiqa davomida sentrifuga qilinadi, harorat +4°C. Supernatantni to'kib tashlang. Dekapetatsiya paytida, cho'kmaning yuqori qismidagi qizil-jigarrang liposomal fraktsiyadan holi bo'lish uchun probirkalarni bir necha marta ehtiyotkorlik bilan silkiting. Sariq-jigarrang mitoxondriyal cho'kmaga kerakli miqdorda 0,25 M saxaroza eritmasi qo'shiladi va yana 5800 ayl\min, 6000 x g, 15 daqiqa davomida +4°C da, sentrifuga qilinadi.

Yuqoridagi jarayon qanchalik ko'p takrorlansa, ajratilgan mitoxondriyalarning tozalik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi, ammo har takrorlanganda ularning faolligi pasayadi, shuning uchun yuqoridagi jarayonlarni ikki martadan ko'p bo'lmagan sonda takrorlash tavsiya etiladi. Cho'kmada mitoxondriya fraksiyasi qoladi.


Mitoxondriyalarni gradientsiz sentrifuga bilan ajratish

1-Usul. To'qimalar ekstraksiya muhitida yuviladi va + 4°C da 15 ml ekstraksiya uchun mo'ljallangan muhitida Dounce gomogenizatorida bir xil massa holatiga kelguncha gomogenatsiya qilinadi. Olingan gomogenat sovutilgan sentrifuga probirkalariga solinadi va ekstraksiya uchun mo'ljallangan bufer bilan kerakli hajmga keltirildi. Gomogenat 600 g da 5 daqiqa davomida sentrifuga qilinadi. Supernatant toza probirkaga o'tkazildi, yuvish uchun mo'ljallangan bufer bilan kerakli hajmga keltiriladi. So'ngra 10000 g da 10 daqiqa davomida yana sentrifugalanadi. Olingan cho'kma ehtiyotkorlik bilan +4°C ga qadar yuvish uchun mo'ljallangan sovuq holdagi 1 ml eritmasida qayta suspenziya qilindi va yana 10 daqiqa davomida 10000 g da sentrifugalanadi. Tarkibida mitoxondriya bo'lgan cho'kma 50 mkl yuvish uchun mo'ljallangan buferda suspenziya qilinadi

Gradient sentrifugalash orqali mitoxondriyalarni ajratish

2-Usul. To'qimalar ekstraksiya buferida yuviladi va Dounce gomogenizatorida +4°C da 6 ml ekstraksiya uchun mo'ljallangan buferda bir xil massa hosil bo'lguncha gomogenizatsiyalanadi. Gomogenat 600 g da 5 daqiqa davomida sentrifuga qilinadi. Olingan supernatant toza probirkalarga o'tkazildi va yuvish buferi bilan kerakli hajmga keltiriladi. Erkin mitoxondriyal fraktsiyalar 14000 g da 10 daqiqa davomida sentrifugalash orqali cho'ktirildi. Supernatant to'kib tashlanadi va cho'kma 200 µl yuvish buferida qayta suspenziya qilinadi. Shundan so'ng, cho'kma bitta toza probirkaga qayta quyilib ehtiyotkorlik bilan 200 µl 23% Percoll eritmasi ehtiyotkorlik bilan solinadi. Percoll gradientida sentrifujlash 15 minut davomida 23000 g sentrifuga tezligida amalga oshiriladi. Sentrifugadan so'ng fraksiyaning 3 fazaga bo'linishi kuzatiladi. Yuqori va o'rta zich qatlamlar ehtiyotkorlik bilan olib tashlanadi. Pastki qatlam qayta suspenziya holatiga keltiriladi va 1,7 ml hajmgacha yuvish buferi qo'shiladi. Cho'kmani qayta yuvish 18000 g da 10 daqiqa davomida sentrifugalash orqali amalga oshiriladi. Supernatant olib tashlandi, cho'kma qayta suspenziyalanadi va bitta

probirkaga solib birlashtiriladi va 14000 g da 5 daqiqa davomida sentrifuga qilinadi. Supernatant olib tashlandi va cho'kma 20 µl yuvish buferida qayta suspenziya qilindi. Mitoxondriya fraksiyasi cho'kmaga tushadi (III.40-rasm).



III.40-rasm. Kalamush jigaridan ajratib olingan mitoxondriyaning elektron mikrofotografiyasi [21].

BMM - mitoxondriyaning ichki membranasi,
HMM- mitoxondriyaning tashqi membranasi, K-kristallar

O'simlik hujayrasi struktura komponentlarini sentrifuga yordamida ajratib olish

Hujayra va uning struktura komponentlarining tarkibi va funksiyasini o'rganish uchun differentsial sentrifugalash usuli qo'llaniladi. Hujayra struktura komponentlarining differentsial sentrifugalanish ularning hajmidagi va zichligidagi farqlarga asoslanadi. Differentsial sentrifugalash gomogenatning tarkibiy qismlarini bir qancha fraksiyalarga (odatda beshta) ajratish uchun ishlatiladi: yadrolar, xloroplastlar, mitoxondriyal, ribosomalar va supernatant fraksiya (sitoplazmaning eruvchan

fazasining va vakuolaning eruvchan tarkibi) va boshqa organellalarga ajratadi. Fraksiyalarning har biri sentrifuganing ma'lum bir tezligi va vaqtida cho'ktiriladi.

Yuqori tezlikda sentrifugalashda yirik hujayra komponentlari sedimintatsiya bo'ladi (masalan, yadrolar) va nisbatan past tezlikda probirka tubida granula hosil qiladi. Yuqori tezlikda xloroplastlar va mitoxondriyalar kabi kichikroq komponentlar cho'kadi. Hujayra strukturalarini parchalash gomogenizatorlarda izotonik muhitda amalga oshiriladi.[6,39,40]

So'ngra hosil bo'lgan bir hil massa (gomogenat) sentrifuga orqali fraksiyalarga bo'linadi.

O'simlik to'qimalaridan hujayra yadrolarini ajratish

Eukariot hujayralardagi katta yadrolarni boshqa organellalardan ajratib olish differentsial sentrifuga orqali amalga oshiriladi. O'simlik to'qimalaridan yadrolarni ajratib olishda o'simlik hujayralarining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq sezilarli qiyinchiliklar mavjud. Ajratuvchi buferga 2-metil-2,4-pentandiol va va uning tuzini qo'shish yadrolarni parchalanishdan himoya qiladi, ion bo'lmagan detergent (Triton X-100)ning qo'shilishi esa ularning agregatsiyasini oldini olib hujayralardan yadrolarning ajralib chiqishini osonlashtiradi.

Interfaza davridagi hujayralardan yadrolarni ajratib olish texnikasi subhujayrali tuzilmalarini sentrifugalash orqali tarkibiy qismlarga bo'lib ajratishga asoslangan.

Sentrifugalash jarayonida yirik yadrolar nisbatan past tezlikda cho'kadi (cho'kma) va sentrifuga probirkalari tubida cho'kma hosil qiladi.

Kerakli materiallar va jihozlar:

1) boshqoqli o'simlik urug'lari (Secale cereale L.) 2) geksilenglikol (2-Metil-2,4pentandiol), 3) PIPES-KOH, 4) magniy xlorid ($MgCl_2$), 5) Triton X -100, 6) merkaptotanol (2-merkaptotanol), 7) proteaza ingibitori (PMSF), 8) farforli havoncha va pestik, 9) marli (doka), 10) elektron tarozi, 11) pH o'lchagich, 12) magnit aralashtirgich, 13) avtomatik variopipetlar, 14) sentrifuga probirkalari (2 dona), 15)

sovutgichli sentrifuga, 16) voronka, 17) maydalangan muz, 18) glitserin, 19) yuvish vositasi (sovun eritmasi), 20) filtr qog'oz, 21) patnis, 22) termostat, 23) qo'lqop, 24) shpatel, 25) qaychi

Ishning borishi:

O'simlik to'qimasini tayyorlash

Urug'larni ekish: Donli urug'larni yuvish vositasi bilan yuving (sovunli suv bilan yuving) va namlangan filtr qog'oz bilan qoplangan patnisga qo'ying. Urug'lar solingan patnisni 22°C haroratda termostatga joylashtiring va qorong'i joyda 2 kun davomida undiring.

Urug'lardan namuna olish: nihollarni qaychi bilan kesib, analitik tarozida 10 g o'simlik to'qimasini o'lchab oling.

Interfaza davridagi hujayra yadrolarini ajratib olish uchun buferlarni tayyorlash

1M 2-Metil-2,4-pentandiol (geksilenglikol);

10 mM PIPES-KOH (pH 7,0);

10 mM $MgCl_2$;

0,2% Triton X-100;

5 mM 2-merkaptotanol;

0,8 mM PMSF

Hujayra yadrolarini yuvish uchun bufer tayyorlash

Yuvish buferining tarkibi (YB):

0,5M 2-metil-2,4-pentandiol (geksilenglikol);

10 mM PIPES-KOH (pH 7,0);

10 mM $MgCl_2$;

0,2% Triton X-100;

5 mM 2-merkaptotanol;

0,8 mM PMSF

Interfaza davridagi hujayralardan yadroni ajratish

O'simlik to'qimasini maydalash: O'simlik to'qimalarining bir qismi (10 g), 1-2 sm uzunlikdagi bo'laklarni qaychi yordamida kesib olinadi va sovuqda oldindan sovutilgan havonchaga kesib olinadi va 40 ml ishchi buferi qo'shib, pestik bilan bir hil massa hosil bolguncha eziladi, so'ngra gomogenizatsiya qilinadi.

Filtrlash: Gomogenatni havonchadan shpatel yordamida 4 qavat doka (yoki 6 qavat doka) solingan voronkaga o'tkazing va sentrifuga probirkalariga filtrlang. Hosil bo'lgan filtrat-organoidlarni o'z ichiga olgan va bir oz kraxmal aralashgan hujayra sharbati hisoblanadi.

Yadroni cho'ktirish: Cho'kmani ekstraktdan 20 minut davomida 25 g va 4°C haroratda sentrifugalash orqali ajratib oling. Sentrifugalash jarayonida hujayra

bo'laklari va kraxmal cho'kadi. Ehtiyotkorlik bilan cho'kmadan supernatantni ajratib oling. So'ngra yadrolari va boshqa organellalarini o'z ichiga olgan supernatantni 350 g, 4°C da 20 daqiqa davomida sentrifuga qiling. Bunday holatda yadrolar cho'kmaga tushadi. Supernatantni ehtiyotkorlik bilan quyib tashlang. Keyingi bosqichlar uchun cho'kma ishlatiladi.

Yadrolarni yuvish: cho'kma muz ustida 8 ml YB (yuvish buferi) bilan ehtiyotkorlik bilan qayta suspenziya holatiga keltiriladi va 800 g va 4°C da 10 daqiqa davomida sentrifuga qilinadi. Ushbu jarayonni yana 2 marta takrorlang.

Hujayra yadrolari preparatini tayyorlash: Cho'kmaning 2 hajmi barobarida yadroning yuvish buferi (YB) qo'shing (cho'kma hajmiga nisbatan) va yadrolarni ehtiyotkorlik bilan qayta suspenziya qiling.

Preparatni saqlash: Olingan cho'kmaga YB bilan teng hajmda steril glitserin qo'shiladi, teng bo'laklarga bo'linadi va muzlatgichda (-20°C) saqlanadi.

O'simlik to'qimalaridan mitoxondriyalarni ajratish

Mitoxondriyalar deyarli barcha eukariot hujayralarda sitoplazmaning muhim qismini egallaydi. Mitoxondriyalar shunchalik kattaki, ularni oddiy yorug'lik mikroskopi bilan ko'rish mumkin va ular birinchi marta o'tgan asrda kashf etilgan bo'lsada, mitoxondriyalarning funksiyasini tushunish uchun haqiqiy imkoniyat 1948-yildan keyin, ya'ni buzilmagan yaxlit mitoxondriyalarni ajratib olish usullari ishlab chiqilgandan keyin paydo bo'ldi.

O'simliklardan funksional faol holdagi mitoxondriyalarni ajratib olishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Avvalo, bu hujayralarni maydalashda mexanik shikastlanishga olib keladigan zich va qattiq hujayra membranalarining mavjudligi bilan bog'liq. Jarayondagi noqulayliklardan yana biri bu to'qimalarning gomogenizatsiyasi vaqtida ajralib chiqadigan hujayra shirasining kislotali muhiti, shuningdek, o'simlik hujayralarida ko'plab miqdorda ajratuvchi va ingibitor xususiyatiga ega bo'lgan fenol birikmalar muhim rol o'ynaydi.

O'simlik to'qimalarining boshqa moddalari (masalan, kraxmal, xlorofill, moylar va boshqalarning yuqori miqdorda bo'lishi) ham ajratib olingan mitoxondriyal fraktsiyaning sifati va tozaligiga ta'sir qiladi. Shuning uchun ma'lum bir holatda buzilmagan mitoxondriyalarni ajratib olish uchun obyektga va uning fiziologik holatiga qarab, optimal sharoitlarni tanlash kerak.

Kerakli materiallar va jihozlar:

1) kuzgi javdar bug'doy o'simliklari yoki boshqa boshqali o'simliklar urug'lari, detergent, kaliy permanganat ($KMnO_4$), 2) bidistillangan suv, saxaroza, 3) MOPS (bufer - morfolinopropan-1-sulfonik kislota), 4) EDTA (etilendiaminetetraatsetat), kaliy xlorid (KCl), 5) magniy xlorid ($MgCl_2$), 6) sistein, 7) sigir zardobi albumini (BSA), 8) xlorid kislotasi (HCl), 9) kaliy gidroksid (KOH), 10) havoncha va pestik (gomogenizator), 11) neylon mato, 12) elektron balans, 13) pH -metr, 14) magnit aralashtirgich, 15) avtomatik variopipetlar 16) silindr (100 ml), 17) sentrifuga probirkalari, 18) sovutgichli sentrifuga 19) elastik tasmali shisha tayoq, 20) voronka, 21) maydalangan muz (sovuq element), 22) filtr qog'ozi, 23) shpatel, 24) qaychi, 25) termostat, 26) shisha stakan (50, 100, 200) ml) va voronka.

Ishning borishi: O'simlik to'qimasini olish. Don (kuzgi bug'doy) urug'ini yuvish vositasi, $KMnO_4$ ning kuchsiz eritmasi bilan yuviladi, so'ngra suv bilan yuving. Termostatda (qorong'uda) 24-26°C da nam filtr qog'oziga o'ralgan kyuvetada o'stiring. 3 kundan keyin nihollarni kesib maydalang. 2-3 sm

uzunlikdagi kesilgan nihollarni distillangan suv bilan yuving, quriting va muzlatgichga bir necha daqiqaga qo'ying.

Tarozida 30 g o'simlik to'qimasini o'lchab oling.

Mitoxondriya preparatlarini olish uchun zarur muhitni tayyorlash: Mitoxondriyalarni ajratib olish uchun barcha eritmalar bidistillangan suvda tayyorlanadi. Ish jarayonida barcha eritmalar va shisha idishlar yaxshi sovutilishi kerak (muzli suvda, muzlatgichda yoki sovuq kamerada). Barcha kerakli eritmalar mitoxondriyani ajratib olishdan bir kun oldin tayyorlanadi va muzlatgichda bir kechaga qoldiriladi. Dastavval, barcha eritmalar kerakli hajmini hisoblang. Ekstraksiya muhit 1:4 nisbatda tayyorlanadi (30 g o'simlik to'qimasi 120 ml muhitni talab qiladi). Mitoxondriyalarni ajratib olishdan avval, ekstraksiyon muhitiga sistein (50 mg / 100 ml) qo'shiladi. Yuvish muhiti uchun - 20 ml eritma tayyorlang (10-12 ml ishlatiladi). Resuspenziya qiluvchi bufer- 10 ml muhit tayyorlanadi (mitoxondriyalarga 0,6 ml qo'shiladi). Barcha eritmalar pH qiymati 7,4 ga keltiriladi. 20% BSA eritmasi yuvish uchun mo'ljallangan eritmada tayyorlanadi va muzlatgichda saqlanadi. BSA mitoxondriyal fraktsiyaga xalaqit beradigan yog' kislotalari va fenol birikmalarni bog'laydi, shuningdek, mitoxondriyal oqsillarni shikastlanishdan himoya qiluvchi proteazalar uchun substrat sifatida ishlaydi. Shisha stakanda sisteindan tashqari ko'rsatilgan barcha reaktivlarni eritib, pH qiymatini (aralashtirish bilan) 7,4 ga keltiring va bidistillangan suv bilan kerakli hajmga keltiring. So'ngra eritmani filtrlang, yuvish uchun mo'ljallangan va resuspenziya muhiti uchun zarur bo'lgan hajmni tayyorlang. Resuspenziya muhitiga kerakli moddalarni qo'shing, pH ni 7,4 ga keltiring. Filtrlashdan keyin qolgan muhitga (ekstraksiya muhit uchun) sistein qo'shing, aralashtiring, pH ni 7,4 ga keltiring va filtrlang. Eritmalarni muzlatgichda saqlang.

Mitoxondriyalarni ekstraksiya qiluvchi eritmani tayyorlash: Ekstraksiyon muhitning tarkibi (pH 7,4, g/100 ml)

Moddaning konsentratsiyasi	g/100 ml muhitdagi miqdori
300 mM saxaroza	10,260
40 mM MOPS	0,837
5 mM EDTA	0,186
10 mM KCl	0,075
1 mM MgCl ₂	0,009
0,1% BSA	0,100
0,05% sistein	0,050

Mitoxondriyalarni yuvish uchun mo'ljallangan eritmani tayyorlash:

Yuvish uchun mo'ljallangan eritma ekstraksiyon muhit bilan bir xil tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, tarkibida faqat sistein bo'lmasligi bilan farq qiladi. pH muhiti o'rtacha 7,4.

BSA konsentratsiyasi - 0,4%.

300 mM saxaroza

40 mM MOPS

5 mM EDTA

10 mM KCl

1 mM ; 0,4% BS

Mitoxondriyalarni resuspenziyasi uchun mo'ljallangan eritmani tayyorlash:

Resuspenziya muhitining pH 7,4 u yuvish uchun mo'ljallangan bufer bilan bir xil tarkibga ega, ammo BSA yo'qligi bilan undan farq qiladi

300 mM saxaroza

40 mM MOPS

5 mM EDTA

10 mM KCl

1mM MgCl₂

Mitoxondriyalarni ajratish: 30 g o'simlik to'qimasini muzda muzlatilgan stakanga (yoki muz to'plamiga qo'yilgan) joylashtiring va ekstraksiya muhit (60 ml) soling.

Ekstraksion muhitga avval 0,1% BSA eritmasi qo'shiladi (120 ml buferga 0,6 ml 20% BSA eritmasi = 0,1% BSA).

Namunani qaychi bilan maydalang, pestik bilan havonchada tez va yaxshilab maydalang (yoki gomogenizatorida maydalang).

Olingan gomogenatni 3-4 qavat doka orqali filtrlang va ekstraksiya buferniung qolgan qismini qo'shib pinset bilan voronkali stakanga siqib oling.

Filtrlangan gomogenatni juft bo'lib muvozanatlashgan sentrifuga probirkalariga quyung.

Jarayon davomida neylon mato bilan qoplangan voronkali stakan, sentrifuga probirkalari muz ustida yoki muzdek kamerada boradi.

Probirkalarni 2000 g da 3 minut davomida 4°C da sentrifuga qiling. Cho'kma ustidagi suyuqlikni (supernatant) tez va ehtiyotkorlik bilan toza sovutilgan sentrifuga probirkalariga o'tkazing, sovutgichli sentrifuga 3000 g da 5 daqiqa davomida qayta sentrifuga qiling. Supernatantni to'kib tashlang.

Muzlatgichli sentrifuga va yuvish uchun mo'ljallangan eritma hajmining yarmi bilan to'ldiring va cho'kmani extiyotkorlik bilan yuvung.

Yuvish muhitining umumiy hajmi 12 ml (yuvishdan oldin muhitga 0,4% BSA qo'shing (12 ml muhitga 0,3 ml 20% BSA = 0,4% BSA). Yuvilgan probirkadagi cho'kmani boshqa probirkaga quyung. Yuvish uchun mo'ljallangan muhitning qolgan qismini bilan oldindan yuvilgan probirkalarni ikkinchi marta qayta yuvung va bitta probirkaga quyung.

Sentrifuga probirkasini suv bilan to'ldirilgan bir xil probirkalar bilan muvozanatlashtiring va 3000 g 5 daqiqa davomida sentrifuga qiling. Supernatantni to'kib tashlang va cho'kmani 0,6 ml sovutilgan resuspenziya muhitida qayta suspenziya qiling. Mitoxondriya suspenziyasi solingan probirkani muzli stakanga soling va ish uchun foydalaning. Mitoxondriyaning suspenziyasi muzlatgichda 30-60 daqiqa davomida saqlanishi mumkin.

IV BOB. BIOLOGIK OBYEKTlarda AMINOKISLOTA VA OQSILLARNI ANIQLASH USULLARI

Oqsil miqdorini aniqlash

Oqsillar - yuqori molekulyar, murakkab birikmalar bo'lib, aminokislotalardan tashkil topgan. Oqsillarning elementar tarkibi uglerod, vodorod, kislorod, azot hamda oltingugurtdan iborat. Ba'zi oqsillar tarkibida fosfor, yod, mis, marganes ham uchraydi. Tabiatda uchraydigan oqsillarning ko'pchiligi kolloid holda bo'ladi. Barcha tirik organizmlarning tarkibiy qismini oqsillar tashkil etadi. Oqsillarni proteinlar deb ham ataladi (protos - grekcha birlamchi, muhim demakdir). Ular hayot faoliyatining barcha jarayonlarida eng muhim biologik funksiyalarni bajaradi [2,10,11,22,23,24].

1. Katalitik funksiyasi. Oqsillar fermentativ xususiyatga ega. Moddalar almashinuvi jarayonlarida boradigan barcha kimyoviy reaksiyalar faqat fermentlar ta'sirida katalizlanadi;

2. Strukturaviy funksiyasi. Oqsillar boshqa moddalar bilan birgalikda biologik membranalarning tuzilishida ishtirok etadi;

3. Energetik funksiyasi. 1 g oqsilni oxirgi mahsulotlarga parchalanishidan 4,1 kkal energiya ajralib chiqadi;

4. Qisqaruvchanlik funksiyasi. Aktin, miozin oqsillari ma'lum birikmalarda to'plangan kimyoviy energiyani mexanik energiyaga aylantiradi;

5. Transport funksiyasi. Organizmning hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha moddalar oqsil tabiatli birikmalar bilan tashiladi;

6. Retseptorlik funksiyasi. Tashqi signallarni hujayra ichiga o'tkazishda ishtirok etadi;

7. Himoya funksiyasi. Tabiiy va sun'iy immunitetlarning antitanachalarining asosini ham oqsillar tashkil etadi;

8. Regulyatorlik funksiyasi. Bu funksiyani bajarishda oqsil tabiatiga ega gormonlarning ahamiyati katta.

Oqsil miqdorini Biuret metodi bo'yicha aniqlash

Oqsillar ishqoriy sharoitda mis atomlari bilan reaksiyaga kirishib ko'k-binafsha rang hosil qiladi. Bu rangning intensivligi eritmadagi oqsil miqdoriga qarab o'zgaradi. Biuret usuli Keldal usuliga nisbatan tez va osonlik bilan bajariladi. Bu usul faqat oqsil miqdori yuqori bo'lgan materiallarni tekshirishda qo'llaniladi.

Kerakli asboblari: shtativ; probirkalar; 1, 2, 5, 10 ml li pipetkalar; spektrofotometr.

Reaktivlar. 1. Albumin oqsilining standart eritmasi, bu eritmaning 1 ml da 10 mg albumin oqsili bor. 2. Biuret reaktivi, 0,15 g $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ va 0,6 g $\text{NaKC}_4\text{H}_4\text{O}_6 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ (natriy tartaratkaliy yoki segnet tuzi) tuzidan olib, 50 ml suvda eritiladi. Shu eritmaga 30 ml 10 % li natriy ishqori eritmasidan solib aralashtiriladi va eritmada qaytar reaksiyasi ketmasligi uchun 0,1 g KJ ning tuzidan qo'shib, eritma hajmi suv qo'shib 100 ml ga etkaziladi.

Ishning borishi. Kalibrlangan grafik tuzish uchun albumin oqsilining standart eritmasidan foydalaniladi, bu eritmaning 1 ml 10 mg albumin oqsilini saqlaydi. Namunalar quyidagicha tayyorlanadi.

Probirkalar raqami	Oqsil miqdori, mg	Oqsil eritmasining hajmi, ml	H ₂ O, ml
1	2	0,2	1,8
2	4	0,4	1,6
3	6	0,6	1,4
4	8	0,8	1,2
5	10	1,0	1,0
6	12	1,2	0,8
7	16	1,6	0,4
8	20	2,0	-
9	0	-	2,0

Hamma probirkalarga 8 ml dan biuret reaktividan qo'shiladi va xona haroratida qoldiriladi. O'lchashni to'qqizinchi probirkadagi suvga solishtirgan holda olib boriladi, bu probirka oqsildan boshqa hamma komponentlarni saqlaydi. 30 minutdan

keyin spektrofotometrda 540 nm to'lqin uzunligida o'lchanadi. Olingan natijalar kalibrlangan grafik tuzishda ishlatiladi. Grafik tuzish uchun ordinata o'qiga optik zichlik kattaligi, absissa o'qiga-shu optik zichlikka mos oqsil miqdori quyiladi.

Tekshirilayotgan eritmada oqsil miqdorini aniqlash uchun yuqorida ko'rsatilgan sharoitda ish olib boriladi. Buning uchun tekshirilayotgan oqsil suyultirilib, undan 2 ml olinadi, so'ngra 8 ml biuret reaktividan qo'shiladi.

Tekshirilayotgan oqsilning optik zichligiga qarab, grafikdan oqsil miqdori aniqlanadi. Oqsil miqdori mg % da hisoblanadi.

Oqsil miqdorini mikrobiuret metodi bilan aniqlash

Reaktivlar. 1. $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ -2,1% li eritmasi. 2. KOH-30% eritmasi. 3. A eritma. 4. Bu eritmani tayyorlash uchun $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ -2,1% li eritmasidan 1 qism, 9 qism KOH-30% li eritmasidan olib aralashtiriladi. Bu eritma foydalanishdan oldin tayyorlanadi.

Ishning borishi. Tekshirilayotgan obyektida oqsil miqdorining aniqlash uchun albumin oqsilining standart eritmasidan kalibrlangan grafik tuziladi. Grafikni tuzish uchun tarkibida 5 mkg-120 mg oqsil saqlagan namunalar tayyorlanadi. Bu namunalarga 2,5 ml dan A eritma qo'shiladi, 30 minutdan keyin spektrofotometrda 310 nm to'lqin uzunligida o'lchanadi.

Tekshirilayotgan eritmada oqsil miqdorini aniqlash uchun shu eritmadan 0,5 ml olib, unga 2,5 ml eritmadan qo'shiladi va yuqorida bayon qilingan sharoitda o'lchanadi.

Oqsil miqdorini Louri usuli bilan aniqlash

Oqsil miqdorini aniqlashda bu metod juda keng qo'llaniladi. Bu metod yuqori sezgirlikka ega bo'lib, namunalardagi 10-100 mkg bo'lgan oqsil miqdorini aniqlash mumkin. Metod aromatik aminokislotalarni Folin reaktivi bilan birgalikda biuret reaksiyasining peptid bog'lari hisobiga hosil qilgan ranglarga asoslangan.

Oqsil miqdorini aniqlash uchun kalibrlangan grafik tuziladi. Bu grafik tuzish uchun albuminning standart eritmalaridan foydalaniladi.

Kerakli asboblar: shtativ; probirkalar; 0,1, 1,5 va 10 ml li pipetkalar; spektrofotometr.

Reaktivlar. 1.Natriy ishqorining 0,1 N eritmasi. 2.A eritma: 2% li natriy karbonatning 0,1 N li natriy ishqoridagi eritmasi. 3.B eritma: 0,5 % li mis sulfatning 1 % li natriy tartaratdagi eritmasi. Eritmani tayyorlash uchun 10 g natriy tartarat tuzi 300 ml suvda eritiladi. So'ngra eritmaga 5 g mis sulfat qo'shiladi va hajmi 1 litrga etkaziladi. 4.C eritmasi: bu eritmani tayyorlash uchun 49 ml A eritmaga 1 ml B eritmadan qo'shiladi. Bu eritma analiz qilishdan oldin tayyorlanadi. 5.Folin reaktivi yoki E eritmasi. Eritmani tayyorlash uchun 2 litrli kolbaga 100 g $\text{Na}_2\text{CO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ va 25 g $\text{Na}_2\text{Mo}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tuzidan olib, 700 ml suvda eritiladi. So'ngra eritmaga 50 ml 85 % li H_3PO_4 kislotaga va 100 ml konsentrlangan HCl kislotadan qo'shiladi. Keyin esa shu aralashma solingan kolbani qaytaruvchi sovitgichga ulab, 10-12 soat qaynatiladi. Qaynatib bo'lgach 150 g litiy sulfat, 50 ml suv, bir necha tomchi bromli suv qo'shiladi. Ortiqcha bromni chiqarib yuborish uchun 15 minut sovitgichsiz qaynatiladi. Aralashma xona haroratigacha sovitilib, filtrlanadi va hajmi 1 litrga etkaziladi. Folin reaktivining kislotaligi fenoltalein ishtirokida 0,1 N natriy ishqori bilan titrlanib aniqlanadi. Reaktiv qorong'i idishga solib saqlanadi. Oqsilni aniqlashda kislotaligi 1 N bo'lgan Folin reaktivi ishlatiladi.


Ishning borishi. Kalibrlangan grafik tuzish uchun albuminning standart eritmasi tayyorlanadi. Buning uchun 4 mg albuminni 10 ml suvda eritiladi, bu eritmaning 0,1 ml 40 mkg oqsil miqdorini saqlaydi. Probirkalarga 10-120 mkg albumin oqsili eritmasi solinadi. Buni tayyorlash quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Probirkalar raqami	Oqsil miqdori, mkg	Oqsil eritmasi, ml	Distillangan suv, ml
1	120	0,3	0,1
2	110	0,275	0,125
3	100	0,250	0,150

4	90	0,225	0,175
5	80	0,2	0,2
6	70	0,175	0,225
7	60	0,150	0,250
8	50	0,125	0,275
9	40	0,1	0,3
10	30	0,075	0,325
11	20	0,05	0,35
12	10	0,025	0,375
13	-	-	0,4

Har bir probirkaga 2 ml C eritmasidan solib, yaxshilab aralastiriladi va xona haroratida 10 minut qoldiriladi. So'ngra 0,2 ml Folin reaktividan qo'shiladi, probirkalarni chayqatib, 30 minut xonada qoldiriladi. Keyin spektrofotometrda 750 nm to'lqin uzunligida oqsilsiz naumnaga qarshi o'lchanadi. Olingan ma'lumotlardan grafik tuziladi. Buning uchun ordinat o'qiga optik zichlik kattaligi, absiss o'qiga oqsil miqdori mkg quyiladi.

Biologik obyektida oqsil miqdorini aniqlash uchun, probirkaga 0,4 ml tekshirilayotgan oqsil (50 yoki 100 marta suyultirilgan) solib, yuqorida yozilgan sharoitda ish olib boriladi. Optik zichligiga qarab grafikdan oqsil miqdori aniqlanadi, keyin suyultirilmagan obyektidagi oqsil miqdori mg da hisoblanadi (IV.41 rasm).



IV.41- rasm. Kalibrlangan grafik. Absissa o'qida -namunalardagi oqsillar miqdori, mkg (C); Ordinata o'qida-optik zichlik (E).

Oqsillarni dializ qilish

Oqsillar dializ usulida turli xil tuzlar va kichik molekulari birikmalardan tozalanadi. Bu usulda ular maxsus dializ qiluvchi xaltachalarga solinib, oqar suvga uzoq vaqt botirib quyiladi. Dializ qiluvchi xaltachalar maxsus materiallardan tayyorlanadi. Bu materiallar kichik molekulari birikmalarni va ionlarni yaxshi

o'tkazadigan bo'lishi kerak. Yarim o'tkazgich membranalar sifatida sellofan va hayvonlarning siydik pufagidan foydalanish mumkin. Dializ uchun ko'pincha sellofan xaltachalar ishlatiladi. Agar oqsillar turli xil tuzlar yordamida ajratib olingan bo'lsa, ular tarkibidagi tuz dializ yo'li bilan tozalanadi.

Reaktivlar: tuxum yoki soya uni oqsilining eritmasi, osh tuzining to'yingan eritmasi, kumush nitratning 1 %li eritmasi, natriy gidroksidning 20 % li eritmasi, mis sulfatning 2% li eritmasi.

Ishning borishi. Uzunligi 10-12 sm, diametri 0.7 sm bo'lgan shisha nayning bir tomonini sellofan bilan berkitiladi. Shisha naychaga 5-6 tomchi oqsil eritmasidan va 2-3 tomchi osh tuzi eritmasidan quyiladi. Keyin shisha naycha 2-3 ml suvi bo'lgan probirkaga tushiriladi. 10-15 minut o'tgach shisha naycha olinadi va distillangan suvda xloridlar va oqsil bor yoki yo'qligi tekshiriladi.

Xloridlarni aniqlash uchun distillangan suvda 0,5 ml probirkaga solib, ustiga kumush nitratning 1 % li eritmasidan 0,2 ml qo'shiladi. Bunda kumush xlorid cho'kmaga tushadi.

Oqsillarni aniqlash uchun biuret reaksiyasidan foydalaniladi. Buning uchun distillangan suvdan 0,5 ml olib, uning ustiga natriy gidroksidning 20 % li eritmasidan 0,5 ml va mis sulfatning 2 % li eritmasidan 5-10 tomchi qo'shiladi. Binafsha rang hosil bo'lmaganligi oqsil yo'qligidan darak beradi.

Oqsillarni ajratish va tozalash usullari

Oqsillarni ajratib olish jarayonining ketma ketligi odatda biologik materialni gomogenizatsiya qilish, oqsillarni ekstraksiyalash, (oqsilni eritma holatiga o'tkazish), tadqiq qilinayotgan oqsilni boshqa oqsil aralashmasidan ajratib olish

hamda individual oqsilni tozalash bosqichlaridan iborat. Oqsillar denaturatsiyaga uchramasligi uchun barcha jarayonlar 0°C da, kuchli ishqor va kislotalardan foydalanmagan holda olib boriladi.

● Dastlabki biologik material teflonli gomogenizatorlarda maydalanadi. Bundan tashqari to'qimani muzlatish va eritish usuli orqali hujayra qobig'ini muz kristallari yordamida buzish asosidagi metod ham mavjud. To'qimani buzish uchun yana ul'tratovush, press-metodlar hamda hujayralarni yuqori bosim ostida azot bilan to'yintirib so'ngra bosimni tezkor pasaytirish orqali hujayralarni "azot bombalari" orqali buzish usullari mavjud.

● Maydalangan to'qima ustiga 8-10% tuz eritmaları, bufer eritmalar, organik eritmalar hamda oqsil va lipidlar o'rtasidagi gidrofob bog'larni buzuvchi ion bo'lmagan detergentlar quyiladi. Ammo ulardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur, chunki detergentlar oqsillarning uchlamchi va to'rtlamchi strukturalarini buzib yuboishi mumkin. Organik birikmalardan gliserinning suvli va saxarozaning kuchsiz eritmalaridan foydalaniladi. Oqsillarning erishi va stabilizatsiyasi kislotali va kuchsiz ishqoriy muhitlarda amalga oshirishini hisobga olgan holda bufer eritmalar sifatida fosfat, sitrat, borat bufer aralashmalaridan foydalaniladi. To'qimaning erimaydigan qismi sentrifuga yordamida cho'ktiriladi. Cho'kma ustidagi suyuqlikda eruvchi oqsillar mavjud bo'ladi.

● Barcha oqsillar o'xshash xususiyatlarga ega bulib, ularni ajratib olish turli oqsillarning bir-biridan uncha katta farq qilmaydigan xususiyatlariga asoslangani uchun individual oqsilni boshqa oqsildan ajratib olish oqsil ajratishdagi eng katta qiyinchilik hisoblanadi.

● Oqsillarni ajratib olishning bir nechta usullari mavjud.

Tanlab olingan denaturatsiya. Ko'pchilik oqsillar eritmani 50-70°C gacha qizdirilganda yoki pH-5 kislotali muhitda chukmaga tushadi. Agar tanlab olingan oqsil shu muhitga chidamli bo'lsa, boshqa begona oqsillarni shu yo'l orqali yo'qotish mumkin.

Tuzlash – turli tuzlarni qo‘shish orqali oqsillarni cho‘ktirish usulidir. Ko‘pincha oqsilning eruvchanlik xususiyatini ammoniy sulfat tuzi konsentratsiyasiga bog‘liqligidan foydalaniladi. Agar eritmaga $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ tuzini uncha katta bo‘lmagan miqdorda qo‘shishsa (masalan, 100 ml eritmaga 10 g), nisbatan kamroq eruvchi oqsillar cho‘kmaga tushadi. Cho‘kma sentrifuga yordamida ajratib olinadi va cho‘kma ustidagi suyuqlikka yana 10 g $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ tuzini qo‘shish orqali ikkinchi cho‘kma ajratib olinadi. Ushbu jarayon davom ettirilib, bir nechta fraksiya olinadi va olingan fraksiyalardan birida tadqiq qilinayotgan oqsil boshqa fraksiyaga nisbatan ko‘p miqdorda bo‘ladi.

Ion almashinuvchi xromatografiya va elektroforez metodlari aminokislota radikallaridagi ion guruhining miqdori va tabiatiga qarab ajratishga asoslangan. Oqsillarning xromatografiyasi uchun ion almashinuvchi sifatida sellyuloza yoki boshqa turdagi gidrofil polimerlardan foydalaniladi.

Elektroforezning turli usullaridan qo‘llaniladi. Elektroforez metodlari orasida nisbatan oddiyroq usuli bu – qog‘ozdagi elektroforezdir. Buning uchun fil‘tr qog‘ozining start chizigidagi bufer eritma bilan to‘yintiriladi va elektr zanjiri orqali doimiy tok yuboriladi. Jarayon germetik yopiq kamerada olib boriladi. Elektroforegrammadagi chiziqlarni oqsil bilan rangli bog‘ hosil qiluvchi bo‘yoqlar yordamida bo‘yalgandan so‘ng ko‘rish mumkin bo‘ladi. Oqsillarni fraksiyalarga ajratib bo‘lgach, oqsil molekulasining zaryadiga qarab mos keluvchi bufer bilan yuviladi (oqsilli chiziqchalar alohida qismlarga ajratiladi) va cho‘ktiriladi. Tozalangan oqsilni ushbu metod orqali ko‘p miqdorda ajratib olish uchun qandaydir inert materialning qalin bloki- kraxmal, sellyuloza kukuni yoki polimeri hamda poliakrilamidlardan foydalaniladi.

Gel-filtratsiya va ultrasentrifuga usuli oqsillarning molekulyar massasiga qarab ajratishga asoslangan.

Oqsillarning molekulyar massasi o‘nlab va yuz minglab atom birligiga to‘g‘ri keladi. (a.m.b., yoki Da). Oqsillarning molekulyar massasini aniqlovchi alohida usullar ishlab chiqilgan. Ushbu usullar orasida eng keng tarqalgan metod -ultrasentrifugalash

usuli bo‘lib, shved olimi Svedberg tomonidan yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu metod moddalarning cho‘kish tezligini o‘lchashga asoslangan. Ultrasentrifuganing aylanuvchi rotorida markazdan qochuvchi kuch tezligi 100 000-500 000 g (g- erkin tushish tezligi)ni tashkil etadi.


Oqsilning molekulyar massasini Gel-filtratsiya, yoki molekulyar elak deb ataluvchi nisbatan oddiyroq metod orqali ham aniqlash mumkin. Ushbu metod polimer moddalar (masalan, sefadeks) lardan foydalanishga asoslangan bo‘lib, shishgan donachalar yuzasi ma‘lum hajmdagi teshikchalarga ega.

Nisbatan kichikroq molekular ushbu teshikchalarga osonlik bilan kiradi, yirikroq molekularning diffuziyasi esa qiyinlik bilan o‘tadi, eng yiriklari esa umuman bu teshikchalarga sig‘may katta tezlikda pastga tomon harakatlanadi. Gel-filtratsiya metodining mohiyati ham shundan iborat bo‘lib, uni teskari elakka o‘xshatish mumkin.

Ushbu metodning ishlash prinsipi IV-42-rasmda tasvirlangan bo‘lib, oqsilli eritma bufer bilan birgalikda kolonkadagi sefadeks granulariga yuborilmoqda. Oqsil molekulari bufer eritmaga nisbatan sekinroq harakatlanadi, harakatlanish tezligi qanchalik past bo‘lsa oqsilning molekulyar massasi shuncha kichik bo‘ladi, chunki kichik molekulari oqsillar sefadeksning ichiga osonlik bilan kirib oladi.

Natijada kolonkada oqsilning alohida zonalari hosil bo‘ladi, ushbu zona qanchalik pastda joylashgan bo‘lsa, oqsilning molekulyar massasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Molekulyar massasi bo‘yicha farq qiluvchi oqsil fraksiyalari alohida probirkalarga yig‘iladi va xromatografik identifikatsiyalanadi.

Yuvish hajmi (fraksiyani yuvish uchun kolonkaga yuborilgan bufer eritmaning hajmi- V, ml) va molekulyar og‘irlik logorifmi (IgM) o‘rtasida chiziqli bog‘liqlik mavjud (IV.42 a,b -rasm)



IV.42-rasm.

Kolonkaga dastlab molekulyar massasi ma'lum bo'lgan standart oqsil eritmalarini o'tkazish orqali oldindan kalibrlanadi.

O'simliklardan umumiy oqsillarni ajratib olish

O'simliklarning turli organlarida oqsillarni ajratib olishning turli usullari mavjud. Yangi shifobaxsh sano o'simlik materialidan, ya'ni barg, poya, meva yoki boshqa vegetativ organlardagi oqsillarni ajratish uchun 50-100 g namuna olib, sovitgichda yoki suyuq azot yordamida muzlatiladi. So'ngra muzlatilgan namuna gomogenizatorida yoki chinni hovonchada borat bufer eritmasi (pH=10) bilan 1:4 nisbatida bir xil massa hosil bo'lguncha eziladi. Ezish davomida oqsillarning eruvchanligini oshirish maqsadida bir oz natriy bisulfatning 0,2 %li eritmasidan va ko'pik hosil bo'lmasligi uchun 3-4 tomchi oktil spirti qo'shiladi. Hosil bo'lgan gomogenat sovitgichda muzlatiladi, so'ngra eritib tebratuvchi asbob yordamida 1-2 soat davomida chayqatiladi. Vaqt tugagach minutiga 3000 aylanma tezlik bilan 10-15 minut sentrifugalanadi. Eritma hajmi 500 ml bo'lganicha o'lchov kolbaga quyiladi. Cho'kma esa kam hajmdagi bufer eritma bilan yana 5-6 marta ekstraksiya qilinadi. Har safar gomogenat sentrifugalanib eritmalar o'lchov kolbaga quyiladi. Ekstraksiya kolbadagi eritmaning umumiy hajmi distillangan suv bilan chiziqqacha to'ldiriladi.

Eritmaga o'tgan azot miqdori, o'simlik tarkibidagi umumiy azotning 90 - 95% ini tashkil qilishi kerak. Eritmadagi oqsilni aniqlash uchun undan 20 ml olib Keldal bo'yicha azot miqdori topiladi, shu bilan birga to'g'ridan-to'g'ri tekshirilayotgan o'simlik materialidagi umumiy azot ham aniqlanadi.

Eritmaga o'tgan oqsillarni cho'ktirish uchun eritma 1000 ml li stakanga quyiladi va sirka kislotaning 10 % li eritmasi yordamida pH 4,4-4,5 ga keltiriladi. Eritma pH ini qog'oz indikator yordamida aniqlanadi. Agar muhit kislotali bo'lib ketsa, ishqor yordamida uning pH ini 4,4-4,5 ga keltirish mumkin. Eritma solingan stakan suv hammomida 70°C da qizdiriladi va cho'kmaga tushgan oqsillar sentrifugalanib ajratiladi. Cho'kmaga tushgan oqsillarni sirka kislotasi bilan yuviladi. Buning uchun sentrifuga probirkasiga sirka kislotaning 1 % li eritmasidan quyib cho'kma aralashtiriladi, sentrifugalanadi va cho'kma ustidagi eritma to'kib yuboriladi.

Oqsillarni yanada tozaroq holda ajratib olish uchun ularni qayta cho'ktiriladi. Buning uchun sentrifuga probirkalariga o'yuvchi natriyning 0,2 N eritmasidan quyiladi va cho'kma yaxshilab aralashtirilib, suyuqlik probirkadan stakanga quyiladi. Probirka yana bir necha marta o'yuvchi natriyning 0,2 N eritmasi bilan yuviladi va ular ham stakandagi suyuqlikka qo'shiladi. Stakandagi suyuqlik suv hammomida 50°C da oqsillar to'liq erigunga qadar aralashtirib turiladi. Eritmaga zarrachalar sentrifugalash yo'li bilan ajratiladi.

Oqsillarni qayta cho'ktirish uchun oqsil eritmasi bo'lgan stakanga 50 % li trixlorasetat kislotasidan, eritmadagi oxirgi konsentratsiya 5% bo'lguncha qo'shiladi. Bunda cho'kmaga tushgan oqsillar sentrifugalash bilan ajratib olinadi. Sentrifuga probirkasidagi oqsil cho'kmasini aseton (5-6 marta), issiq etil spirti (1-2 marta) va efir (2-3 marta) bilan yuviladi (efir bilan sentrifuga qilinganda, sentrifuga qopqog'i ochiq bo'lishi kerak). Har gal sentrifugalashdan so'ng cho'kma ustidagi suyuqlik to'kib yuboriladi. Shu yo'l bilan olingan oqsil preparatlari uy haroratida, vakuum eksikatorida

quritiladi va saqlanadi. Oqsil preparatlari tarkibidagi umumiy azot Keldal metodi bo'yicha aniqlanadi. Olingan oqsil preparatlari oq yoki och kulrang poroshok bo'lib, tarkibida 14-16% azot bo'ladi.

Oqsillarni ayrim fraksiyalarga ajratish

Oqsillarni yanada chuqurroq o'rganish uchun ularni fraksiyalarga ajratish kerak. Oqsillarni fraksiyalarga ajratish, ularni turli xil erituvchilarda erishiga asoslangan.

O'simlik to'qimalaridan ajratib olingan oqsillar ketma-ket ravishda suv (albuminlar), spirt (prolaminlar) va ishqoriy eritmalar (glyuteninlar) yordamida ekstraksiya qilinadi. Oqsillarni fraksiyalarga ajratish ham sovuq xonalarda 4°C atrofida olib boriladi.

Ishning tartibi. Tekshirilayotgan o'simlik materialidan 25-50 g olib, suyuq azot bilan fiksatsiya qilinadi va sovitkichda muzlatiladi. So'ngra muzlatilgan material suv bilan (1:4) nisbatda gomogenizatsiya qilinadi yoki chinni hovonchada bir xil massa hosil bo'lguncha maydalanadi. Hosil bo'lgan gomogen massa kolbaga o'tkaziladi va maxsus tebratuvchi asbob yordamida 1 soat chayqatiladi. Bunda oqsillarni eritmaga to'liq o'tishi ta'minlanadi. So'ngra kolba 15-18 soatga 0°C da sovitkichda qoldiriladi.

O'simliklarning urug'laridan oqsillarni ajratishda esa urug'lar avval mayin un holiga kelgungacha maydalanadi. Ularning tarkibidagi moy va moysimon moddalar efir va aseton yordamida ajratiladi. Poroshoklar asetonli eksikatorida quritiladi. Poroshokdan 5-10 g olib, 30-60 ml suv bilan aralashtiriladi va mexanik tebratkich yordamida 1 soat davomida chayqatiladi. So'ngra kolba 15-18 soatga 0°C li sovitkichda qoldiriladi.

Suvda eruvchi oqsillarni ekstraksiya qilish. Bundan keyingi ish tartibi o'simlik materiali qanday bo'lishidan qat'iy nazar bir xilda olib boriladi. Oqsil eritmalar sovitkichdan olingandan so'ng sentrifugalanadi va cho'kma ustidagi suyuqlik katta stakanga quyiladi. Sentrifuga probirkasidagi cho'kma esa massaga nisbatan uch barobar ko'p suv bilan gomogenizatsiya qilinadi va

kolbaga qo'yib 30-40 minut chayqatiladi. Shundan so'ng yana sentrifuga qilinadi va cho'kma ustidagi suyuqlik oldingi stakanga quyiladi. Suv bilan ekstraksiya qilinib, sentrifugalash yana 4-5 marta takrorlanadi. Bunda suvda eruvchi oqsillar to'liq ekstraksiya qilinadi, cho'kma esa massaga nisbatan 4-5 barobar ko'p hajmdagi kaliy xloridning 1 M eritmasi bilan aralashtirib sovitkichda qoldiriladi.

O'simlik to'qimalarini suv bilan ekstraksiya qilinganda eritmaga faqat oqsillar emas, balki boshqa suvda eriydigan birikmalar, shu jumladan erkin aminokislotalar, shakarlar va mineral tuzlar ham o'tadi. Shuning uchun olingan ekstraktni kuchsiz tuzli eritma deb hisoblasa ham bo'ladi. Bunday eritmaga faqat suvda eruvchi oqsillar (albuminlar) emas, balki qisman bo'lsada, tuzli eritmalaridagi oqsillar (globulinlar) ham o'tadi. Albuminlar va globulinlarni bir-biridan ajratish uchun ekstrakt distillangan suvda dializ qilinadi. Dializ vaqtida kichik molekulyar moddalar, shu jumladan mineral tuzlar ham sellofan xaltacha ichidan suvga chiqadi. Xaltachada esa faqat oqsillar qoladi. Dializ oxirida sellofan xaltachada tuzlar qolmaganligi sababli tuzli eritmalarida eriydigan oqsillar darhol cho'kmaga tushadi, eritmada esa albuminlar qoladi. Albuminlarni tuzli eritmalarida eriydigan oqsillardan ajratish uchun sellofan xaltachadagi eritma va cho'kma sentrifuga probirkalariga o'tkaziladi. Xaltacha 2-3 marta distillangan suv bilan yuviladi va u ham sentrifuga probirkasiga quyiladi. So'ngra 5-10 minut davomida minutiga 3-4 ming tezlik bilan sentrifugalanadi. Eritma 250 ml li o'lchov kolbaga quyiladi. Cho'kma esa distillangan suv bilan 2-3 marta yuvilib sentrifugalanadi. Barcha eritmalar o'lchov kolbaga quyiladi va distillangan suv yordamida chiziqgacha to'ldiriladi. Tarkibida albumin bo'lgan bu eritma sovitkichda saqlanadi.

Sentrifuga probirkalarida qolgan cho'kma 10-15 ml 1M kaliy xlorid eritmasi bilan eritiladi va 250 ml li kolbaga quyiladi. Probirkalar 2-3 marta kaliy xlorid eritmasi bilan yuviladi va ular ham kolbaga quyiladi. Kolbadagi suyuqlik kaliy xlorid eritmasi

yordamida chiziqqacha to'ldiriladi. Tarkibida osonlik bilan eruvchi globulinlar bo'lgan bu eritma sovitgichda saqlanadi.

Tuzda eruvchi oqsillarni ekstraksiya qilish. Kaliy xloridning 1 M eritmasi bilan qoldirilgan o'simlik massasi, mexanik tebratkich yordamida 1 soat davomida aralashiriladi. So'ngra sentrifugalanib eritma ajratib olinadi. Cho'kma esa yana 3-4 marta kaliy xloridning 1 M li eritmasi bilan ekstraksiya qilinib, sentrifugalanadi. Eritmalar esa hammasi dastlabki eritmaga qo'shiladi va o'lchov kolba chizig'igacha kaliy xlorid eritmasi bilan to'ldiriladi. Bu eritma globulinlardan iboratdir.

Globulinlar ajratib olingandan keyin qolgan cho'kma etil spirtining 80 % li eritmasi bilan ekstraksiya qilinadi. Bundan spirtida eruvchi oqsillar prolaminalar ajraladi, ekstraksiya 1 soat davom etadi, so'ngra sentrifugalanib, oqsil eritmaları o'lchov kolbaga quyiladi.

Cho'kma esa yana 3-4 marta spirt eritmasi bilan ekstraksiya qilinadi va barcha eritmalar kolbaga quyiladi. Kolba chizig'igacha spirt eritmasi bilan to'ldiriladi. Spirtli eritmalar sovitkichda saqlanmaydi. Ularni xona haroratida saqlash mumkin va iloji boricha oqsil miqdori tezroq aniqlanishi kerak.

Ishqorda eruvchi oqsillarni ekstraksiya qilish

Buning uchun sentrifuga probirkasida qolgan cho'kma 0,2 M borat buferda (pH-10) tayyorlangan bisulfit natriyning 0,2% li eritmasida eritiladi. Ayrim oqsil fraksiyalarini ajratib olish ko'p jihatdan o'simlik materialini erituvchida turish vaqtiga bog'liq.

Hamma oqsil fraksiyalarini ajratib bo'lgandan so'ng qolgan o'simlik materialini suv bilan yuviladi va filtrlanadi, so'ngra qoldiq 50-60°C qizdirilib quritiladi. Uning tarkibidagi umumiy azot Keldal metodida aniqlanadi.

Shunday qilib, o'simlik materialidan 6 xil oqsil fraksiyalari albuminlar, osonlik bilan eriydigan globulin va kaliy xlorid yordamida ajratiladigan globulinlar; prolaminalar, glyutelinar va erimaydigan azot ajratib olinadi. Oqsil miqdorini aniqlash uchun har bir kolbadan (oxirgi fraksiyalardan tashqari) 20-50 ml eritma olinib Keldal kolbasida quyidagilardan oqsillar aniqlanadi.

Oddiy oqsillarni gidroliz qilish

Kerakli asbob va reaktivlar: 100 ml li yumaloq tubli kolba, menzurka, shisha nay o'rnatilgan probirka yoki qaytar sovutgich, shtativ (qisqichlari bilan), gaz gorelka yoki spirt lampa, pipetkalar, 1% li tuxum oqsili eritmasi, konsentrlangan xlorid kislota, ishqorning 10% li eritmasi, mis (II)-sulfatning 1% li eritmasi.

Murakkab polimer moddalarning suv biriktirib olish yo'li bilan parchalanishi gidroliz deb ataladi. Qo'llaniladigan katalizatorga qarab gidroliz kislotali, ishqoriy va fermentativ bo'lishi mumkin. Oddiy oqsillar gidrolizlanganda faqat aminokislotalar hosil bo'ladi.

Laboratoriya sharoitida ko'pincha oqsillarni kislotali gidroliz qilish usuli keng qo'llaniladi. Lekin bu vaqtda triptofan to'la, serin, treonin, sistein, tirozin va fenilalanin qisman parchalanadi. Shunga qaramasdan, parchalangan aminokislotalarning protsent miqdori kam bo'lganligi uchun asosan kislotali gidroliz usulidan foydalaniladi. Ishqoriy gidroliz vaqtida ko'pchilik aminokislotalar parchalanadi, faqat triptofan deyarli o'zgarishsiz qoladi. Shuning uchun ishqoriy gidroliz oqsil molekulasidagi triptofan miqdorini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Kislotali gidroliz vaqtida oqsillar avvalo yuqori molekular peptidlarga, so'ngra kichik molekular peptidlarga va, nihoyat, erkin aminokislotalargacha parchalanadi.

Oqsilni to'la gidroliz qilish uchun havo sovitgichi bilan jihozlangan kolbachada yoki og'zi zich berkitilgan ampulalarda xlorid, sulfat kislota ishtirokida olib boriladi.

Oddiy oqsilni kislota ta'sirida gidrolizlash

Ishning bajarilishi. Gidroliz uchun 2 ta yumaloq tubli kolbaga 20 ml dan 1% li tuxum oqsili va 5 ml dan konsentrlangan, zichligi 1,18 g/sm³ ga teng bo'lgan xlorid kislota quyiladi. Kolba og'zi uzun shisha nay o'tkazilgan probirka bilan berkitiladi va uni asbestli, sim to'rli shtativga o'rnatiladi, mo'rili shkaf ichida 45-90 minut (o'qituvchining ko'rsatmasiga binoan) davomida

qaynatiladi. Hidroliz tugagandan keyin gidrolizat keyingi ish uchun olib qo'yiladi.

Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi.

Reaktivlar triptofan, tirozin va oqsil eritmalari.

Kerakli anjomlar: probirka va shtativlar, o'lchovchi pipetkalar, sperktrofotometr.

Bajariladigan ish tartibi. Rangsiz va tiniq triptofan, tirozin va oqsil eritmalarining optik zichligi navbati bilan 280nm to'liq uzunligida 1 sm qalinlikdagi kyuvetada sperktrofotometrda o'lchanadi. Topilgan zichlik bo'yicha oldindan tayyorlangan o'lchov egri chizig'idan foydalanib, tegishli miqdorlar aniqlanadi. Oqsil miqdori Adams xomogrammasidan topilishi mumkin.

Qondagi qoldiq azot miqdorini aniqlash

Kerakli asboblari: probirkalar bilan shtativ; 25 ml li Keldal kolbasi; fotokolorimetr yoki sperktrofotometr; filtr qog'oz bilan voronka; 0,2 ml mikropipetka; 1, 2, 5 ml li pipetkalar; 25, 50, 100 ml li kolbalar, qaychi.

Reaktivlar. 1. Qon (qonning sitratli yoki oksalatli aralashmasi). 2. 86 % li etil spirti. 3. Uchxloruksus kislotasining 20 % li eritmasi. 4. Konsentrlangan sulfat kislotasi. 5. Pergidrol. 6. Ammoniy sulfatning standart eritmasi: 0,2357 g tuz l L suvda eritiladi, 1 ml bunday eritmada 0,05 mg azot bor. 7. Nessler reaktivi: birinchi stakanga 15 g simobning yodli tuzidan solinadi, ikkinchi stakanga quyiladi, shisha tayoqcha bilan to simobning yodli tuzi eriguncha aralashtiriladi.

Ishning borishi. Probirkaga 1,8 ml distillangan suv va 0,2 ml qon solinadi, so'ngra 2 ml 20 % li trixlorosirka kislotasidan quyib shisha tayoqcha bilan yaxshilab aralashtirgach, 5 minut tindiriladi. Suyuqlik jigar rangga kiradi. Probirkalardagi suyuqlik filtr qog'oz bilan filtrlanadi. 2 ml filtratdan olib (ya'ni 0,1 ml qonga to'g'ri keladi) Keldal kolbasiga solinadi va 2 tomchi konsentrlangan sulfat kislotasi qo'shilgach to oq tutun hosil bo'lguncha qizdiriladi. So'ngra kolbani qizdirishdan to'xtab, sovugach 2 tomchi pergidrol qo'shiladi va kolbadagi suyuqlik rangsizlanguncha qizdiriladi. Keyin esa kolbadagi suyuqlik

sovutiladi va 2-3 ml suv qo'shib suyultiriladi, hajmini o'lchab kolbaga solinadi (kolbaning devorlari ham ma'lum hajmdagi suv bilan yuviladi). 25 ml li kolba hajmining 2/3 qismiga suv qo'shiladi, 3 ml nessler reaktividan solib, so'ngra kolbadagi belgigacha suv qo'shiladi.

Boshqa kolbaga 1 ml ammoniy sulfatning standart eritmasi va 1 tomchi konsentrlangan sulfat kislotasi solinadi hamda kolba hajmining 2/3 qismigacha suv qo'shiladi. So'ngra 3 ml nessler reaktividan qo'shiladi va kolbadagi belgigacha suv quyiladi. Kolbalardagi suyuqlik chayqatilgach, sperktrofotometrda o'lchanadi va quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X = \frac{0,05 \cdot h_1 \cdot 100}{h}$$

Bu erda: X-azot qoldig'i, mg %; 0,05-1 ml ammoniy sulfatning standart eritmasidagi azotning miqdori; h-standart suyuqlikning optik zichligi ekstinksiyasi; h_1 -tekshirilayotgan suyuqlikning optik zichligi ekstinksiyasi; 100-azotni mg % da hisoblash uchun umumiy ko'paytiruvchi.

Xromatografiya usuli bilan oqsillarni va aminokislotalarni ajratib olish

Aminokislotalarni qog'oz xromatografiyasi yordamida ajratish

Aminokislotalarni bir-biridan ajratishda eng oddiy, oson va nisbatan aniq usul qog'oz xromatografiyasidir. Xromatografiya usuli 1903 yilda rus olimi M. S. Svet tomonidan kashf etilgan. Qog'oz xromatografiyasi uchun yuqori sifatli har qanday filtr qog'ozdan foydalanish mumkin. Aminokislotalarning ajratish va aniqlash usuli, ularning aralashmasini filtr qog'ozga tomizishdan va qog'ozning bir uchini tegishli organik erituvchiga tushirishdan iborat. Erituvchi filtr qog'oz tomonidan shimiladi va o'zi bilan birga aminokislotalarni ko'chiradi (ilashtiradi). Aminokislotalarni qog'oz bo'ylab ko'chirilish tezligi ularning kimyoviy tuzilishiga, erituvchilarda erish darajasiga bog'liq bo'ladi. Ayrim aminokislotalar turli xil eritmalarda turlicha erish

xususiyatiga ega. Odatda bu eritmalaridan biri suv, ikkinchisi esa suvda to'ydirilgan organik erituvchi bo'ladi (fenol, butil spirti va boshqalar). Odatda suv bilan aralashmaydigan yoki qisman aralashadigan organik erituvchilardan foydalaniladi.

Aminokislota bosib o'tgan masofaning (a) eritma bosib o'tgan masofaga (b) bo'lgan nisbati aminokislotalarning ajralish koeffitsiyenti deb ataladi. Aminokislotalarning ajralish koeffitsiyenti (R_f) har bir aminokislota uchun berilgan eritmada doimiy bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi.

$$R_f = \frac{a}{b}$$

Qog'oz xromatografiyasida aminokislotalar ikki usul yordamida ajratiladi. Bu pastga va yuqoriga harakat qiluvchi xromatografiya usulidir. Bundan tashqari yana bir tomonlama va ikki tomonlama xromatografiya usuli ham mavjud. Bir tomonlama xromatografiya usulida moddalarning ajralishi bir yo'nalishda bo'ladi. Bunda R_f yaqin bo'lgan aminokislotalar bir-biriga qo'shib 2-3 tadan bo'lib ajraladi. Ularni bir-biridan ajratish uchun ikki tomonlama xromatografiya usulidan foydalaniladi. Bunda ikkita organik erituvchi ishtirok etadi. Ajratish ketma-ket ikkita o'zaro perpendikulyar yo'nalishda olib boriladi.

Ish tartibi. Filtr qog'ozdan uzunligi 12-14 sm va eni 1,5 sm keladigan lenta qirg'iladi. Bu lentaning yuqori tomonidan igna bilan 15-20 sm ip o'tqaziladi. Qog'ozni pastki qismidan 1 sm qoldirib to'g'ri chiziq va uning o'rtasiga diametri 0,5 sm bo'lgan aylana chiziladi. Aylana o'rtasiga kapillyar yordamida 2-3 tomchi aminokislota aralashmasi tomiziladi. Tomchi tomizilgan joy havoda quritiladi. Uzunligi 18-20 sm va diametri 2 sm bo'lgan probirkaning tubiga sekin-astalik bilan probirka devorlariga tekkizmasdan suv bilan to'yintirilgan fenol eritmasidan 2 ml quyamiz. Tayyorlagan qog'oz lentaning ipini ushlab turib probirkaga tushiramiz, bunda qog'ozning uchi erituvchiga 2-3 mm botib, qat'iy ravishda vertikal turishi kerak. Probirkani probka

bilan berkitib 40-50°C temperaturada 1,5-2 soat davomida termostatga qo'yamiz. Probirkadagi eritma qog'oz lenta bo'ylab 10-12 sm ko'tarilgandan keyin xromatogrammani olib 100°C da 10-15 minut davomida quritamiz. So'ngra xromatogrammaga ningidrinning 0,1 % li eritmasi purkaladi yoki eritmaga botirib olinadi. Keyin 100°C temperaturada 5-10 minut davomida quritiladi. Xromatogrammada rangli dog'lar hosil bo'ladi. Dog'larning R_f i aniqlanib jadval-(ilovaga qarang)dan qaysi aminokislota ekanligi aniqlanadi. Aminokislotalarning bir-biridan ajralishi aniq bo'lishi uchun odatda R_f bir-biridan ko'proq farq qiluvchi aminokislotalar aralashmasi olinishi kerak.

Reaktivlar: suv bilan to'yintirilgan fenol eritmasi, ningidrinning 0,1 % li eritmasi, aminokislotalar aralashmasining 0,1 % li eritmasi (80 % li etil spirtida eritiladi).

libki

Aminokislotalarni yupqa qavatli xromatografiya usulida aniqlash

Yupqa qavatli xromatografiya usulida oqsil gilrolizatlar yoki aminokislotalar aralashmasidan barcha aminokislotalarni ajratish mumkin. Yupqa qavat sifatida ko'pincha silikagel, alyuminiy oksidi, sellyuloza hosilalari va boshqa moddalardan, tayyor holdagi maxsus plastinka (silufol)lardan foydalaniladi.

Bu metod ikkita aralashmaydigan suyuqliklar fazasida (harakat qilmaydigan suv fazasi va harakatlanuvchi organik erituvchi fazasi) aminokislotalarning turlicha bo'linish darajasiga asoslangan. Aminokislotalar suvli fazada ko'p erisa, organik erituvchilarning frontida sekin harakatlanadi. Barcha aminokislotalarning siljish tezligi turlichadir. Siljish tezligining koeffitsiyenti quyidagicha hisoblanadi.

igchi:

$$R_f = \frac{a}{b}$$

01

Bu erda: a -aminokislota tomizilgan joyidan to shu aminokislota hosil qilgan dog'ning o'rtasigacha bo'lgan masofa, sm; b -eritmaning fronti, sm.

Aminokislotalar bo'lingandan keyin plastinka quritiladi va ningidrin eritmasidan purkaladi. *a*-aminokislotalar ningidrin bilan o'zaro ta'sir etib oksidlangach, ammiak, aldegid va karbonat kislotaga parchalanadi, ningidrin qaytariladi. Qaytarilgan ningidrin hamda ningidrinning boshqa molekulasini ammiak bilan reaksiyaga kirishib, ko'k-binafsha rangni beruvchi murakkab mureksid birikmasini hosil qiladi.

Kerakli asboblari: xromatografiya kamerasi; termostat; 0,1 ml li pipetka.

Reaktivlar. 1.0,1 M sitrat buferi, pH-5,3. 2.0,1 % li ningidrinning asetondagi eritmasi. Xromatografiya plastinkalaridagi rangning turg'un bo'lishi uchun ningidrinli reaktivga kadmiy qo'shiladi. Bu eritma 5:1 nisbatda tayyorlanadi:

1 % li ningidrinning asetondagi eritmasidan -5 qism. 2. Kadmiy asetatining aralashmasi; bu aralashmani tayyorlash uchun 50 ml sirka kislotasi va 100 ml suv olib aralastiriladi hamda bu aralashmada 1 g kadmiy asetat eritiladi. So'ng ushbu eritmadan -1 qism olinadi. 3. Oqsil gidrolizati. 4. "Silufol UV-254" plastinkasi.

Ishning borishi. "UV-254" plastinkasini pastki tarafidan 2-2,5 sm o'lchab olib, oddiy qalam bilan start chizig'i chiziladi. Tekshirilayotgan oqsil gidrolizatlarini bir-biridan 1,5-2 sm oraliq masofada tomiziladi. So'ng bu oqsil gidrolizatlaridan 10-20 ml olib, tomchilab tomiziladi va dog' issiq havo bilan quritiladi-xromatografiya kamerasiga vertikal holatda quyiladi. Xromatofafiyalanish maxsus kameralarda olib boriladi, erituvchi sifatida 0,1 M sitrat buferi pH-5,3 ishlatiladi. Erituvchi kamerasiga 1-1,5 sm qalinlikda quyiladi.

Erituvchi plastinka balandligi 4/5 qismiga ko'tarilganda, plastinka kameradan olinadi va issiq havoda quritiladi. Shundan so'ng plastinkaga ehtiyotkorlik bilan 1 % li ningidrinli asetondagi eritmasidan purkaladi. Plastinkani 105°C da termostatda 10 minut davomida qizdiriladi. Natijada aminokislotalar ko'k-binafsha dog'lar holida ko'rinadi. So'ng har bir aminokislotalarni yuqorida ko'rsatilgan formula yordamida siljish tezligi ko'effitsienti (*R_f*) hisoblanadi.

Tekshirilayotgan oqsil gidrolizati bilan birga kontrol (standart) eritmalar ham xromatografiya qilinadi. Bu tekshirilayotgan namunadagi aminokislotalarni tezda aniqlashga imkon beradi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, yuqori qavatli xromatografiya usulida aminokislotalar sifat jihatdan baholanadi va ularning miqdorini aniqlashga imkon bo'lmaydi.

Dodetsilsulfat Na (DSN) ishtirokida oqsillarning poliakrilamid gelidagi elektroforezi

Oqsillar - odatda musbat yoki manfiy zaryadga ega bo'lib, buni ular molekulasidagi aminokislotalarning musbat yoki manfiy zaryadlangan guruhlari belgilab beradi. Agarda oqsil elektr maydoniga kiritilsa, u zaryad turiga, shuningdek oqsil molekulasini shakli va o'lchamiga bog'liq holda turli tezlikda harakatlana boshlaydi. Elektroforez metodi oqsillar aralashmalarini erkin suvli eritmalar va qattiq g'ovak matritsi (kraxmalda)da ajratishga asoslangan [35,36,38].

1960-yillar o'rtalarida elektroforezning DSN-PAAG ishtirokida poliakrilamid gelidagi turi aniqlangan. Poliakrilamid geli akrilamid, $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CO}-\text{NH}_2$ ning N, N - metilen - [bisakrilamid $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CO}-\text{NH}-\text{CH}_2-\text{NH}-\text{CO}-\text{CH}-\text{CH}_2$ bilan sopolimerlangan mahsuloti hisoblanadi. Poliakrilamid gellarining hosil bo'lishiga olib keluvchi sopolimerlanish reaksiyalarida katalizator sifatida ammoniy persulfat yoki riboflavin bilan birgalikda erkin radikallar manbai hisoblangan oksidlovchi-qaytaruvchi tizimlar qo'llaniladi.

Poliakrilamid geli bir qator xususiyatlarga ega: kimyoviy jihatdan turg'un va inert shaffof, adsorbsiyalash va elektroosmosga ega emas, ko'pchilik eritmalarda erimaydi. Bundan tashqari, u turli kattalikdagi teshiklardan iborat. Elektroforez metodida oqsil molekullari nafaqat zaryadi bo'yicha, balki o'lchami bo'yicha ham farqlanadi.

DDS- Na elektroforezi. DDS- Na ishtirokidagi PAA elektroforezi oqsillarni ularning nisbiy molekular massasiga bog'liq holda fraksiyalash imkonini beradi. DDS- Na va merkaptetanol ishtirokida ko'pchilik oqsillar DDS-Na bilan bog'lanadi va dissotsialanadi, disulfid bog'lar merkaptetanol

yordamida uziladi, ikkilamchi strukturaning buzilishi natijasida oqsil subbirliklari va DDS- Na dan iborat kompleks betartib konfiguratsiyaga ega bo'ladi. Bu hol oqsilning massa birligiga bog'lanuvchi DDS- Na miqdori doimo turg'un va 1g oqsil uchun 1,4g DDS - Na to'g'ri kelishi bilan izohlanadi.

Asbob va reaktivlar: elektroforez kamerasi, elektrodlar, sentrifuga, mikropipetkalar.

1-eritma: akrilamid-29,2g, MBA-0,8g, dis.suv 100 ml gacha.

2-eritma: tris pH, 8,8-1,5 M, 8B8-0,4%, dis.suv 100 ml gacha.

3-eritma: tris pH 6,8-1,5M, 808-0,4%, dis.suv 100 ml gacha.

4,5%gel

10%gel

1-eritma:-1,7 ml

1-eritma-5,66ml.

3-eritma- 3 ml

3-eritma - 4,25ml.

SDS 20% -30 mkl

SDS 20% - 80mkl.

Dis. Suv - 5,3ml

Dis. Suv - 7,1ml.

TEMED - 1 0mkl

TEMED - 10 mkl.

PSA 10% - 80mkl

PSA 10% - 10 mkl.

Elektrod buferi: tris - 0,0025 M, glitsin - 0,092M, 8B8 - 0,1%, dis suv 1000 ml gacha, pH - 8,3.

Ish tartibi. Namuna katakchaga kiritilishidan oldin oqsil ekstrakti 1-2 minut qaynab turgan suvda ushlab turilib, denaturatsialanadi va sentrifugalanadi. So'ngra ekstraktda oqsil miqdori aniqlanadi. Odatda katakchaga 20 dan 40 mkg gacha oqsil solinadi. Marker oqsillar sifatida -qoramol zardobi albumini (68KD), va sitroxrom (12KD) qo'llaniladi.

Elektroforez tartibi. Elektroforez katod (-) dan anod (+) ga tomon olib boriladi. Dastlab kichik quvvatga ega tok, ulanadi. 20-30 minutdan so'ng tok quvvati oshiriladi va turg'un saqlanadi.

Eletroforez so'ngida (3-4 soat) gel eritmada (15 ml sirka kislota, 50ml etanol, 135ml dis suv) fiksirlanadi. So'ungra quyidagi eritmada bo'yaladi: havorang kumasi - 200mg, sirka kislota - 15ml, etanol - 50ml, suv - 135ml. Ortiqcha rang quyidagi eritma yordamida olib tashlanadi: sirka kislota -14mg, etanol - 30ml, suv - 135ml. Oqsillarning nisbiy elektroforetik harakatchanligi buyovchi bromfenol kukining harakatiga nisbatan aniqlanadi. Marker oqsil asosida kalibrovka egri chizig'i

chiziladi va o'rganilayotgan oqsillarning molekular og'irligi aniqlanadi.

Oqsillar fraksiyalarini poliakrilamid gelida disk elektroforez usuli bilan aniqlash


Oqsillarni elektroforezi analitik maqsadlarida qo'llaniladi. Disk elektroforez usuli-oqsillarni ma'lum konsentratsiyali va ma'lum molekularining g'alvirli geldagi bo'linishidir. Disk-elektroforezni amalga oshirishda poliakrilamid geli qo'llaniladi. Poliakrilamid geli uch xil qismdan tashkil topgan:

1) katta g'alvirli gelning start qismi;

2) katta g'alvirli konsentrolvchi gel;

3) kichik g'alvirli bo'luvchi gel.

Poliakrilamid geli-akrilamid $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CO}-\text{NH}_2$ va NH metilenbisakrilamidning $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CO}-\text{NH}-\text{CH}_2-\text{NH}-\text{CO}-\text{CH}=\text{NH}_2$ sopolimerizatsiyalanish mahsulotidir.



Gelning yopishqoqligi, mustahkamligi va elastikligi poliakrilamidni polimerizatsiyalanish va tikilish darajasiga, shuningdek tikilishda ishtirok etgan N,N'-metilenbisakrilamidning miqdoriga bog'liq. Gel ustuncha shaklida mahkamlangan shisha trubkalarda polimerizatsiya qilinadi. Sopolimerizatsiyalanish reaksiyasi katalizatorlari sifatida oksidlovchi-qaytariluvchi sistemalar ishlatiladi, ular erkin radikallar manbai hisoblanadi, masalan: persulfat ammoniy $(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8$ va N,N,N,N'-tetrametiletildiamin (TEMED): $(\text{CH}_3)_2\text{N}-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{N}(\text{CH}_3)_2$.

Elektrod eritmalari, ya'ni bufer eritmalari, elektroddar bilan gellarning sirtqi qismlarida tok o'tkazuvchi vazifasini bajaradi, bunday holatlarda buferlarning pH va tarkibi turlicha bo'ladi. Elektroforez usuli juda yuqori sezgirlikka ega. Bu usul bilan qon zardobi oqsillarining 30 dan ortiq fraksiyalarini aniqlash mumkin.

Kerakli asboblari: Elektroforez uchun apparat organik oynadan yasalgan bo'lib, ikkita elektrodni rezervuarlardan iborat, yuqori va pastki, har birining hajmi 1,5 l. Ikkala rezervuarlarning ko'mir elektrodleri bo'lib, bu elektrodlerga doimiy tok ulanadi. O'zgarimas tok manbai sifatida UIP-1 pribori ishlatiladi.

Reaktivlar. 1. A - eritmasi: 100 ml kolbaga 48 ml 1 N HCl, 36,3 g tris va 0,46 ml TEMED solinadi, erib bo'lgandan keyin kolbaning belgisigacha suv solinadi. Eritma pH 8,9 ga teng bo'lishi kerak. 2. B-eritmasi: 100 ml kolbaga 30,0 g akrilamid va 0,8 g metilenbisakrilamid solib, 70-80 ml distillangan suvda eritiladi va filtrlanadi, so'ngra eritmaning hajmi distillangan suv qo'shib 100 ml ga etkaziladi, so'ng yaxshilab aralashtiriladi. 3. C-eritmasi: 0,14 g ammoniy persulfat 100 ml distillangan suvda eritiladi, bu eritmani ishlatishdan avval tayyorlanadi. 4. Elektrod buferi: 6,0 g tris va 28,8 g glitsin distillangan suvda eritiladi va hajmi suv qo'shib 100 ml ga etkaziladi, pH-8,3. Foydalanishdan oldin 10 marta suyultiriladi. 5. Bo'yoq-indikatorning eritmasi: bromfenol ko'kning 0,001% li distillangan suvdagi eritmasi. 6. Oqsil fraksiyalarini bo'yash uchun amido-shvars reaktivi

ishlatiladi. Amidqshvars 10 B ni 1% li eritmasi 7% li sirka kislotasining eritmasida tayyorlanadi. 7. Sirka kislotasining 7% li eritmasi. 8. Qon zardobi.

Ishning borishi. Gelni tayyorlash. Toza va quruq trubkalarining bir uchini leykoplastir yopishtirib berkitiladi va rezinali halqachalar kiygiziladi, so'ngra shtativga o'rnatiladi.


Alohida kolbaga yoki stakanga 1 qism A eritmadan, 2 qism B eritmadan, 4 qism C eritmadan va 1 qism distillangan suv olib aralashtiriladi. Tayyorlangan aralashmada har bir trubkalarga pipetka bilan 2,5 ml dan solinadi. Gelning usti bir xil tekis bo'lishi va kislorod o'tishining oldini olish uchun kapillyar yordamida 0,2-0,3 ml distillangan suvni aralashma ustiga qavat qilib quyiladi. Trubkalardagi gellarni polimerizatsiyalanish uchun 30 minut xona haroratida yoki termostatda 30°C da

15-20 minut saqlanadi. Polimerizatsiyalanish tamom bo'lgandan keyin, gel bilan qavat qilib quyilgan suv filtr qog'ozdan qirqib tayyorlangan lentachalar bilan olinadi va gelning yuqori qismi elektrod buferi bilan yuviladi.

Analiz qilishga ishlatiladigan oqsil eritmasi gel tayyorlash uchun qo'llaniladigan bufer eritmasidan tayyorlanadi. Oqsil eritmasining konsentratsiyasi 1-5 mkg/ml bo'lishi kerak. Masalan: qon zardobini tekshirish uchun 3 mkl qon zardobi (oqsil miqdori taxminan 200 mkg) 0,15 ml gel tayyorlash uchun ishlatiladigan bufer eritmasi bilan aralashtiriladi va zichligini oshirish uchun konsentratsiyasi 20-25 % bo'lguncha saxaroza yoki glitserin qo'shiladi, har bir trubkaga 10-100 mkl tayyorlangan oqsil eritmasidan solinadi. Shundan so'ng trubkalar oxirigacha elektrod buferi bilan to'ldiriladi.

Elektroforezni olib borish. Elektroforez xolodilnikda olib boriladi. Elektrod buferlari ishlatishdan avval harorati +4°C ga keltiriladi. Elektroforez apparati ham sovutiladi. Yuqorigi idishdagi bufer eritmasining 500 ml ga 1 ml bo'yoq-indikator, 0,001 % li bromfenol ko'k eritmasidan qo'shiladi. Apparatning qopqog'ini yopib, elektroddar o'zgarimas tok manbai bilan ulanadi, pastki elektrod anod (+), yuqori elektrod katod (-) bo'lib hizmat qiladi.

Har bir trubkaga 0,5-1,0 mA tok beriladi (20-30 minut) keyin uni har trubka uchun 2-5 mA ga etkaziladi. Oqsil fraksiyalarining bo'linishi 2-3 soat davom etadi, ya'ni bo'yoq trubkaning pastki uchiga 3 mm qolganda tok manbai o'chiriladi. Elektrod buferlari apparat idishlaridan boshqa idishlarga quyib olinadi va trubkalar burab chiqariladi. Trubkalardan gelni chiqarish uchun shprisga distillangan suv olib, igna bilan trubka devorlari hamda gel orasiga yuboriladi va asta-sekin gel chiqarib olinadi. Gellardagi oqsil zonalarini bo'yash uchun amidoshvars 10 B eritmasi probirkalarga solinadi va 10-15 minutga qoldiriladi. Shundan keyin boshqa idishga quyiladi. Gellar 7% li sirka kislotasining eritmasi bilan yuviladi. Gelning oqsilsiz qismlarini rangsizlantirish uchun ko'p marta shu eritma bilan yuvish lozim. Rangsizlantirish jarayoni 10-12 soat davom etadi. So'ngra oqsil fraksiyalari bor zonalar rangining intensivligiga va ularning joylashishiga qarab elektroforegrammalar chiziladi.



IV.43-rasm. Oqsillar elektroforegrammalarining ko'rinishi

V BOB. NUKLEIN KISLOTALAR


Nuklein kislotalar - DNK (dezoksiribonuklein) va RNK (ribonuklein) kislotalar organizmda hamma irsiy belgilarni saqlashda va oqsillar sintezida asosiy rol o'ynaydi. Dezoksiribonuklein kislota eukariotlarda (hayvonlar va o'simliklarda) asosan yadroda joylashgan [1,5,34,44,63,61,58].

Mitoxondriyalarda ham ozroq DNK mavjud. Euakriotlarning yadrosida bir necha pikogramm (pg) DNK bor: sut emuzuvchilarda 6 pg, qushlarda 2 pg.


Ribonuklein kislotalarning uch turi bor: informatsion RNK (i-RNK), transport RNK (t-RNK), ribosomal RNK (r-RNK). Bular bir-biridan tarkibi, hajmi, funksional xossalari va hujayradagi joylanishiga qarab farq qiladi. RNK asosan hujayra sitoplazmasida, kamroq miqdorda yadroda uchraydi. Hujayrada RNKning bajaradigan funksiyasi oqsil molekullari sintezida qatnashishdan iborat.

Nuklein kislotalar (polinukleotidlar) - nukleotidlardan tuzilgan polimerlardir. Nukleotidlar uch komponentdan: azot asoslari (purin yoki pirimidin), uglevod komponentlari - pentoza (riboza yoki dezoksiriboza) va fosfor kislota qoldig'idan tuzilgan.


Pirimidin asoslari:




Purin asoslari:



Purin




Adenin




Guanin

Tarkibida qanday pentoza borligiga qarab, nuklein kislotalar ikkita guruhga: RNK va DNK ga bo'linadi. RNK molekulasida tarkibida riboza, DNK molekulasida esa dezoksiriboza bor.



D-riboza




D-2-dezoksiriboza

RNK tarkibidagi azot asoslaridan adenin, guanin, sitozin va uratsil, uglevod komponentlaridan riboza mavjud. DNK tarkibida esa azot asoslaridan adenin, guanin, sitozin va timin, uglevod komponentlaridan dezoksiriboza uchraydi. DNK - ikki spiral zanjirli polinukleotidlardan, RNK - bir spiralli zanjirdan iborat.

Nukleotidlar tarkibida adenin bo'lsa, adenilat, guanin bo'lsa guanilat, sitozin -**sitodilat kislotasi** deb ataladi.

Nuklein kislotalarining o'zi girolizlanganda birin-ketin nukleotidlarga, nukleotidlar esa o'z navbatida nukleozidlarga va fosfat kislotaga, nukleozidlar -azot asoslariga va uglevodlarga (riboza, dezoksiriboza) parchalanadi.




Adenozin monofosfat

Nukleoproteinlar

Nukleoproteinlar prostetik guruhlari nuklein kislotalar bo'lib, DNK yoki RNK dan iborat. Nukleoproteinlar ishqoriy sharoitda yaxshi eriydi va kislotalar ta'sirida cho'kmaga tushadi. Dezoksiribonukleoproteinlar kichik konsentratsiyali tuz eritmasida cho'kadi, yuqori konsentratsiyali tuzlar eritmasida esa eriydi.

Nukleoproteinlar suyultirilgan kislotalar bilan chala gidroliz qilinganda ulardan oqsil va nuklein kislotaga ajralib chiqadi. Nuklein kislotalarining o'zi gidrolizlanganda birin-ketin quyidagi parchalanish mahsulotlari hosil bo'ladi:



Dezoksiribonukleoproteinlarni jigar va taloqdan ajratib olish

Phosphorylation of proteins, special enzymes - Fosforlangan oqsillar, maxsus fermentlar — proteinkinazalar yordamida fosforlanuvchi membrana, ribosomal va boshqa oqsillar. Bunday fosforlanish vaqtinchalik ahamiyatga ega bo'lib, boshqaruvchilik vazifasini bajaradi.

Phosphorylation - Fosforlanish — organik moddalar molekulasiga fosfat kislota qoldig'ining kirishi. Bunda tashqi energetik resurslar energiyasi yuqori energetik birikmalar (ATF) energiyasiga aylanadi. Uch: substrat, oksidativ va fotosintetik fosforlanish xillari mavjud.

Photosynthesis - Fotosintez — quyoshning yorug'lik energiyasi ta'sirida yashil bargli o'simliklar xloroplastlarida va ayrim mikroorganizmlarda anorganik moddalar (suv, karbonat anhidrid)dan organik moddalarning hosil bo'lish jarayoni. Bunda atmosferaga erkin kislorod ajratiladi.

Light reaction of photosynthesis - Fotosintezning yorug'lik reaksiyalari — quyosh nuri energiyasi hisobiga ATF va NADFH₂ kabi kimyoviy energiyaga boy bo'lgan birikmalarning hosil bo'lish reaksiyalari.

Does not require the light reaction of photosynthesis - Fotosintezning yorug'lik talab qilmaydigan reaksiyasi — karbonat anhidrid va suvdan fotosintez dastlabki mahsulotlarining hosil bo'lishini ta'minlovchi reaksiyalar yig'indisi.

G

Gametes, sex cell - Gameta, jinsiy hujayra — gaploid to'plamli xromosomalarga ega tuxum-hujayra va spermatozoid; hayvonlar va o'simliklarning urug'lanish jarayonida bir-biri bilan qo'shilish xususiyatiga ega.

Gametogenesis - Gametogenez — jinsiy hujayralar (gametalar)ning hosil bo'lish va yetilish jarayoni. Gametogenezning mohiyati, jinsiy hujayralarning rivojlanish va shakllanish davrida hujayralarning bo'linishini maxsus yo'l bilan amalga oshirishdan iborat. Bu yo'l meyoza deb ataladi va gaploid to'plamli xromosomalarga ega jinsiy hujayralarning hosil bo'lishini ta'minlaydi.

Gamma-aminofattyacid (GAFA) - Gamma-aminomoykislota (GAMK) — aminokislota; asab tizimining qo'zg'atgichlaridan biri.

Gamma rays - Gamma-nurlar — qisqa elektromagnit nurlanish, ya'ni gamma-nurlanish natijasida hosil bo'ladigan nurlar. Atom yadrolarining yemirilishi va yadro reaksiyalari natijasida hosil bo'ladi. Juda katta singish, predmet va jism ichiga kirish xususiyatiga ega. Defektoskopiya, nazorat qilish ishlarida va boshqa sohalarda foydalaniladi.

Gangliosides - Gangliozidlar — tabiiy organik birikmalar hisoblangan glikolipidlar vakili. Neyronlarning plazmatik membranalarida ko'p miqdorda uchraydi. Bakterial toksinlarning retseptori hisoblanadi. Odam organizmida gangliozidlar miqdori va tuzilishining o'zgarishi asab kasalliklariga sabab bo'ladi.

Haploid, single, simple view - Gaploid, yakka, oddiy ko'rinish — gaploid to'plami xromosomaga ega bo'lgan hujayra yoki organizm.

Haploid set of chromosomes - Gaploid to'plamli xromosomalar — jinsiy hujayralar (gametalar)da va profilaktika tadbirlarini o'rganadigan fan. Zoologiya, tibbiyot va veterinariya fanlari bilan bog'liq.

Hemoglobin - Gemoglobin — qon oqsili. Odam, umurtqali va ba'zi umurtqasiz hayvonlar qoni tarkibidagi temir atomini tutuvchi qizil rangli nafas pigmenti. U nafas olish a'zolaridan to'qimalarga kislorodni va to'qimalardan nafas olish a'zolariga karbonat angidridni olib o'tadi.

Gene - Gen — irsiy omil. DNK (viruslarda RNK) molekulasi bir qismi. Irsiy informatsiyaning tuzilishli va funksional birligi.

Gene engineering - Gen muhandisligi — rekombinat DNK lar texnologiyasi. Genetik va biokimyoviy usullar yordamida organizm yoki hujayra biologik informatsiyasini o'zgartirish bilan tabiatda uchramaydigan, yangi xususiyatga ega bo'lgan genlar to'plamini va shu asosda yangi nav hamda zotlarni yaratish.

Genetic maps - Genetik (irsiy) kartalar — xromosomalarda genlarning chiziqli tartibda joylashish

chizmasi. Seleksion ishlarda va nazariy tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega.

Genetic code - Genetik (irsiy) kod — irsiy informatsiyani ma'lum belgilar yordamida ifodalash tizimi; DNK molekulasiidagi nukleotidlar tartibini, oqsil molekulasiidagi aminokislotalar tartibiga aylantirish (tarjima qilish) qoidalari yig'indisi. Genetik kod birligi kodon yoki triplet deb ataladi. Hammasi bo'lib 64 kodon mavjud, shulardan 61tasi aminokislotalarni ifodalaydi; qolgan 3 tasi polipeptid zanjir sintezining tamom bo'lganligini bildiradi.

Genetic target, genetic marker - Genetik belgi (nishon), genetik marker — faqat retsessiv gomozigotada namoyon bo'ladigan retsessiv genlar va ular tomonidan nazorat qilinadigan belgilar.

Genetic information - Genetik informatsiya, irsiy axborot — avlodlarga ajdodlardan genlar to'plami sifatida beriladigan irsiy tuzilmalar (genlar, xromosomalar, sitoplazma, hujayra organoidlari)da joylashgan organizmning tuzilishi va vazifasi to'g'risidagi axborot.

Genetics - Genetika — irsiyat va o'zgaruvchanlik haqidagi fan. Hozirgi zamon genetikasiga irsiy omillarni nasldan naslga o'tish qonuniyatlarini kashf etgan G. Mendel va irsiyatning xromosoma nazariyasini yaratgan T. Morgan asos solgan.

Genes connection - Genlar ulanishi (tutashishi, birikishi) — genlarning ma'lum tartibda bir xromosomada joylanishi va nasldan naslga ma'lum bir kombinatsiyada, birgalikda tutashgan holda o'tishi. Bu hoi belgilarning mustaqil taqsimlanishidan farq qiladi. Tutashgan genlar krossingover paytida buziladi.

Cloning genes - Genlarni klonlash — o'ta toza holdagi ma'lum genni yoki shu gen yordamida hosil bo'ladigan oqsilni ko'p miqdorda ajratib olish usuli.

Gene fond - Genofond — tur yoki populyatsiya individlarida mavjud genlar to'plami. Mazkur guruh organizmlariga xos mutatsiyalarning tez-tez qaytarilishi bilan

xarakterlanadi. Atamani fanga A. S. Serebrovskiy kiritgan (1928). Genofond populyatsiyaning allel tarkibini belgilaydi.

Genome - Genom — Genlar yig'indisi, xromo- G somalarning asosiy gaploid to'plami. Genomning genotipdan farqi shundaki, u ayrim zot yoki navni emas, balki bir turni xarakterlab beradi.

Gene systematics - Genosistematika — tirik organizmlar barcha taksonomik guruhlar DNKsining nukleotidli tarkibini o'rganuvchi fan.

Genotype- Genotip — biron bir zot yoki nav barcha genlarining yig'indisi bo'lib, irsiy informatsiya asosini tashkil qiladi.

Hybridoma - Gibridoma, qo'sh hujayra — biron bir foydali birikmaning sintezlanishini nasldan naslga o'tkaza oladigan me'yorli hujayra bilan amalda cheksiz o'sish (ko'payish) xususiyatiga ega bo'lgan rak, shish hujayralarining qo'shilishidan hosil bo'lgan duragay hujayra.

Hypophysis - Gipofiz — umurtqali hayvonlar bosh miyasi asosida joylashgan ichki sekretiya bezi. Gipofiz ishlab chiqaradigan gormon organizmdagi moddalar almashinuvi jarayonini uyg'unlashtirishda katta ahamiyatga ega.

Histidine - Gistidin — ko'pchilik oqsillar tarkibida uchraydigan zaruriy aminokislota.

Histones - Gistonlar — o'simlik va hayvon hujayralari yadrosida uchraydigan arginin va lizin qoldiqlariga boy ishqoriy xususiyatli oqsillar.

Glycogen - Glikogen — hayvon kraxmali. Molekulasi glukozadan iborat; odam, umurtqali hayvonlarning asosan jigari va muskullarida hamda achitqi zamburug'larda, ko'k-yashil suvo'tlarida to'planadigan polisaxarid. Glikogen makkajo'xori donida ham topilgan.

Glycolipids - Glikolipidlar — uglevodlar va lipidlardan tashkil topgan murakkab birikma. Biologik membranalarning tashqi qismida uchraydi.

Glycolysis - Glikoliz — tirik organizmlarda glukozaning sut kislotasigacha fermentativ yo'l bilan parchalanishini ta'minlovchi anaerob jarayon.

Glycoproteins - Glikoproteinlar — uglevodlar va aminokislotalardan tashkil topgan murakkab oqsillar. Qon zardobidagi oqsillar; ko'pchilik fermentlar, membrana oqsillari misol bo'ladi.

Glycoside - Glikozidlar — shakar qoldiqlari va boshqa organik birikmalardan tashkil topgan moddalar guruhi. Ko'pchiligi achiq ta'mga ega. Ba'zilar tibbiyotda ishlatiladi.

Glycerides - Glitseridlar — glitserin va yuqori molekullari yog' kislotalar efiri; o'simlik va hayvon hujayralarida to'planadigan yog'larning asosiy qismi.

Globine - Globin — gemoglobin oqsili. Har xil hayvonlar gemoglobinidagi farq asosan globin bilan belgilanadi.

Globulins - Globulinlar — suyultirilgan tuzli eritmalarda eruvchi oddiy oqsillar. Dukkakli va moyli ekinlar urug'ining asosiy oqsili hisoblanadi. Qon zardobidagi ziddi tanachalar, ya'ni gamma-globulinlar ham shu oqsillar vakilidir.

Glucagon - Glukagon — oshqozon osti bezi gormoni. Insulin gormoni antagonisti. Glukagon ta'sirida glikogenning parchalanishi tezlashadi va qonda glyukoza miqdori ortadi.

Gluconeogenesis - Glukoneogenez — glukozaning uglevod bo'lmagan moddalardan biokimyoviy jarayonda hosil bo'lishi.

Glucose - Glukoza, uzum shakari — geksozalar guruhiga mansub monosaxarid. Keng tarqalgan. Hayvonlar va mikroorganizmlarning muhim energiya manbai hisoblanadi.

Glutamine - Glutamin — o'simliklarda azot almashinuvida muhim rol o'ynaydigan aminokislota.

Glutamate acid - Glutamat kislota — muhim aminokislotalardan biri, ko'pchilik oqsillar tarkibida uchraydi.

Glutathione - Glutation — barcha tirik organizmlarda uchraydigan tripeptid. Oksidlanish qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etadi.

Glutelines - Glutelinlar — g'alla o'simliklari donida uchraydigan, kuchsiz ishqoriy eritmalarda eriydigan oddiy oqsil.

Glutamin kislotasi va lizinga boy. G'o'za chigitida ham oz miqdorda uchraydi.

Golji complex - Golji apparati, Golji majmuasi — diskasimon membranalar to'plami va pufakchalardan tashkil topgan hujayra organoidi.

Homology chromosomes - Gomologik (o'xshash) xromosomalar — morfologik belgilariga ko'ra o'xshash bo'lgan bir xildagi juft xromosomalar. Bular bir xil genlar to'plamiga ega. Diploidli organizmlarda gomologik xromosomalar soni doimo juft bo'ladi.

Guanine - Guanin — purin asosi; nuklein kislotalar, nukleotidlar va boshqalar tarkibida uchraydi.

H

Cell - Hujayra — barcha tirik organizmlarning o'zidan ko'payish va o'zini boshqarish xususiyatlariga ega struktura-funksional birligi; elementar tirik tizimi. Har bir hujayra uch asosiy qism: plazmalemma, yadro va sitoplazma hamda undagi organoidlaridan tashkil topadi.

Cell aggregation - Hujayra agregatsiyasi, hujayraning to'planishi — hujayralardan ko'p hujayrali to'plamlarning shakllanish jarayoni. Organizm me'yorli rivojlanishida yuz beradi.

Cell differentiation - Hujayra differentsiatsiyasi — dastlabki hujayra bir xil massasidan har xil ixtisoslashgan to'qima hujayralarining shakllanishi.

Cell entry - Hujayra kiritmalari — moddalar almashinuvi mahsulotlari jamg'arma holda to'planuvchi oqsil va kraxmal donachalari, moy tomchilari, turli xil pigmentlar, ayrim tuzlarning kristallari va boshqalar.

Cell center - Hujayra markazi — membranasiz tuzilishga ega bir-biriga nisbatan perpendikular joylashgan ikkita sentrioladan iborat organoid.

Cell membrane - Hujayra membranasi, sitoplazmatik membrana, plazmolemma — asosan oqsillar va lipidlardan

tashkil topgan hujayra sitoplazmasini tashqi muhitdan yoki hujayra qobig'idan (o'simlik hujayralarida) ajratib turadigan membrana. U hujayraning yaxlitligini ta'minlaydi, hujayra bilan tashqi muhit o'rtasidagi aloqalarni boshqarib turadi.

Cell theory - Hujayra nazariyasi — biologiyaning eng muhim nazariyalaridan biri bo'lib, unga ko'ra barcha tirik organizmlar hujayra va uning hosilalaridan tashkil topgan. 1838— 1939 yillarda M.Shleydin va T.Shvann ishlab chiqqan.

Cell layer - Hujayra qobig'i — faqat o'simlik hujayralariga xos va plazmatik membrana tashqarisida joylashgan qobiq. Hujayraga qattqlik beruvchi selluloza tolalaridan iborat bo'lib, shaklni saqlab turadi.

Secondary structure - Ikkilamchi struktura — oqsillar, nuklein kislotalar va uglevodlarning vodorod bog'lar tufayli hosil bo'ladigan tuzilishi.

The immune system - Immun tizim — Himoya qiluvchi tizim, organizmdagi kimyoviy moddalarni aniqlash, bilish xususiyatiga ega bo'lgan tizim. Bu tizimning vazifasi hayvon va odam organizmiga kirgan har qanday begona modda (mikroorganizm)ni aniqlash va uni bartaraf etishdan iborat.

Immunoglobuline - Immunoglobulin, himoya oqsili — begona (yot) moddalar — antigenlar bilan o'ziga xos birikish xususiyatiga ega murakkab oqsil. Odam va umurtqali hayvonlar qonida bo'ladi.

Immunology - Immunologiya, organizmning himoya reaksiyalari — immunitet haqidagi fan.

Induction, stimulation - Induksiya, qo'zg'atish — ikki asosiy fiziologik jarayon — qo'zg'alish va to'xtash jarayonlariga asab markazlarining o'zaro ta'siri. Bunda bir jarayonning hosil bo'lishi qarama-qarshi hisoblangan ikkinchisining ham rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Inductor - Induktor, qo'zg'atuvchi — indutsirlangan fermentlarning hosil bo'lishini tezlatuvchi modda.

Information RNA - Informatsion RNK, vositachi RNK, qolip RNK — hujayra oqsillarining sintezi uchun qolip,

vositachi bo'lib, genetik informatsiyani DNK dan poliribosomalarga ko'chiradi.

Informasomes - Informosomalar — eukariotlar hujayrasidagi ribonuklein kislota va oqsildan iborat birikmalar.

Inhibitors - Ingibitorlar — o'simliklarning o'sish ingibitorlari, o'simliklar o'sishini sekinlashtiruvchi tabiiy yoki sintetik moddalar. Bularga etilen, absizat kislota, xlorxolinxlorid (tur) kabilar kiradi.

Inoculation - Inokulyatsiya — tirik mikroorganizmlarni ozuqa muhitiga, o'simlik yoki hayvon organizmiga kiritish. Masalan, dukkakli o'simliklar urug'ini tuganak bakteriyalari bilan emlash (yuqtirish).

Insulin - Insulin — oshqozon osti bezi ishlab chiqaradigan oqsil tabiatli gormon. Qondagi shakar miqdorini boshqaradi.

Introduction - Introduksiya, joriy etish, kiritish — hayvon yoki o'simlik turlarini ilgari yashamagan yoki o'smagan, tabiiy sharoiti boshqacha joylarga ko'chirish, iqlimlashtirish, tarqatish. Yovvoyi o'simliklarni madaniylashtirish.

Intron - Intron, oraliq qism — gen (DNK) ning irsiy axborotga ega bo'lmagan va ekzonlarni ajratib turuvchi bir qismi. Faqat eukariotlarga va ularning viruslariga xos.

Heredity - Irsiyat — organizmning avlodlar o'rtasidagi moddiy va funksional izchilligini, ya'ni ota-onadagi belgi hamda xususiyatlarning keyingi avlodga o'tishini ta'minlash xususiyati.

Irsiyat hayotning doimiyligini va turli shakllarda namoyon bo'lishini ta'minlab, tirik organizmlar evolutsiyasining asosini tashkil etadi.

Heredity - Irsiylanish, nasldan naslga o'tish — organizmlarning irsiy informatsiyasini avloddan avlodga o'tkazish jarayoni.

Izoelectric point - Izoelektrik nuqta — amfoter moddalarning anodga ham, katodga ham harakat qilmaydigan muhit - pH ning qiymati. Oqsil moddalarining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Izoelektrik nuqtada oqsil beqaror bo'ladi va osonlik bilan cho'kmaga tushadi.

Izoferments - Izofermentlar — bir biologik turda bir-biriga o'xshash katalitik reaksiyalarni bajaruvchi, biroq tuzilishi va fizik-kimyoviy hamda immunologik xususiyatlari bilan farq qiluvchi fermentlar guruhi.

Izoleysin - Izoleysin — zaruriy aminokislota. Ko'pchilik oqsillar tarkibida uchraydi.

Isomerazis - Izomerazalar — organik birikmalarning o'zaro almashinuv reaksiyalarini kataliz qiluvchi fermentlar sinfi.

K

Cario - Kario... — hujayra yadrosiga taalluqni anglatuvchi murakkab so'zning tarkibiy qismi.

Carioplazma - Karioplazma — Yadro plazmasi yadro shirasi — xromatin iplar, yadrocha va boshqa ko'pgina yadro tuzilishlari oralig'ini to'ldiruvchi modda.

Carotene - Karotinlar — sarg'ish-pushti tusli, asosan yashil o'simliklarda hosil bo'ladigan karotinoidlarga mansub pigment. Sabzi va na'matak mevasida ko'p. Karotin — A vitamin provitaminidir.

Catabolism - Katabolizm, parchalanish reaksiyalari — tirik organizmlarda murakkab organik moddalar — oqsillar, nuklein kislotalar, uglevodlar, yog'larning yoki organizmlarning o'zida to'plangan ozuqa moddalarning fermentativ yo'l bilan parchalanishi. Bunda ular to'plangan energiya ajralib chiqadi va ATF yoki membrane potentsiali shaklida to'planadi (q. Dissimilatsiya).

Catalysis - Katalaza, oksidlovchi ferment — oksidoreduktaza sinfiga mansub vodorod peroksidning suv va kislorodgacha parchalanish reaksiyasini katalizlovchi ferment. Barcha tirik organizmlar tarkibida uchrab, ularni vodorod peroksidining zaharli ta'siridan saqlanishiga imkon beradi.

Clone - Klon — jinssiz ko'payish yo'li bilan bir ajdoddan vujudga kelgan individ, avlod yoki hujayralar majmui.

The code table - Kod jadvali — kodonlarning qaysi aminokislolarni ifodalashini ko'rsatib beruvchi jadval.

Codon, triplet - Kodon, triplet — irsiy informatsiya (axborot) birligi. Uchta ketma-ket turuvchi nukleotiddan iborat informatsion RNK ning bir qismi.

Cofersments - Kofermentlar, koenzimlar — ba'zi fermentlar faol markazining tarkibiga kiruvchi oqsil bo'lmagan organik birikmalar. Ko'pchilik kofermentlar vitaminlar hosilasidir.

Cocarbocsylasis - Kokarboksilaza, tiamindifosfat — vitamin B ning pirofosforli efiri. Odam va hayvon organizmida glukozaning parchalanishida muhim ahamiyatga ega, piruvatdekarboksilaza fermentining kofermenti.

Colonial organisms - Kolonial organizmlar, to'dalashib yashovchi organizmlar — jinssiz ko'payish (kurtaklanish)dan so'ng yuzaga kelgan avlod individlarining ona organizm bilan qolib, to'da — koloniya holida yashashi. Masalan, suvo'tlar.

Complementary - Komplementarlik, to'ldiruvchanlik — biopolimerlarning kimyoviy tuzilishidagi o'zaro muvofiqlik. Masalan, DNK molekulasidagi bir polinukleotid zanjir nukleotidlarning ketma-ketligi ikkinchi zanjirdagi nukleotidlar ketma-ketligini aniqlab beradi va to'ldiradi.

Complementation - Komplementatsiya, to'ldirish — bir genning ikki mutant allelini bir zigotada birlashuvi. Bunda yovvoyi yoki unga yaqin fenotip o'zining boshlang'ich holatiga qaytadi.

Cseniobiotics - Ksenobiotiklar — organizm uchun yot moddalar: pestisidlar, maishiy xizmatda qo'llaniladigan kimyoviy preparatlar, dorivor moddalar va shunga o'xshash birikmalar.

L

Compromise - Labillik, noturg'unlik, beqarorlik — organizmning tashqi va ichki muhit o'zgaruvchanligiga bog'liqligi, ya'ni ularning ta'siriga turg'unligini bildiradi.

Lactation - Laktatsiya — sut emizuvchi hayvonlarning sut bezlarida sutning hosil bo'lishi, to'planishi va uning vaqti-vaqti bilan ajralib turishi.

Lactase - Laktaza — sut shakari fermenti; laktoza disaxaridini ikki molekula glukozagacha parchalaydi.

Lactose - Laktoza — Sut shakari — ikki molekula glukozadan tashkil topgan disaxaridlar. Ko'p miqdorda sutda va ba'zi o'simliklar tarkibida qisman uchraydi.

Leysine - Leysin — zaruriy aminokislota. Ko'pgina hayvon va o'simlik oqsillarining tarkibida bor.

Liascs - Liazalar — ma'lum birikmalarning substratdan suv ishtirokisiz ajralishini katalizlovchi fermentlar. Ularning faoliyati tufayli qo'shbog'lar hosil bo'ladi yoki yo'qoladi.

Ligases - Ligazalar, sintetazalar — ATF yoki shunga o'xshash birikmalar energiyasi hisobiga oddiy molekulalardan murakkab birikmalar hosil bo'lish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar sinfi.

Lipase - Lipaza — yog'larni glitserin va yog' kislotalariga parchalanish reaksiyasini katalizlovchi gidrolazalar sinfiga mansub ferment.

Lipids - Lipidlar — organik erituvchilar (benzin, benzol, xloroform, geksan) da yaxshi eriydigan va suvda erimaydigan yuqori yog' hamda yog'simon moddalar. Glitserin yoki boshqa spirtlar va molekulali yog' kislotalarining murakkab efiri hisoblanadi. Hayotiy jarayonlarda favqulodda muhim ro'l o'ynaydi. Lipidlar biologik membranalar tarkibiga kiradi. Hujayraning o'tkazuvchanligiga ta'sir qiladi, muhim energetik manba bo'lib, himoya vazifasini bajaradi.

Binary lipid - Lipidli qo'shqavat, yog'li qo'sh-qavat — biologik membranalarining asosiy tuzilmasi. Ko'pchilik suvda eruvchi birikmalar uchun o'ta olmaydigan to'siq hisoblanadi.

Lipoproteins - Lipoproteinlar - yog'lardan tashkil topgan murakkab oqsillar. Biologik membranalarining tuzilish elementlari hisoblanadi. Lipotsit — yog'li hujayra.

Liposome - Liposoma — Yog'li tanacha, yog'li pufakcha — 1) ichida eritma bo'lgan va lipidli membrana bilan o'ralgan

pufakcha. Hujayradagi ayrim jarayonlarni o'rganishda qulay model bo'lib xizmat qiladi; 2) yog'dan iborat hujayra globulalari. Sun'iy ravishda tayyorlanadi va biologik tadqiqotlarda foydalaniladi.

Lysosome - Lizasoma — hujayra tuzilmasi. Ularda murakkab organik birikmalarni parchalovchi gidrolitik fermentlar mujassamlashgan bo'ladi. Hujayraning himoya, hazm qilish, ajratib chiqarish va boshqa vazifalarini bajaradi.

Lysine - Lizin — zaruriy aminokislota. Barcha to'la qiymatli oqsillar tarkibida uchraydi. Ozuqa va yem-xashaklar sifatini oshirish uchun sintetik lizindan foydalaniladi.

M

Macroenergetic compounds - Makroenergetik birikmalar, energiyaga boy birikmalar — ATF va fermentativ reaksiyalarda ATF hosil qilish xususiyatiga ega bo'lgan birikmalar. Bu birikmalarni gidroliz qilinganda ko'p miqdorda energiya ajralib chiqadi.

Macromolecule - Makromolekula — kichik molekularlarning takrorlanishi natijasida hosil bo'lgan polimerlar. Murakkab va o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, hujayrada ma'lum vazifalarni bajaradi.

Macronucleus - Makronukleus, yirik yadro — infuzoriyalardagi katta somatik yadro. Modda almashinuvi jarayonlarini boshqarishda ishtirok etadi.

Maltoze - Maltoza, don shirasi, don shakari — ikkita glukoza molekulasidan iborat disaxarid. Unayotgan don shiralarda ko'p miqdorda uchraydi.

Matrix - Matriks (sitologiyada) — hujayraning asosiy moddasi.

Matrix - Matritsa — genetik informatsiya nusxasini olish uchun qobip yoki asos. Bu DNK ning polinukleotid zanjiri bo'lib, undan yangi nusxa olish uchun xizmat qiladi.

Matritsali-RNK — Informatsion RNK.

Membrane - Membrana, parda — oqsil va lipiddan tashkil topgan yarim o'tkazgich molekular to'siq. Hujayra va hujayra organoidlari — yadro, mitoxondriya, xloroplast va boshqalarni o'rab turadigan parda.

Membrane proteins - Membrana oqsillari — biologik membranalarning maxsus vazifalarini amalga oshiruvchi oqsillar.

Membrane receptors - Membrana retseptorlari — Biriktiruvchi membranalar — plazmatik membranlardagi gormonlarni biriktirib olish xususiyatiga ega murakkab birikmalar.

Metabolism - Metabolizm, moddalar almashinuvi — hujayrada fermentlar ishtirokida boradigan moddalarning hosil bo'lishi, parchalanishi va o'zaro almashinuvidan iborat bo'lgan barcha reaksiyalarning yig'indisi. Bunda organizm hayot faoliyati, o'sishi, ko'payishi uchun zarur moddalar va energiya bilan ta'minlanadi (q. Anabolizm, Katabolizm).

Metalloproteins - Metalloproteinlar — tarkibida metall atomi bo'lgan va organizmda xilma-xil vazifalarni bajaradigan oqsillar. Bularning ko'pchiligi fermentlardir. Ularning faolligi magniy, kaliy, natriy, kalsiy va boshqalarga bog'liq. Temir, mis, manganets, molibden kabi elementlar muhim oqsillarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday oqsillarga gemoproteinlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Metionine - Metionin — tarkibida oltingugurt bo'lgan zaruriy aminokislota. Barcha to'la qimmatli oqsillar tarkibiga kiradi. Sintetik metionin yem, ozuqalar qiymatini oshirishda va tibbiyotda dori-darmon sifatida ishlatiladi.

Microsomal oxidation - Mikrosomal oksidlanish — mikrosomalarda kechadigan oksidlanish jarayonlari. Mikrosomalarda kislorodni to'g'ridan-to'g'ri har xil substratlarga biriktiruvchi faol oksigenazalar ko'p bo'ladi.

Microsomes - Mikrosomalalar, kichik tanachalar — hujayra sitoplazmasidagi fraksiyalar.

Mitochondria - Mitoxondriya — hujayraning quvvat markazlari; eukariot organizmlarni energiya bilan ta'minlaydigan donador hujayra organoidi.

DNA of Mitochondria - Mitoxondriya DNKsi — mitoxondriyaning uncha katta bo'lmagan halqasimon DNK molekulasi. Sitoplazmatik irsiyat molekular antropologiya va paleogenomikada muhim ahamiyatga ega.

Metabolism - Modda almashinuvi — tirik organizmlarda sodir bo'ladigan modda va energiyaning qonuniy tartibda o'zgarib, almashinishi. Hayot asosini tashkil etuvchi kimyoviy reaksiyalar majmui (q. Metabolizm).

Molecular biology - Molekular biologiya — tiriklik belgilari va asosiy xususiyatlarini molekular darajada o'rganuvchi fan. Asosiy vazifasi muhim biologik birikmalar hisoblangan oqsil va nuklein kislotalarning o'zaro ta'siri, xususiyatlari va strukturasi bilan bog'liq bolgan irsiyat, oqsil biosintezini, informatsiyani saqlash hamda uni uzatish kabi hayotga xos xususiyatlarni tadqiq etishdan iborat.

Molecular genetics - Molekular genetika — genetika va molekular biologiyaning bo'limi. Organizmlar irsiyat va o'zgaruvchanligining moddiy asoslarini hujayradan past bo'lgan organoidlar va molekular darajada o'rganadi. Molekular genetikaning rivojlanishi mutatsion jarayonlar, ya'ni irsiy informatsiyaning o'zgarishini chuqurroq o'rganish imkonini beradi (q. Gen muhandisligi).

The monoclonal antibodies - Monoklonal antitanalar — Yakka payvand ziddi tanalar, — gibridom klonlar tomonidan sintez qilinadigan moddalar. Ular xususiyatlari bo'yicha bir xil, antigenga (yot tanachaga) nisbatan bir xil o'xshashlikka ega va faqat bitta antigen bilan bog'lanadi.

Monoculture - Monokultura — Ekin yakka hokimligi — bir xil ekinning ko'p yil davomida uzluksiz, almashlab ekishga rioya qilmay, bir maydonga ekilishi.

Monosaxarides - Monosaxaridlar — Oddiy uglevodlar, oddiy shakarlar — aldegidospirtlar yoki ketospirtlardan iborat. Tarkibidagi karbon atomining soniga qarab geksoza, pentoza,

tetroza va trioza bo'linadi. Ularga glukoza, fruktoza, galaktoza, riboza va boshqalar kiradi.

Mutation - Mutatsiya, o'zgarish, almashish — barcha tirik organizmlarga xos xususiyat. Bunda irsiy informatsiya yoki irsiy belgilar tabiiy yoki irsiy omillar ta'sirida birdaniga o'zgarib, yangi barqaror belgilar hosil qiladi, keyinchalik bu belgilar nasldan-naslga o'tish xususiyatiga ega bo'ladi. Irsiy asosning o'zgarish xarakteriga qarab mutatsiya genomli, xromosomal va genili mutatsiyalarga bo'linadi. Hujayra yadrosi bilan bog'liq bo'lmagan genlarning mutatsiyasi sitoplazmatik mutatsiya deb ataladi.

N

Respiratory chain - Nafas olish zanjiri — organik birikmalarning oksidlanishini amalga oshiruvchi fermentlar to'plami.

Neofites - Neofitlar — ma'lum bir hududga yangi olib kelingan o'simliklar.

Nuclease - Nukleaza — nuklein kislotalarni nukleotidlarga parchalovchi fermentlar.

Nucleic acid - Nuklein kislotalar — nukleotidlardan tashkil topgan yuqori molekular organik birikmalar. Tirik organizmlarda irsiy belgilarni saqlaydi va oqsil biosintezida ishtirok etadi. Ayrim nuklein kislotalar fermentativ faollikka ega. Tirik organizmning barcha hujayralarida uchraydi. Ularning makromolekulalari bir yoki qo'sh polimer zanjirdan iborat bo'lib, monomer nukleotidlardan tashkil topgan.

Nucleoplazme - Nukleoplazma — 1) yadroning xromosomalar va yadrochadan tashqari tarkibiy qismlari; 2) bakteriya, ko'k- yashil suvo'tlari hujayrasining yadro vazifasini bajaruvchi qismi.

Nucleoproteins - Nukleoproteinlar — nuklein kislota va aminokislotalardan tashkil topgan murakkab oqsillar.

Nucleosome - Nukleosoma, yadro tanachasi — xromosomaning asosiy tuzilma elementi.

Nucleotides - Nukleotidlar — azot asoslari: uglevod komponentlari va fosfor kislotadan tashkil topgan organik birikmalar. Irsiy informatsiyaning elementar tuzilma birligi hisoblanadi. Fermentlarning kofermentlari sifatida muhim ahamiyatga ega.

Nucleosydes - Nukleozidlar — azot asoslari va uglevod komponentlaridan tashkil topgan organik birikmalar. Masalan, adenozin, uridin.

Radiation - Nurlanish — tirik organizmlarga nurlarning ta'siri. Bu odatda ta'sir qilayotgan nurning xiliga (radioaktiv, rentgen va hokazo), dozasiga va organizmning fiziologik holatiga bog'liq.

O

Ocsidoreductases - Oksidoreduktazalar — oksidlanish va qaytarilish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar sinfi. Hamma tirik hujayralarda uchraydi.

Oligosaxarides - Oligosaxaridlar — molekulasida ikkitadan o'ntagacha monosaxarid qoldiqlarini tutgan uglevodlar. Bular o'z navbatida disaxaridlar, trisaxaridlar, tetrasaxaridlar va boshqalarga bo'linadi.

Oncogenes - Onkogenlar — rak (shish, o'sma) hosil qiluvchi genlar. Bular me'yorli hujayrani xavfli shish hujayralarga aylantirish xususiyatiga ega.

Ontogenesis - Ontogenez — organizmning individual rivojlanishi. Bunga organizmning paydo bo'lganidan to hayotining oxirigacha ketma-ket yuz beradigan morfologik, fiziologik va biokimyoviy o'zgarishlar kiradi. Ko'p hujayrali organizmlar ontogenezi ikki: embional davri va embional davridan keyingi (postembional) bosqichlardan iborat. Odam va yuqori tuzilishga ega bo'lgan umurtqali hayvonlarda bu davrlar antenatal (tug'ilguncha) va postnatal (tug'ilgandan keyingi) davrlarga bo'linadi.

Operator gene - Operator gen — struktura genlarning faol holga kelishini ta'minlovchi genlar.

Operone - Operon — nazorat qiluvchi bir nechta struktura genlarining to'plami.

Optimal factors - Optimal omillar — yorug'lik, harorat, namlik, tuproq va boshqa ekologik omillarning organizm uchun eng yaxshi, qulay shakllari.

Proteins - Oqsillar — yuqori molekulyar tabiiy organik birikmalar: 20 xil aminokislota qoldiqlaridan tashkil topgan. Tirik organizmlar hayot faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Turli-tuman vazifalarni, jumladan, boshqaruvchilik (gormonlar), katalitik (fermentlar), himoya qilish (zidditanachalar) va boshqalarni bajaradi.

Minimum of protein - Oqsil minimumi — oqsilning ozuqa tarkibidagi eng kam miqdori bo'lib, bunda oqsil tangligi vujudga keladi. Insonning oqsilga bo'lgan kunlik o'rtacha talabi 80—100, og'ir mehnat qilganda esa 150 grammgacha.

Organelles - Organellalar — hujayra hayot faoliyati jarayonida o'ziga xos biron vazifani bajaruvchi struktura (tuzilma).

Pancreas - Oshqozon osti bezi — umurtqali hayvonlarning ovqat hazm qilish tizimidagi muhim bezlardan biri. Ovqat hazm qilish uchun pankreatik suyuqlik va modda almashinuv jarayonini boshqarishda ishtirok etuvchi insulin, glukagon gormonlarini ishlab chiqaradi.

P

Pantotenic acid - Pantotenat kislota, B₅ vitamini — yashil o'simliklar va mikroorganizmlarda sintezlanadi. Koferment A ning tarkibiy qismi.

Papaine - Papain — proteinaza fermenti. Oqsillarning gidroliz reaksiyalarini katalizlaydi. Qovun daraxtining pishmagan mevalaridan olinadi.

Papaverine - Papaverin — ko'knoridan olinadigan alkaloid.

Paramicoviruses - Paramiksoviruslar — Shilimshiqsimon viruslar — tarkibida RNK bor viruslar oilasi.

Umurtqali hayvon hujayrasining sitoplazmasida ko'payib, nafas yo'llari kasalliklarini tarqatadi.

Pectin substances - Pektin moddalar — o'simlik polisaxaridlari. Ular ayniqsa mevalarda ko'p to'planadi. Oziq-ovqat sanoatida ishlatiladi.

Pellagra - Pellagra — Dag'al teri — odamda vitamin PP va triptofan aminokislotasining yetishmasligidan kelib chiqadigan kasallik. Bunda teri po'st tashlab dag'allashadi.

Pentozes - Pentozalar — 5-uglerodli monosaxaridlar. Masalan, riboza, dezoksiriboza.

Pentose phosphate road - Pentozofosfat yo'li — geksozalarning pentozofosfat orqali hosil bo'lishi va parchalanishi.

Pepsine - Pepsin — oqsillarning gidrolizlanish reaksiyasini katalizlovchi ferment. Me'da shirasi tarkibida uchraydi.

Peptide bun - Peptid bog' — bir aminokislotaning karboksil guruhi bilan ikkinchi aminokislotaning amin guruhi o'rtasidagi bog' hisoblanadi. Peptid bog'larini boshqa birikmalar ham hosil qilishi mumkin. Masalan, karbamid.

Peptidase - Peptidazalar — peptidlar va peptonlarning gidrolitik parchalanish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar. Reaksiya natijasida erkin aminokislotalar hosil bo'ladi.

Peptides - Peptidlar — ikki va undan ortiq aminokislota qoldiqlarining peptid bog' orqali birikishi natijasida hosil bo'ladigan organik birikmalar.

Permeases - Permeazalar — ko'chiruvchi oqsillar. Membranalar orqali moddalarning faol ko'chishini ta'minlaydi. Masalan, aminokislotalar, shakarlar va boshqalarni.

Peroxidases - Peroksidazalar — oksidareduktaza sinfiga mansub turli polifenollarning vodorod peroksidi yordamida oksidlanishini katalizlovchi fermentlar.

Pesticides - Pestitsidlar — qishloq xo'jalik o'simliklarini kasal va zararkunandalardan, begona o'simliklardan himoya qilish, shuningdek, o'simlik barglarini to'kish, quritish hamda boshqa tadbirlar uchun qo'llaniladigan zaharli kimyoviy

birikmalar. Pestitsidlar odam va hayvon organizmi uchun xavfli. Shuning uchun uni ishlatish qat'iy nazorat qilinadi.

Pyrethroids - Piretroidlar — hasharotlarga qarshi qo'llanadigan moddalar — insektitsidlar. Siklopropankarbonat kislotalarning hosilalari bo'lgan tabiiy birikmalar. O'simliklardan hamda sun'iy yo'l bilan olinadi.

Plasmids - Plazmidalar — hujayraning xromosomalari bilan bog'liq bo'lmagan irsiy omillari. Ko'pchilik plazmidalar halqali qo'shzanjirli DNK molekulasidan iborat. Ular tirik organizmlarda keng tarqalgan bo'lib, gen muhandisligida boshqa genlarni ko'chirish uchun foydalaniladi.

Plasmogenes - Plazmogenlar — yadrodan boshqa hujayra organoidlari — mitoxondriya, xloroplastlarda joylashgan genlar. Irsiy informatsiyani ko'chirish xususiyatiga ega. Plazmogenlar to'plami plazmon deb ataladi.

Plasmolemma - Plazmolemma — protoplazmaning tashqi membranasi bo'lib, uni hujayra qobig'idan ajratib turadi.

Polimerases - Polimerazalar — kichik molekuli birikmalardan polimer birikmalar hosil bo'lish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar. Masalan, RNK-polimeraza.

Polymorphic genes - Polimorf genlar — tashqi ko'rinishdan bir xil ta'sir qilish xususiyatiga ega bo'lgan noallel genlar.

Polynucleotides - Polinukleotidlar — Murakkab nukleotidlar — mononukleotid qoldiqlaridan tashkil topgan murakkab biorganik birikmalar.

Polypeptides - Polipeptidlar — Murakkab peptidlar — juda ko'p aminokislota qoldiqlaridan tashkil topgan peptidlar.

Polyribosomes - Poliribosomalar — bir informatsion-RNK zanjirida yig'ilgan ribosomalar to'plami.

Promoter - Promotor — operondan oldinda joylashgan triplet guruhlaridan biri bo'lib, RNK va DNK sintezini katalizlovchi RNK-polimeraza bilan birikish xususiyatiga ega.

Pro-DNA - Pro-RNK — o'tmishdosh-RNK — DNKning genetik faol va sust qismlari to'g'risida informatsiyaga ega hamda matritsali-RNKning o'tmishdoshi bo'lgan RNK.

Prosthetic group - Prostetik guruh — murakkab oqsillarning, jumladan, ikki komponentli fermentlarning ham oqsil bo'lmagan qismi.

Proteinkinases - Proteinkinazalar — oqsillarning fosforlanishini katalizlovchi fermentlar. Fosforlangan oqsillar hujayra metabolizmini boshqarishda faol ishtirok etadi.

Proteolitik enzims-Proteolitik fermentlar — proteazalar, oqsil va peptidlarning gidrolitik parchalanishini katalizlovchi fermentlar.

Protoplazm -Protoplazma — tirik hujayra asosini tashkil qiluvchi rangsiz suyuq modda. Hozirgi zamon tushunchalariga ko'ra protoplazma biokalloid bo'lib, membrana yoki mikronaychalarni yig'ish, ortiqcha moddalarni chiqarib tashlash, oqsil molekularining konfiguratsiyasini o'zgartirish kabi hujayraning ichida sodir bo'ladigan juda ko'p o'zgarishlarni amalga oshiradi.

Protsessing -Protsessing, yetilish, yetilib pishish — funksional jihatdan faol bo'lgan RNK va oqsil molekularining hosil bo'lishi.

Q

Shield gland- Qalqonoldi bezlar — umurtqali hayvonlarda paratireoid gormonlarini ishlab chiqaruvchi ichki sekretiya bezlari.

Thiroid gland- Qalqonsimon bez — umurtqali hayvonlar va odam tomog'idagi maxsus ichki sekretiya bezi. Tarkibida yod tutuvchi terioid gormoni ishlab chiqaradi va to'playdi. Bu gormonlar organizmning modda va energiya almashinuvida katta ahamiyatga ega.

Comments spiral- Qo'sh spiral — ikki polinukleotid zanjirdan tashkil topgan DNK molekulasini. Zanjirlar bitta umumiy o'qqa ega va qarama-qarshi tomonga yo'nalgan. Qo'sh spiralni D.Uotson va F.Krik kashf etgan (1953).

R

Radiation genetics- Radiatsion genetika — genetikaning nurlanishni irsiyatga ta'siri, ya'ni nurlangan organizmlarda irsiy o'zgarish (mutatsiyalar)ning paydo bo'lishini o'rganuvchi bo'limi.

Radiation- Radiatsiya (ionlashuvchi) — Ionlashtiruvchi radiatsiya, ionlashtiruvchi nurlanish — u yoki bu darajada tirik organizmlarga yutiluvchi va ularda keskin o'zgarishlar paydo qiluvchi elektromagnit (rentgennurlar, gamma nurlar) hamda molekular (alfa-zarracha, betta-zarracha, proton va neytron oqimlari) radiatsiya. Tabiiy dozadan yuqori bo'lgan ionlantiruvchi nurlar tirik organizmlar uchun xavflidir.

The radiation balance- Radiatsiya muvozanati — atmosferada radiatsiya nurlanishi va yutilishining yig'indisi.

Radioactive pollution - Radioaktiv ifloslanish — radioaktiv moddalarning atrof-muhitda tabiiy me'yordan ortib ketishi. Radioaktiv ifloslanish yadro qurollarini (sinovdan o'tkazish) portlatish, atom elektrostansiyalari yoki boshqa atom bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlarda sodir

boladigan falokatlar, radioaktiv moddalari bo'lgan asbob-uskunalarining ishdan chiqishi natijasida vujudga keladi.

Light distribution - Radioaktivlik, nur tarqatish — bir element beqaror izotopining boshqa element izotopiga o'z-o'zidan yemirilish yo'li bilan aylanishi. Bunda tirik organizmlarga salbiy ta'sir qiluvchi nur ajraladi.

Radiobiology- Radiobiologiya — ionlashtiruvchi nurlarning barcha tirik organizmlarga ta'siri va radiatsiyadan himoyalaniish yo'liarini o'rganadigan fan.

Radioprotectors- Radioprotektorlar — nurdan himoya qiluvchi tabiiy moddalar yoki kimyoviy birikmalar. Undan tirik organizmlarni ionlashtiruvchi nurlardan himoya qilishda va radiatsiyaga bo'lgan chidamliligini oshirishda foydalaniladi.

Radio sensivity- Radiosezgirlik — Nurga sezgirlik — tirik organizmlarning ionlashtiruvchi nurlar ta'sirini sezish xususiyati.

Regulations- Regulatorlar (o'simlikda), o'simlik o'sishini boshqaruvchi moddalar — o'simlik o'sishini tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi turli-tuman organik birikmalar.

Recombination - Rekombinatsiya — tirik organizmlarning kombinativ o'zgaruvchanligi. Meyoz va mitoz jarayonida irsiy belgilarning qayta taqsimlanishi (rekombinatsiyasi) natijasida genlarning yangi o'zgargan birikishlari hosil bo'ladi.

Rekon- Rekon — rekombinatsiya birligi. DNK ning bir yoki bir necha juft nukleotidiga mos keladigan va keyingi qayta taqsimlanishlarda bo'linmaydigan eng qisqa qismi.

Rekultivation- Rekultivatsiya — mashina va mexanizmlarni qo'llab, foydali qazilmalar olish, qurilish ishlari va boshqalar ta'sirida unumdorligi hamda o'simliklari nobud qilingan tuproqlarni sun'iy ravishda qayta tiklash, shuningdek, atrofmuhit sharoitini yaxshilash.

Renaturation- Renaturatsiya — biopolimerlar molekulasi, masalan, oqsil yoki nuklein kislotalarning tabiiy xususiyatlarini yo'qotish (denaturatsiya) holatidan biologik faol holatga qaytishi.

Reparatation- Reparatatsiya, o'z holiga qaytish — mutagenlar ta'siridan yoki tabiiy buzilgan DNK birlamchi tuzilishining o'z-o'zidan qayta tiklanishi.

Replication- Replikatsiya — DNK molekulasining o'zidan nusxa olishi. Bunda ota-ona DNK sining nukleotidlar ketma-ketligida ifodalangan informatsiyasi yuqori aniqlik bilan bola DNK larga beriladi.

Repressor- Repressor — hujayrada fermentlarning hosil bo'lishini susaytiruvchi modda.

Retrovirus- Retroviruslar — tarkibida RNK tutuvchi viruslar. Ularning hayot sikli uchun RNK dan tashkil topgan genomning teskari transkripsiyasi xos. Ko'pchilik retroviruslar leykoz (oq qon), sarkoma (et, go'sht shishi) va sut bezlari shishi hosil qilishda ishtirok etadi.

Reverteaze- Revertaza — RNK dan DNKga irsiy informatsiyani ko'chirish reaksiyasini katalizlovchi qaytar transkriptaza fermenti.

Ribonucleic acid-Ribonuklein kislotalar — tarkibida uglevod komponentlaridan riboza; azot asoslaridan adenin, guanin, sitozin, urasil tutuvchi nuklein kislota turi. Asosan hujayra sitoplazmasida joylashgan. Bitta polenukleotid zanjiridan tashkil topgan. Tirik organizmlarda sodir bo'ladigan oqsil biosintezida muhim ahamiyatga ega. Ayrimlarida fermentativ faollik xususiyatlari mavjud.

Ribosome- Ribosoma — RNK va oqsildan tashkil topgan, oqsil biosintezini amalga oshiruvchi hujayra organoidi. Sitoplazmada erkin yoki endoplazmatik to'r va yadro qobig'iga birikkan holda uchraydi. Ribosoma ikki qismdan iborat bo'lib, tashqi ko'rinishidan yosh qo'ziqorinni eslatadi. Ular ko'pincha bir-birlari bilan birikib, poliribosomalar holida uchraydi.

S

Salitsilatic acid- Salitsilat kislota, aspirin — aromatik oksikarbonat kislota. Ko'pchilik o'simliklar tarkibida erkin holda uchraydi. Masalan, moychechakda.

Saproph dogs- Saprof itlar — tayyor organik moddalar (hayvon yoki o'simlik qoldiqlari, chi- rindilar) bilan oziqlanadigan organizmlar. Bularga ko'pchilik zamburug'lar, bakteriyalar va ayrim o'simliklar kiradi.

Sarcoplasmatic Sarkoplazmatik to'r — muskul tolalarining organellasi. Muskul hu-jayralarida nozik kanallardan iborat to'rlar hosil qiladi va muskullarning qisqarishini nazorat qiladi. Bunga miofibrillarda kalsiy ionlarining regulatsiyasini nazorat qilish tufayli erishiladi.

Satelit DNA- Satelit DNK — Yo'ldosh DNK — hujayra sentromeralaridan ajratib olingan yuksak ketma-ketlikka ega DNK.

Saxarazae- Saxaraza — invertaza, saxarozani gidroliz qiluvchi ferment.

Saxarozae- Saxaroza — shakarqamish yoki qandlavlagi shakari. Disaxaridlar guruhiga mansub bo'lib, glukoza va fruktozadan tashkil topgan. O'simliklar dunyosida juda keng tarqalgan.

Site-Sayt, mutatsiya o'rni — mutatsiya yoki rekombinatsiyaning eng kichik birligi. DNKdagi bir juft nukleotidga teng. Nuqtali mutatsiyadagi gen o'rnini belgilaydi.

Pulp- Selluloza — glukoza qoldiqlaridan tashkil topgan uglevod. o'simlik hujayrasining qobig'i asosan sellulozadan tashkil topgan.

Salitsilic acid- Salitsilat kislota, aspirin — aromatik oksikarbonat kislota. Ko'pchilik o'simliklar tarkibida erkin holda uchraydi. Masalan, moychechakda.

Saproph dogs- Saprofitlar — tayyor organik moddalar (hayvon yoki o'simlik qoldiqlari, chirindilar) bilan oziqlanadigan organizmlar. Bularga ko'pchilik zamburug'lar, bakteriyalar va ayrim o'simliklar kiradi.

Sytokinin- Sitokininlar — hujayra bo'linishini boshqaruvchi o'simlik gormoni; adenin hosilasi. o'simlik ildizlarida hosil bo'lib, uning yer ustki qismlariga ksilema orqali ko'tariladi.

Sytology- Sitologiya — hujayra tuzilishi, vazifasi hamda individual rivojlanishini o'rganuvchi fan. Hayvonlar gistologiyasi va o'simliklar anatomiyasi kabifanlarning tarkibiy qismi.

Cytoplasm- Sitoplazma hujayra qobig'i bilan o'ralgan bo'lib, sitozol, sitoskelet va hujara organoidlaridan tashkil topgan. Hujayra mag'izining nazoratida o'sish va ko'payish xususiyatiga ega.

Cytoplasm heredity- Sitoplazmatik irsiyat — hujayra yadrosi bilan bog'liq bo'lmagan irsiyat. Bunda ayrim irsiy belgilarning avloddan-avlodga ko'chirilishi o'simlik va hayvon hujayralarining sitoplazmasidagi omillar (xloroplast yoki mitoxondriya) orqali amalga oshiriladi.

Cytoskeleton- Sitoskelet, hujayra skeleti — barcha eukariot hujayralarining tarkibiy qismi. Mikronaylar va faol

iplar (filamentlar)dan iborat. Hujayra shakli va harakatlanish xususiyatini belgilaydi.

Cytochrome system- Sitoxrom tizimi — sitoxromlardan va sitoxromoksidaza fermentidan tashkil topgan tizim. Hujayraning nafas olish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Cytochrome -Sitoxromlar — tarkibida temir-porfirinlar tutuvchi oqsillar guruhi. Oksidlanish-qaytarilish jarayonining barcha jabhalarida ishtirok etadi.

Cytozin- Sitozin — nuklein kislotalar tarkibiga kiruvchi azot asoslar.

